

O'ZBEK TILI

Umumiy o'rta ta'lif maktabalarining
7-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi
vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

7

Toshkent – 2022

УО'К 811.512.133(075.3)
O' 16 KBK 81.2(O'zb)ya72

Tuzuvchilar:

Dilafruz Xidoyatova
Mehriyo Tulasheva
Namoz Rasulov
Nargiza Matlatipova
Nodira Allambergenova
Orzigel Beganchova

Taqrizchilar:

Muhabbat Qurbanova – O'zMU professori, filologiya fanlari doktori.

Aynur O'z O'zjan – Anqara universiteti professori (Turkiya).

Nazira Matlatipova – Toshkent shahri XTBB o'zbek tili metodisti.

Mohigul Yandashova – Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi 3-umum-ta'lif maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi.

O'zbek tili 7 [Matn]: 7-sinfi uchun darslik / D.A. Xidoyatova [va boshq.]. –Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. - 176 b.

Original maket va dizayn konsepsiysi Respublika ta'lif markazi tomonidan ishlandi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8353-7-5

© Respublika ta'lif markazi, 2022

INSON VA TABIAT BU – SAN'AT

Ishon, harakatlan va faxrlan	
O'zbekiston sporti	5
Chempionning bolaligi	7
Chegarasiz.....	9
Maqsad bu – harakat	11
Kimga nima qiziq?.....	13
Qiziqishdan mashhurlikkacha	15
Sport – mening hayotim.....	17
Adabiy o'qish.....	19

Ona tabiat – buyuk ne'mat

Onajonim – tabiat	20
Kislород	22
Ajoyib shifokor	24
Hayvonot olami.....	26
Qushlar dunyosi	28
Tabibimiz tabiat	30
Sog'lom yasha	32
Adabiy o'qish	34

Mohir qo'llar san'ati

O'n qo'ling – o'n hunar	35
Binokor – buniyodkor	37
Libos – inson ko'rki	39
Milliy hunarmandchilik	41
Zamonaviy hunarlar	43
Mahorat darsi: "Ikkinchi umr".....	45
Adabiy o'qish	47

2030-yil

Kelajak kasblari	
Dunyodagi kasblar	49
Kasb qanday tanlanadi?	51
Kasblar ham eskiradimi?	53
Kelajak kasblari.....	55
XXI asr dasturchilari	57
Qutqaruvchi	59
G'aroyib kasblar	61
Kasbidan kamol topganlar	63
Adabiy o'qish	65

Orzumizdagi texnikalar

Kelajak texnikalari	66
Maishiyl texnikalar.....	68
Allo, allo!	70
Parvozga shaylaning!	72
Dronlar	74
"Aqlii uylar"	76
Dunyonni o'zgartiruvchi texnikalar	78
Adabiy o'qish	80

KECHA, BUGUN, ERTAGA

Mahallam	
Xush ko'rdik!	82
Mahalla guzari	84
Mehmondo'stlik	86

Yon qo'shni – jon qo'shni.....	88
Mahalla bo'ylab	90
Hashar elga yarashar	92
Frenkining kundaligidan.....	94
Adabiy o'qish.....	96

Mening yurtim

Mening vatanim	97
Transport.....	99
Festivallar	101
Navro'z sayli	103
Yoqimli ishtaha	105
Ilm-fan inshootlari	107
Yurtimizdag'i teatrlar	109
Adabiy o'qish	111

Bizning sayyoramiz

Koinotga sayohat.....	112
Yer sayyorasi	114
Yetti iqlim	116
Dunyo xalqlari.....	118
Dunyo tillari	120
Dunyodagi tengdoshlarim	122
Dunyo kutubxonalari	124
Muzeylar	126
Nobel mukofoti sovrindorlari	128
Adabiy o'qish	130

ENSIKLOPEDIYA**Tabiat qonuni**

Tabiat va inson	132
Yil fasllari	134
Tabiatda suvning aylanishi.....	136
Tabiat hodisalari	138
Xavfli hodisalar	140
Adabiy o'qish	142

Eng, eng, eng

Eng g'aroyib o'simliklar	143
Eng g'aroyib hayvonlar	145
Eng baland tog'lar	147
Suv – mo'jiza	149
Eng go'zal shaharlar	151
Eng g'aroyib ginneschilar	153
Kitoblar	155
Adabiy o'qish	157

Ajdodlarning g'aroyib ixtiroları

Evrika	158
Nilometr	160
Ulug'bek rasadxonasi	162
Amerikalik ixtirochi	164
Vaqt qanday o'lchanadi?	166
Adabiy o'qish	168

Lug'at.....	169
-------------	-----

INSON VA TABIAT BU – SAN’AT



O'zbekiston sporti

1. O'qing.



1



2



3



4



5



6

1	O'zbekiston 1993-yilda Xalqaro olimpiya qo'mitasi a'zoligiga qabul qilindi.
2	Muhammadqodir Abdullayev 2000-yili Sidney Olimpiadasida oltin medalni qo'lga kiritdi. U Olimpiya o'yinlarida oltin medal olgan ilk o'zbek sportchisi sifatida tarixda qoldi.
3	Sport gimnastikachisi Oksana Chusovitina Olimpiada o'yinlarida 8 marta qatnashdi. Ushbu ko'rsatkich Ginnes rekordlar kitobidan joy oldi. (<i>kun.uz</i>)
4	2018-yilda O'zbekistonda xokkey o'yini tiklandi. "Binokor" jamoasi qayta tashkil qilinib, qo'shni mamlakatlarda bo'lib o'tadigan xalqaro turnirlarda ishtirok etishni boshladi. Oradan bir yil o'tib esa O'zbekistonda ilk bor xokkey bo'yicha xalqaro musobaqa tashkil etildi.
5	2012-yili Toshkentda dunyo standartlariga to'liq javob beradigan "Bunyodkor" stadioni foydalanishga topshirildi. Unga 34 000 dan ortiq muxlis sig'adi. ("Wikipedia")
6	Mirjalol Qosimov mustaqil O'zbekiston tarixidagi eng mashhur futbolchidir. U "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni, "Fidokorona xizmatlari uchun", "Mehnat shuhrati" ordenlari sohibi.

2. O'ylang va toping. Yozing!

Namuna:

- Oksana Chusovitina nega Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan?
- Chunki u Olimpiada o'yinlarida 8 marta qatnashgan.

1. Olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan ilk o'zbek sportchisi sifatida tarixda qolgan shaxs kim?

2. O'zbekiston 1993-yili qaysi xalqaro sport qo'mitasiga a'zo bo'lgan?

3. O'zbekiston tarixidagi eng mashhur futbolchi kim?

4. Mustaqil O'zbekistonda xokkey bo'yicha xalqaro o'yin ilk bor qachon tashkil etildi?

5. 34 000 dan ortiq muxlisni sig'dira oladigan sport inshooti qaysi?

3. O‘ylang. Toping va yozing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *to‘p, yutqazmoq, o‘ynamoq, jarima, hakam, g‘alaba qozonmoq, mag‘lub etmoq, darvozabon, kubok, kurashmoq.*

Sport	
Ot	fe'l
to‘p	kurashmoq
...	...
...	...

medal
jarima
turnir
g‘alaba qozonmoq
a’zo bo‘lmoq
mezbonlik qilmoq

4. Tinglang. Toping va gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	O‘zbekistonga Olimpiadadagi ilk medalni 1994-yili Norvegiyaning Lillehammer shahrida bo‘lib o’tgan qishki Olimpiadada Lina Cheryazova fristayl sport turidan taqdim etgan.
2	1998-yili O‘zbekistonda ilk bor tennis bo‘yicha “Prezident kubogi” xalqaro musobaqasi o‘tkazildi.
3	1997–2002-yillarda Toshkentda milliy sport turi bo‘lgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi tashkil qilindi.
4	Rustam Qosimjonov, Nafisa Mo‘minova, Nodirbek Abdusattorov, aka-uka Sindorovlar kabi shaxmatchilar o‘zbek shaxmatining nomini jahonga tanitmoqda.

Mustaqil ish

O‘zingiz yoqtirgan sportchi haqida ma’lumot to‘plang.

CHEMPIONNING BOLALIGI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Bahodirning onasi nima uchun farzandini sportdan olib ketmoqchi bo'ldi?
2. Championning boks olamiga qadam qo'yishiga nima sabab bo'lgan?
3. Bokschining hayotdagi shiori qanday bo'lgan?
4. Hayotdagi shioringiz haqida aytib bering.



2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Maks kurash tusha oladi.

Men kurash tusha olaman.

Men kurash tusha olmayman.

DIQQAT QILING

- a + olmoq
- y



3. O'qing.



"Men gollarimni buvimga bag'ishlayman. Futbolga aynan buvim yetaklab kelgan", – deydi Messi. Buvisi uni bo'lajak futbol yulduzi sifatida ko'ra oldi va to'rt yoshida Grandolining mahalliy futbol klubiga olib bordi. Futbolchi 24 yoshida eng yaxshi to'pu'rarga aylandi. Keyinchalik yetti karra "Oltin to'p" sohibi bo'ldi. Bu hali hech kim yeta olmagan natija edi.

"Jajji akademik" jurnalidagi bir maqolada shunday jumlalar bor: "Hatto buyuk insonlar ham bir vaqtlar sen-u men kabi oddiy bola bo'lgan. Ba'zilari maktabda yomon o'qigan bo'lsa, ba'zilarining qalbiga kattalar yo'l topa olmagan. Muhimi, oldingga maqsad qo'ydingmi, shu maqsad amalga oshguncha o'qi va o'rgan. Chunki buyuklar ham buyuk bo'lib tug'ilmagan".

4. O‘ylang, toping va gapiring. ✓ ✗

1. Messi “Oltin to‘p”ni yetti bor qo‘lga kiritgan. ✓
2. Buyuk insonlar mакtabda a‘lo baholarga o‘qishgan.
3. Messi yoshligida futbolga qiziqmagan.
4. Futbolchi 24 yoshida eng yaxshi to‘purarga aylandi.
5. Messining futbolga qiziqishini dastlab buvisi sezgan.
6. O‘qish va o‘rganish bilan maqsadga erishiladi.

qbiliyat
mashhurlik
qiziqmoq
amalga oshrimoq
to‘purar
murabbiy

5. O‘ylang va toping. Yozing.



Foydalanish uchun so‘zlar: shug‘ullanmoq, suzmoq, tushmoq, o‘ynamoq, qiziqmoq, uchmoq.

Namuna:

Mirjalol besh yildan beri futbol bilan shug‘ullanadi.

1. Mirjalol besh yildan beri futbol bilan ...
2. Dam olish kuni do‘stilarim bilan konki ...
3. Basketbolni yaxshi ... uchun muntazam mashq qilish kerak.
4. Champion raqibi bilan uchinchi marta jangga ...
5. Shaxmatga yoshligimdan ...

6. O‘ylang va toping. Gapiring.


Namuna:

Oshpaz ovqatni suzdi.



suzmoq

omonim



Mustaqil ish

Champion sifatida intervyyu berishga tayyorlaning.

CHEGARASIZ

1. Moslashtiring va yozing.

Namuna:

1–A, parakanoe (*eshkak eshish*)

Parakanoe (*eshkak eshish*) (A)

Paradzyudo (D)

Paratennis (E)

Parasuzish (B)


Parao'q otish (F)

Parayengil atletika (G)

iroda
matonat
maqsad
sabr
shiddat
asos solmoq
tashkil qilmoq



1



2



3



4



5



6

2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Paralimpiyaga kim asos solgan?
2. Bu musobaqalarni o'tkazishdan maqsad nima?
3. Ilk musobaqalar qanday nomlangan?
4. Guttmanni yana qanday nom bilan atashgan?
5. Xalqaro paralimpiya qo'mitasi qachon tashkil qilindi?

Maxsat



Maqsad



3. O'ylang va yozing.

Namuna:

Angliyaning Stok Mandevill gospitali vrachi urushda jarohatlanganlar uchun maxsus o'yin tashkil qildi.

1. Angliyaning Stok Mandevill gospitali vrachi urushda jarohatlanganlar uchun maxsus o'yin ...di.
2. Doktorning maqsadi nogiron bo'lib qolgan insonlarning hayotini ... edi.
3. Lyudvig Guttman o'z maqsadini ... orqali amalga oshirdi.
4. Ilk o'yin ... yilda o'tkazildi.
5. 1960-yildan boshlab urush faxriylari bilan birga ... ham qatnasha boshladи.
6. 1989-yilda ... qo'mitasi tashkil qilindi.

4. O'qing.



Paradzyudochi Sharif Xalilov Paralimpiada o'yinlari tarixida O'zbekistonga ilk medalni olib kelgan sportchi sifatida tarixga kirdi. U shunday deydi: "Inson irodasi uni hayot sinovlarida toplaydi, jamiyatda o'z o'rnnini topishga undaydi. Matonat esa maqsad sari dadil intilishga, bu yo'ldagi barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengishga kuch bag'ishlaydi. Biz sportchilar Paralimpiya o'yinlarida shiddat bilan harakat qildik va g'alabani qo'lga kiritdik".

Tokio – 2020 o'yinlarida ayollar o'rtasida parayengil atletikaning nayza uloqtirish turida Nozimaxon Qayumova 42.59 metr natija bilan oltin medalni qo'lga kiritdi. Nozimaxon Qayumova bunday deydi:

"Bir qaraganda hayotda muvaffaqiyat qozonish, g'olib bo'lish oddiy hodisaga o'xshaydi. Shunchaki "g'olib bo'lish tugmasi"ni bosasan va dovyuraklik bilan olg'a boraverasan. Albatta, g'olib bo'lish doimo huzurbaxsh. Biroq g'oliblik shunchaki qo'lga kiritilmaydi. G'olib bo'lish uchun ichimizda uyg'ongan istak, ortga chekinmaslik maqsadi bo'lishi kerak".



5. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna:

- O'zbekistonda Paralimpiada medalini birinchi bo'lib kim qo'lga kiritdi?
- O'zbekistonda Paralimpiada medalini birinchi bo'lib Sharif Xalilov qo'lga kiritdi.

1.?

– Birinchi Paralimpiada medalini O'zbekistonda Sharif Xalilov qo'lga kiritdi.

2.?

– Qiyinchiliklarni yengish uchun matonat kuch beradi.

3.?

– Biz shiddat bilan harakat qilganimiz natijasida g'alabaga erishdik.

4.?

– Nozimaxon Qayumova parayengil atletikaning nayza uloqtirish turida g'olib bo'ldi.

5.?

– G'olib bo'lish uchun insonda istak va ortga chekinmaslik maqsadi bo'lishi kerak.

Mustaqil ish

Paralimpiada ishtirokchilari irodasi haqida taassurotlaringizni yozib keling.

MAQSAD BU – HARAKAT

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1. Mashhur sportchilar osonlik bilan yuksak natijalarga erishadi. ✗
2. Shohsupanining yuqori pog'onasiga ko'tarilish uchun tinimsiz mehnat qilish kerak.
3. Sportda muvaffaqiyat uchun qobiliyat shart emas, ko'proq shug'ullanish kifoya.
4. Iste'dod hammaga ham berilavermaydi.
5. Muvaffaqiyat qozonish uchun mag'lubiyatda ham tushkunlikka tushmay, maqsad sari intilish kerak.
6. Har kimga har xil qobiliyat beriladi.

**qobiliyat
iste'dod
harakat
intiluvchanlik
mag'lubiyat
davom ettirmoq
erishmoq**

2. O'qing va savollarga javob bering.



Nodirbek 11 yoshida dunyoning 100 ta eng kuchli o'smirlari ro'y-xatiga kirdi. U o'z oldiga qat'iy maqsad qo'yish, vaqtini to'g'ri taqsimlash, tinimsiz mehnat orqali ko'plab yutuqlar sohibiga aylandi.

Nodirbek Abdusattorov 13 yoshida jahondagi eng yosh ikkinchi grossmeyster maqomiga erishdi. O'zining intiluvchanligi, mehnatsevarligi, tirishqoqligi va g'alabaga bo'lgan xohishi tufayli yutuqlarga ega bo'ldi. U intervyularining birida besh yildan so'ng dunyoning eng kuchli o'n shaxmatchisi ro'yxatida bo'lishi ni aytgan edi.

17 yoshli shaxmatchi 2021-yili rapid yo'nalishida 5 karra jahon chempioni Magnus Karlsenni mag'lubiyatga uchratdi va o'z maqsadiga erishdi.

1. Nodirbekning yutuqlari siri nimada deb o'ylaysiz?
2. Grossmeyster kim?
3. Shaxmatchi yoshlida o'z oldiga qanday maqsad qo'ygan edi?
4. Siz qaysi sportchilarga havas qilasiz?

DIQQAT QILING

sifat+ot: yuqori natija

ot+fe'l: muvaffaqiyatga erishmoq

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Yuqori natija		Muvaffaqiyatga erishmoq	
Yuqori	imkoniyat	Muvaffaqiyatga	qozonmoq
Keng	harakat	G‘alaba	yetishmoq
Kuchli	natija	Maqsadiga	his qilmoq
Yorqin	qobiliyat	Orzuga	erishmoq
Tug‘ma	qiziqish	Mashg‘ulotga	yetmoq
Tinimsiz	iste’dod	Mag‘lubiyatni	qatnashmoq

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Yuqori natijaga erishish uchun tinmay harakat qilish kerak.

- ...ga erishish uchun tinmay harakat qilish kerak.
- ... unumli foydalanish kerak.
- Nodirbek bolaligidanoq ... egasi ekani ma'lum edi.
- Olg‘a intilgan kishi ...
- Maqsadi sari intilgan kishi ...

5. O‘ylang, toping va ayting.

X	N	I	Y	A	T	N	V
O	R	E	M	Q	X	A	N
H	A	R	A	K	A	T	Z
I	U	Y	T	P	I	I	O
Sh	I	Sh	O	N	Ch	J	M
M	H	F	N	D	S	A	A
L	O	M	A	Q	S	A	D
K	I	S	T	E'	D	O	D

Mustaqil ish

Maqsadingiz sari olib boradigan yo‘l chizmasini chizing.

KIMGA NIMA QIZIQ?

1. O‘ylang va gapiring.

Namuna:

- Kim nimaga qiziqadi?
- Men bolaligimdan shaxmat o‘ynashga qiziqaman.
- Menga tabiat manzaralarini suratga olish yoqadi.
- Men musiqa chalishni yoqtiraman.

qobiliyat
iste’dod
ishtiyoy
qiziqmoq
shug‘ullanmoq



2. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Qiziqish nima?
2. Sevimli ish bilan shug‘ullanish deganda nimani tushunasiz?
3. Imkoniyat nima?
4. O‘zingizda qanday qobiliyat va imkoniyatlar bor deb o‘ylaysiz?
5. O‘z ishtiyoqingiz darajasini aniqlay olasizmi?

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

?	Harakat
?	Ishtiyoy
?	Qiziqish
Harakat, qiziqish va qobiliyatlarni amalda ko‘rsata olish	Qobiliyat

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Men rasm chizishga qiziqaman va bu ish bilan shug'ullanishni yoqtiraman.

1. Men ...ga qiziqaman va shu ish bilan shug'ullanishni yoqtiraman.
2. ...jarayonida qiyinchilikka duch kelsam ham bajaraman.
3. Inson o'zi yoqtirgan ishi bilan shug'ullanganda ...

5. O'qing.



Assalomu alaykum. Men O'zbekistondanman. Ismim Sabina. Badiiy gimnastikaga kichkinaligimdan qiziqaman. Yoshligimda televizor qarshisida gimnastikachi qizlarning harakatlariga taqlid qilar edim. U paytda mukammal mashqlar uchun anchagina jismoniy kuch va chidam, tayyorgarlik kerak ekanligini yaxshi tushunmas edim. Badiiy gimnastika bilan shug'ulanishni boshlaganimda dugonalarim bilan vaqt o'tkazish o'rniqa kuni bilan mashq bajarishga to'g'ri kelar edi. Qattiq charchardim. Bora-bora tanam chiniqdi. Astoydil qilingan mehnatlar natijasida ko'p yutuqlarga erishdim.

Moskva, Parij va Berlinda musobaqalarda qatnashdim va xalqaro "Pastorelli Cup" musobaqasi sovrinini qo'lga kiritdim.

Assalomu alaykum, men Turkiyada yashayman. Ismim Bora. Dam olish kunlari hamma tengdoshlarim qiziqlishi va qobiliyatiga qarab turli xil to'garaklarga boradilar. Men futbolni yaxshi ko'rganim uchun "Antaliya sport" futbol klubi to'garagiga qatnayman. Bugun ham har doimgidek omadim chopib, raqib darvozasiga to'rtta gol kiritdim. O'tgan mavsum 56 ta gol bilan tengdoshlarim orasida eng yaxshi to'purar bo'lgandim.

"Jippi akademik"dan



6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Badiiy gimnastikaga bolaligimdan qiziqaman.

1. Badiiy gimnastikaga ... qiziqaman. (kichkinaligimdan, yoshligimdan, bolaligimdan)
2. Astoydil qilingan mehnatlar natijasida ko'p ... erishdim. (yutuqlarga, zafarlarga, g'ala-balarga)
3. Men Turkiyada....(yashayman, istiqomat qilaman, turaman)
4. ... (dugonalarim, o'rtoqlarim, tengdoshlarim) bilan vaqt o'tkaza olmas edim.

Mustaqil ish

Qiziqlirlaringiz ro'yxatini tuzing.

QIZIQISHDAN MASHHURLIKKACHA ...

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Muvaffaqiyatli va omadsiz insonlar orasidagi farq nimada?
2. Insonning muvaffaqiyati nimaga bog'liq?
3. Muvaffaqiyatli insonlarning odatlarini sanab bering.
4. Inson hayotining muhim qismi nimadan iborat?
5. Ko'p mutolaa qilishning muvaffaqiyatga qanday bog'liqligi bor?



2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Muvaffaqiyatli odamlar har doim mutolaa qilishga vaqt ajratadilar.

1. Muvaffaqiyatli odamlar har doim mutolaa qilishga
2. Inson hayotining muhim qismi
3. Inson uchun bo'sh vaqt
4. Omadli insonlar pul uchun
5. Inson o'rtacha bir haftada ishlaydi.

DIQQAT QILING

-n/-in; -1/-il

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

O'yinchi yuqoriga otildi va to'pni tutdi.

1. O'yinchi yuqoriga ot(...)di va to'pni tutdi.
2. Darvozabon hujumchi yo'llagan shaybaga tashla(...)di.
3. Sportchilar bir safga tiz(...)dilar.
4. Abror mashg'ulotlar paytida biroz qiyna(...)di.
5. Tennis o'yinini ko'rish uchun kortga to'pla(...)dik.

4. O'qing.



Muxbir:

– Salom, Jansuluv. Tengdoshlaringizga o'zingiz haqingizda gapirib bersangiz.

Jansuluv:

– Assalomu alaykum, men Jansuluv Tatlimuratova, Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidanman.

Muxbir:

– Gimnastikaga qiziqishingiz qachondan boshlangan?

Jansuluv:

– Ikki yarim yoshimdan beri badiiy gimnastikaga qiziqaman va shug'ullanaman.

Muxbir:

– Qanday tanlovlarda ishtirok etdingiz?

Jansuluv:

– Yurtimizda o'tkazilgan bir qancha tanlovlarda, "Bolalar dunyosi", "Osiyo talantlari"da o'z chiqishlarim bilan qatnashdim.

Muxbir:

– Yutuqlaringiz haqida qisqacha aytib o'tsangiz.

Jansuluv:

– 2021-yil men uchun juda omadli yil bo'ldi. "Umid uchquni" ko'krak nishoni, "Xo'shemet–2021 yil rekordchisi" mukofoti bilan taqdirlandim. Jahon rekordini o'rnatdim.

Muxbir:

– Kelajakda shu sohani davom ettirish niyatingiz bormi?

Jansuluv:

– Badiiy gimnastika men uchun hobbi. Hozir sportning eshkak eshish turi bo'yicha ta'lif olmoqdaman va bu sohada ham yuksak marralarni zabit etishimga ishonaman.

Muxbir:

– Kelgusidagi rejalaringiz qanday?

Jansuluv:

– O'z ustimda yanada ko'proq ishlab, yangi rekordimni o'rnatmoqchiman.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Jansuluvning gimnastikaga qiziqishi necha yoshdan boshlandi?

A. 3,5 yosh B. 2,5 yosh D. 1,5 yosh

2. Sportning qaysi turida ta'lif oladi?

A. Gimnastika B. Yugurish D. Eshkak eshish

3. Sportchi qaysi tumanda tug'ildi?

A. Taxtako'pir B. Kegeyli D. Xo'jayli

4. Uning hobbisi nima?

A. Eshkak eshish B. Gimnastika D. Karate

5. Uning kelgusidagi rejalarini qanday?

A. Yugurish bo'yicha jahon championi bo'lish B. Badiiy gimnastika bo'yicha champion bo'lish D. Yangi rekordni o'rnatish



Mustaqil ish

Bir haftalik vaqtingiz taqsimotini yozib keling.

SPORT – MENING HAYOTIM

nasihat qilmoq
 hissa qo'shmoq
 sababchi bo'lmoq
 qulq tutmoq
 safar qilmoq

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Olimpiada o'yinlari nima maqsadda tashkil qilingan?
2. Dastlabki Olimpiadada qaysi sport turlari bo'yicha musobaqalar bo'lgan?
3. Qadimda Olimpiada g'oliblari qanday taqdirlangan?
4. Olimpiada o'yinlari bayrog'i qanday ma'noni bildiradi?



2. O'ylang, toping va yozing.

Namuna:

Boks musobaqasi ringda o'tkaziladi.

- | | |
|--------------|--------------------------------|
| 1. Boks. | a. Ring. |
| 2. Yugurish. | b. Maydon. |
| 3. Suzish. | c. Trek/aylanma maxsus yo'lak. |
| 4. Tennis. | d. Kort. |
| 5. Futbol. | e. Basseyn. |



DIQQAT QILING

-n/-in; -l/-il

3. O'ylang va toping. Yozing.

1. Sportchi doim o'ziga mos kiyimni **kiyadi**. // Ronaldo juda chiroyli **kiyinadi**.
2. Mashqlardan keyin sportchilar yuz-qo'llarini **yuvadilar**. // Jangdan keyin bokschi, albatta, ...
3. Murabbiy sportchilarni musobaqaga **tayyorladi**. // Shahram G'iyosov musobaqaga uzoq ...

4. O'qing.



Har bir yurtning o'ziga xos urf-odatlari, an'analari, taomlari bor. Ularni qiziqib kuza-taman. Safar davomida turli qiziqarli voqealar, ba'zan qiyinchilik va mashaqqatlar bo'ladi. Har xil insonlar uchraydi. Har biridan nimanidir o'r ganamiz, xulosa chiqaramiz.

Bo'sh vaqtlarimda tarixiy, sarguzasht, badiiy va ilmiy kitoblarni ko'p o'qiymen.

Aziz ukajonlarim, hayotda o'z orzulari-nigizga erishish uchun, avvalo, niyat qiling, oldingizga maqsad qo'ying. Ota-onangiz, ustozlaringizning maslahatlariga quloq tu-ting. Mehnat qiling, izlaning, hech qachon taslim bo'l mang!

Shahram G'iyosov

Sport – harakat, maqsad, ishonch, mashaq-qat, mehnatlarning rohati, tarbiya, sog'inch, mehr, Vatan. Men uchun sport – hamma narsa.

Mening sportga kirib kelishimga otam va amakim sababchi bo'lgan. Champion bo'lishimda esa ustozlarimning hissasi juda katta.

Sport tufayli jahon kezyapmiz, juda ko'p mamlakatlarga boryapmiz. Xususan, Amerikaning barcha shtatlarida, Kuba, Chili, Kolombiya, Argentina, Braziliya, Bolgariya, Belgiya, Fransiya, Italiya kabi davlatlarda bo'lganman.



5. O'ylang, toping va gapiring. ✓ ✗

1	Sport – mashaqqatli mehnat.	✓
2	Championning otasi va akasi uni sportga olib kelgan.	
3	Sport tufayli butun dunyoni kezib chiqdi.	
4	Safar har doim ajoyib voqealarga boy bo'ladi.	
5	Maqsadga yetishda kattalarning nasihatlariga amal qilish foydali.	
6	Hech qachon taslim bo'lmaslik – muvaffaqiyat garovi.	

Mustaqil ish

O'zingizga yoqqan sportchi haqida ma'lumot bering.

ADABIY O‘QISH

**polvon
olish
san’at
Mo‘g‘uliston
jahon sporti**

“YULDUZLAR MANGU YONADI”

asaridan parcha

Davra bir zum jimjit bo‘lib, tag‘in jonlandi. Davra polvonlar kurashini **gapirishib o‘tirdi**:

- Shu Maksim polvon juda sovuq olishar ekan, nima dedingiz?
- Sportchi-da, seksiyada tarbiya topgan. Ular kitobda nima yozilgan bo‘lsa shuni qiladi.
- Mo‘min muallim, mana, siz o‘qimishli odamsiz, uyingizda kitobingiz ko‘p deb eshitaman. Siz ayting, nega endi bir lanj klassik kurash butun jahon sporti bo‘ladi-yu, o‘zimizning olishni faqat to‘yda yo “Hosil bayrami”da ko‘ramiz? Yo olishimiz sport emasmi?
- Sport ham gapmi, san’at! Ko‘ryapsizmi, Tilovberdining o‘ynab olishuvini. Buni hech qaysi trener, seksiya ham o‘rgatolmaydi.
- Men yaqinda sambo olishi haqidagi kitobni ko‘rdim. Hamma chillarning rasmi bor. Xoh ishoning, xoh ishonmang, oyoqdan olishdan boshqa hammasi o‘zimizning olishda bor ekan-e.
- Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiyev bor-ku, yaqinda o‘scha bilan **o‘tirib qoldim**. Trenerlar meni jahon championi qilib yetishtirdim deb suyunadi, bilmaydilar-ki, men bolaligimdan to‘ylarda **olishib yurgan** tayyor polvon edim, deydi.
- Aytganday, shu bola ikki marta jahon championi bo‘ldi-ya.
- Ha-da, Mo‘g‘ulistonda qanday qilib jahon championi bo‘lganini **gapirib berdi**. Olish vaqtini tugashiga bir necha sekund qolganda yonboshga olib urib ochko oldim, deydi. Bunday hunar boshqa biror olishda yo‘q, faqat bizning olishimizda bor, deydi.
- Ota-bovamizning hunarini mahkam ushlasak, jahonning eng zo‘r polvoni biz bo‘lamiz-ku-ya, nima dedingiz?

Tog‘ay Murod

Savollar:

1. Kurash sport turi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘yin davomida qanday atamalardan foydalilaniladi?
3. Mo‘min muallimning “Sport ham gapmi, san’at!” jumlasini izohlang.
4. “To‘ylarda olishib yurgan” tayyor polvon kim edi?

Ota-bovo
Ota-bobo



Ona tabiat – buyuk ne'mat

ONAJONIM – TABIAT

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Tabiat nima?
2. Insonlarning tabiatga zarar yetkazuvchi harakatlarini ayting.
3. Ekologik muammolarga nimalarni kiritish mumkin?
4. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
5. Tabiatni asrash haqidagi oddiy qoidalarni ayting.

**tog'lar
muzliklar
suvar
o'rmonlar
hayvonlar
tabiatni
asrash**

2. O'qing.



O'rmonlar “Yer sayyorasining o'pkasi” deyiladi. U quruqlikning uchdan bir qismini egallaydi. Zaminimizdagi o'simlik va hayvonlarning deyarli yarmini boqadi. Eng ko'p o'rmonlar Finlandiyada bo'lsa, eng kami Buyuk Britaniyada joylashgan. Aytgancha, o'rmonlarsiz yerda hayot bo'lmaydi.

Cho'llar yomg'ir kam yog'adigan juda quruq yer maydonidir. U sayyoramizning beshdan bir qismini egallaydi. Cho'l deganda hammaning ko'z oldiga issiq qumlik keladi. Lekin Antarktidada qor bilan qoplangan cho'llar ham bor. U yerdarda ham kam bo'lsa-da, o'simliklar va hayvonlar uchraydi.



Yer sharining juda katta qismi, ya'ni 71 foizi suvlik bilan qoplangan. Bu suvlar to'rtta ulkan okean va ko'plab dengiz-u daryolar hissasiga to'g'ri keladi. Bilsizmi, okeanlardagi suv vodoprovoddan oqayotgan suvga o'xshamaydi. U ichida millionlab o'simlik va jonzotlari bo'lgan sho'r suvdir.

3. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Suvlar	A	Antarktidada qor bilan qoplangan turlari bor
		B	Sayyoramizning juda katta qismini tashkil qiladi
2	O'rmonlar	D	Eng ko'p qismi Finlandiyaga to'g'ri keladi
		E	Ona Yerimizning 20 foizini egallaydi
3	Cho'llar	F	Uning ichida millionlab o'simlik va jonzotlar yashaydi
		G	Yerdagi o'simlik va hayvonlarning deyarli yarmini boqadi

DIQQAT QILING

“K”, – m.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

“Dori-darmonlarni tabiatdan o‘rganing, inson izlayotgan narsani u allaqachon aytgan”, – degan edi Abu Ali ibn Sino.

1	Dori-darmonlarni tabiatdan o‘rganing, inson izlayotgan narsani u allaqachon aytgan.	Abu Ali ibn Sino
2	Tabiat hamma narsaga g‘amxo‘rlik qiladi.	Leonardo da Vinci
3	Inson – tabiatning bir parchasi.	Chingiz Aytmov
4	Tabiat har doim haqdir.	Gyote

5. O‘ylang, toping va gapiring.

Namuna:

Yer – xazina, suv – gavhar.



1. Yer – xazina,
suv – gavhar.



2. Tosh siz tog‘ bo‘lmas,
....



3. To‘qsonga yetsang, tok ek,



4. Qarovsiz bog‘ bo‘lmas,

....

Mustaqil ish

Gerbariy tayyorlang.

KISLOROD

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. O'simliklarning insonlar uchun qanday foydali jihatlari bor?
2. Ularning qanday turlarini bilasiz?
3. O'simliklar qayerlarda o'sadi?
4. Qanday dorivor o'simliklarni bilasiz?

ehtiyoj
dorivor
zaharli
bahaybat
nabotot
maysa
mavjudot

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Isiriq grippning oldini oladi.

1. Asab tizimini tinchlanadiradi.
2. Tomoq og'rig'i va shamollahsha foydali.
3. Insonni tetiklashtiradi, immunitetni ko'taradi.
4. Kuygan joylar, teri kasalliklarida ishlatiladi.
5. Grippning oldini oladi.
6. Saraton hujayralarini yo'q qilishga yordam beradi.



1



2



3



4



5



6

3. O'qing va javob bering.

Qizil kitob qizilmi?

O'simliklar olamini muhofaza qilish har doim dolzarb bo'lgan. Chunki biz insonlar bilan o'simliklar, hayvonlar chambarchas bog'liq. Yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan noyob o'simlik va hayvonlar turlarini aniqlash va himoya qilish uchun Qizil kitob yaratilgan. Uning hayvonot va nabotot (o'simlik dunyosi) uchun ahamiyati beqiyos.

Bu hujjat kitob nomida nega "qizil" so'zi ishlatalgani qiziqtirishi mumkin. Hujjatga angliyalik zoolog Piter Skott taklifi bilan shunday nom berilgan. Qizil rang – xavf belgisi. Yo'qolib ketish xavfida turgan o'simlik va hayvonlar uchun shu nom munosib ko'rilgan va u barcha tillarda shunday yuritiladi.

O'zbekiston Qizil kitobi ikki jilddan iborat: birinchisi o'simliklar, ikkinchisi hayvonlar haqida.

Har bir narsaning qadriga yetish, jonli va jonsiz tabiatni asrash lozim.

1. Hayotimizda o'simliklarning qanday ahamiyati bor?
2. Qizil kitob nima uchun qizil rangda deb o'ylaysiz?
3. Kitob nima uchun tashkil qilingan?
4. Qaysi noyob o'simliklarni bilasiz?
5. O'simliklarni yana qanday himoya qilish mumkin?

4. O'ylang va toping. Yozing.

y	a	n	t	o	q	b	t	p	n	v
d	t	j	n	i	l	u	f	a	r	s
d	e	a	k	h	l	g'	r	k	q	d
a	r	p	a	b	o	d	i	y	o	n
s	a	z	sh	a	l	o	e	u	q	f
e	k	f	n	g	a	y	d	o	i	h
r	e	d	i	s	k	a	f	y	o'	b
k	q	r	ch	e	y	m	b	r	t	n



nilufar
lola
arpabodiyon
kashnich
rediska
terak
bug'doy
yantoq
qoqio't
aloe

Mustaqil ish


Dorivor o'simliklardan shifobaxsh choy retseptini yozing va tayyorlang.

AJOYIB SHIFOKOR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

DIQQAT QILING

Sinonim:
bol = asal



1. Asal nimadan olinadi?
2. Asalarini yana qanday nom bilan atashadi?
3. Asalaridan qanday mahsulotlar olinadi?
4. Yig'ilgan nektar va gul changi asalga aylanishi uchun asalari necha kilometr masofani bosib o'tishi kerak?
5. Ishchi asalari necha kun yashaydi?

mukammal
mum
gul changi
xartum
asalari suti
hayratga solmoq

2. O'qing.

Asalning shifobaxsh ekanini odamlar qadimdanoq bilishgan. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida: "Asal a'zolarimizdagи suyuqlik o'tkazuvchi tomirlarni kengaytirish va tozalash xususiyatiga ega. Asal ko'z xiralashishiga ham dori... Tomoqog'riq (angina)ni ham davolaydi..." deb yozgan va asaldan o'nlab dorilar tayyorlash mumkinligini aytgan edi.

Asalari suti ham qimmatbaho va shifobaxsh dori hisoblanib, u yurak faoliyatini yax-shilaydi, ishtahani ochadi va organizmning turli kasalliklarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati oshiradi.

Asalari uyasi tuzilishi jihatidan juda mukammal va g'aroyib. Vertikal shakldagi olti burchakli xonachalarning bir tekis qatorlashuvi barchani hayratga soladi. Xonalar turli maqsadlar uchun xizmat qiladi. Birida asalarilar asal yig'sa, boshqasida lichinkalar rivojlanadi. Uyaning asosiy materiali mum bo'lib, u asalarining belidan ajralib chiqadi.

Namuna:

Asalari xartumi yordamida gul changini asalga aylantiradi.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Asalari ... yordamida gul changini asalga aylantiradi.
- 2.... yurak faoliyatini yaxshilaydi.
3. Asalari uyasidagi ... turli maqsadlar uchun xizmat qiladi.
4. ... asalari uyasining asosi.
5. Asalari uyasi ... tuzilishga ega.

asalari suti
mum
xartum
mukammal
xonalar

DIQQAT QILING

M: “K”.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

“Asal ko‘p kasalliklarga davo”, – degan edi buyuk hakim.

1. Ibn Sino shunday deydi: Asal qonning tomirlarda yurishini yaxshilaydi.
2. Asalni ham me’yorida iste’mol qilish kerak deb ta’kidlaydi shifokorlar.
3. Tabiblar: Asal uzoq umr ko‘rish malhami deb aytadilar.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Asalning ham	boli bor.
Ari zahrini chekmagan	bo‘lmaysan kasal.
Bol sotgan	ozi shirin.
Yesang asal,	bol qadrini bilmas.
Ari chaqdi deb arazlama,	barmog‘in yalar.

Mustaqil ish

Asalari haqida 3 ta fakt yozing.

HAYVONOT OLAMI

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qaysi davlatlarning noyob hayvonlarini bilasiz?
2. Buxoro bug‘ulari nega qo‘riqxonalarda boqiladi?
3. Ularni saqlab qolish uchun qanday choralar ko‘rilgan?
4. “Xongul” so‘zining ma’nosi qanday?
5. Nima uchun “xongul” deb nom berilgan?



2. O‘ylang va toping. Yozing.

Sadoqatli, sekin, baland, zaharli, xavfli, go‘shtxo‘r.

Namuna:

Jirafa eng baland bo‘yli hayvondir.



DIQQAT QILING

Men	-m
Sen ... +(a)r edi	-ng
U	-

Biz	-k
Siz ... + (a)r edi	-ngiz
Ular	-lar

kamaymoq
ovlanmoq
saqlab qolmoq
bug‘u
qo‘riqxona
xo‘jayin

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

*It vafodor bo‘lgani uchun ko‘p xonadonlarda boqiladi.
Men ham yoshligimda kuchuk boqar edim.*

1. It vafodor bo‘lgani uchun ko‘p xonadonlarda boqiladi.
Men ham yoshligimda kuchuk
2. Sirkda bir qancha hayvonlar tomosha ko‘rsatdi.
Ayniqsa, maymun qiziqarli tomosha
3. Qo‘riqxonada bir qancha noyob hayvonlar yashaydi.
Ular oldin ochiq tabiatda

4. O‘qing.

Hatiko laqabli it egasiga sadoqati bilan mashhur. U har kuni o‘z xo‘jayinini ishga kuzatib qo‘yar, keyin bir xil vaqt, bir xil joyda xo‘ja-yinining ishdan qaytishini kutib o‘tirar edi.

Hatiko yarim yoshga kirganida egasi vafot etdi. Shundan so‘ng ham Hatiko uni kutishda davom etadi. U xuddi avvalgidek “Sibuya” stansiyasiga kelib, kechgacha xo‘jayinini kutar, qaytgach, o‘zi yashagan uy qulflangani uchun kechalari uy tomiga chiqib uxlar edi.

1932-yili Hatiko butun Yaponiya bo‘ylab mashhurlikka erishadi. U xo‘jayinini 7 yil har kuni bir joy va bir xil paytda kutgani haqida gazetalarda yozishadi. Shundan so‘ng haqiqiy do‘s’t – Hatikoni ko‘rgani odamlar hamma yerdan “Sibuya” stansiyasiga kela boshlaydi.

Hatiko vafot etgunicha – 9 yil xo‘jayinining qaytishini kutib yashaydi. Uning o‘lgan kuni butun Yaponiyada motam kuni deb e’lon qilinadi. Yapon xalqi unga haykal o‘rnatadi.

1987-yili Hatikoning 50 yilligi sharafiga ishlangan film premyerasi bo‘lib o‘tadi. Film itning insonga sodiq do‘stligi haqida so‘zlaydi. U millionlab insonlarning qalbini zabt etadi. Hozir Hatikoni deyarli butun dunyo taniydi.



odam.uz saytidan

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Ot (1 ta)	Hatiko
Sifat (2 ta)	
Fe’l (3 ta)	
Gap (4 so‘zdan iborat)	
Sinonim (1 ta)	

Mustaqil ish

Uy hayvonlari orqali daromad topish haqida o‘z loyihangizni ishlab keling.

QUSHLAR DUNYOSI

1. O'qing va savollarga javob bering.

Qushlar qadimdan insonlarning do'sti sifatida qadrlanganini multfilmlar, hikoyalar, ertak va qissalardan bilasiz. Humo qushi tinchlik, burgut mag'rurlik, ukki donishmandlik, oqqush erkinlik, go'zallik ramzi sifatida tanilgan.

Qushlarning xatti-harakatlariga qarab ob-havo to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Masalan, turnalarning past-baland uchishi yilning qanday kelishidan; chumchuqlarning gala-gala bo'lib uchishi ob-havo ochiq va quruq bo'lishidan; zag'chalarning gala-gala bo'lib yoki qaldirg'ochlarning pastlab uchishi yomg'ir yog'ishidan darak.

Bundan tashqari, qushlarning qishloq xo'jaligida ham ahamiyati katta. Ular ekinzorlarda gi, daraxt po'stloqlaridagi hasharotlar bilan oziqlanib, insonlarga foyda keltiradi.

1. Qanday qushlarni bilasiz?
2. Sizga ularning qaysi xususiyatlari yoqadi?
3. Qushlar tabiat va insonlarga qanday foyda keltiradi?
4. Bir kunda yerga tashlangan saqich orqali 10000 qush halok bo'lar ekan. Shuning oldini olish uchun qanday tavsiya bera olasiz?

ramz
mag'rurlik
erkinlik
chumchuq
zag'cha
daraxt po'stlog'i

3. Tinglang va toping. Yozing.

Namuna:

Kolibri – eng kichik va orqaga ucha oladigan yagona qush (B va F).

1. Kolibri
2. Goatsin
3. Toporik

- A. Qanotida tirnog'i bor.
- B. Eng kichik qush.
- C. Orqaga ucha oladigan yagona qush.
- D. Gayana davlati gerbida uchraydi.
- E. Pingvinga o'xshaydi.
- F. 15 mln yil oldin yashagan.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Ayrim qushlar doim issiq o‘lkalarga uchib ketadi.


1. Ayrim qushlar doim kuzda, sovuq tushganda issiq o‘lkalarga (uchib ketadi / parvoz qiladi).
2. Qadimda kabutarlar orqali xabar (yuborilgan / jo‘natilgan).
3. Bulbul taxminan 10 yil (yashaydi / umr ko‘radi).
4. Rivoyatlarda keltirilishicha, qaldirg‘ochlar fayzli xonadonlarga (uya quradi / in soladi).
5. Flamingo bir oyoqda turib (uxlaydi/ mizg‘iydi).

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

BOSHQOTIRMA

Bo‘yiga:

1. Dunyodagi yagona qanotsiz qush.
2. Yer yuzida qushlarga eng yaqin qarindosh bo‘la oladigan jonivor turi.
4. Qushlarning qadim qarindoshlari.
5. Yer yuzidagi eng kichik va ochofat qush.
7. Qushning bolasи.



Eniga:

3. Ucha olmaydigan, lekin juda yaxshi suza oladigan va sovuq iqlimda yashaydigan qush.
5. Xat tashuvchi qush.
6. Yer yuzida eng ko‘p uch-raydigan uy qushi turi.
8. Dunyodagi eng katta uch-maydigan qush.

Mustaqil ish

Qaysi davlat ramzlarida qushlar tasviri uchrashi va ular nimaning timsoli ekani haqida ma’lumot to‘plang.

TABIBIMIZ – TABIAT

1. Tinglang.



dorivor
shifobaxsh
giyoh
ildiz
qo'llamoq
sinab ko'rmoq
davo bo'lmoq

2. O'ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	Abu Ali ibn Sinoning adabiy merosi jahon sivilizatsiyasida muhim ahamiyatga ega.	✓
2	Olimning jahonga mashhur asarlari hali-hamon ilmiy qiymatini yo'qotmagan.	
3	U qomusiy bilimlar sohibidir.	
4	Otasi Abdulloh Husaynni 7 yoshida o'qishga Buxoroga olib kelgan.	
5	14 yoshida metafizika, astronomiya, geometriya, tibbiyot fanlarini chuqur o'rgangan.	
6	16 yashar Husayn tibbiyot ilmini to'liq egallaydi.	

3. O'qing va savollarga javob bering.

Dorivor o'simliklarni izlash va amalda qo'llash bundan ming yillar ilgari boshlangan. Ayrim hollarda dorivor o'simliklarni aniqlash insonga qimmatga tushgan, chunki dorivor o'simliklar ta'sirini u dastlab o'zida sinab ko'rgan. Qadim zamonalarda kishilarning bilim darajasi yetarli bo'limgani tufayli o'simliklar ularga sehrli va fusunkor bo'lib ko'ringan. Odamchalarga o'xshash jenshen va mehrigiyoh ildizi haqida ko'pdan ko'p afsonalar to'qilgan. Jenshen ildizining kuchsizlanib, holdan toygan kishilarga quvvat bag'ishlashi mo'jiza deb qaralgan. Vaqtlar o'tishi bilan ilm va fan muayyan o'simlikning qanday qilib davo bo'lishini tushuntirib berdi, afsonaviy gaplar esa o'z-o'zidan yo'qolib ketdi. Ko'pgina shifobaxsh o'simliklar tibbiyotda qo'llanadi. Kishilar o'simliklarning kimyoviy tarkibini mukammal o'rganishga erishdilar. Bu esa o'z navbatida yangi-yangi kashfiyotlarga olib keldi.

*"Bolalar ensiklopediyasi"*dan

1. Dorivor o'simliklarning insonlarga foydasi haqida gapiring.
2. Nima uchun shifobaxsh giyohlar haqida afsonalar to'qildi?
3. Jenschening qanday foydali xususiyati bor?

4. Uyingizda qanday shifobaxsh giyohlardan foydalanasiz?
5. Yana qanday giyohlar haqida bilasiz?

DIQQAT QILING

Men	-m	Biz	-k
Sen ... + gan edi	-ng	Siz ... + gan edi	-ngiz
U	-	Ular	-lar

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Jenshen va mehrigiyoh ildizi haqida ko'plab afsonalar to'qilgan edi.

1. Jenshen va mehrigiyoh ildizi haqida ko'plab afsonalar (to'qilmoq).
2. Bundan ming yillar ilgari dorivor o'simliklarni sinab ko'rish, qo'llash (boshlanmoq).
3. Tabiblar dorivor o'simliklarning ta'sirini (sinab ko'rmoq).
4. Ibn Sino aytadi: "Men jenshen va mehrigiyoh o'simliklarining ildizi bilan ko'p kasalliklarni (davolamoq)".
5. Shifobaxsh o'simliklarni mukammal o'rganish yangi kashfiyotlarga (olib kelmoq).

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna:

Agar kechasi uyqungiz kelmasa, bir qoshiq asal yeng.

1	Agar kechasi uyqungiz kelmasa, bir qoshiq ... yeng.	A 
2	Uxlash oldidan ... yeyish zarar.	B 
3	Buyrak og'rig'iga ... foydasi ko'p.	D 
4	Meva sharbatlari ichida eng foydalisi – ...	E 
5	Qoningiz kam bo'lsa, har kuni ... tanovul qiling.	F 
6	... iste'mol qilinsa, o't qopida toshlar paydo bo'lishining oldini oladi.	G 

Mustaqil ish

Dorivor o'simliklarni quritish texnikasini o'rganing.

SOG'LOM YASHA

1. O'ylang va toping. Gapiring.




1	Tomoq og'riganda	A	okulist
2	Ko'z og'riganda	B	otolaringolog
3	Tish og'riganda	D	travmatolog
4	Oyoq lat yeganda	E	nevropatolog
5	Yurak bezovta qilganda	F	kardiolog
6	Bosh og'riganda	G	stomatolog

to'g'ri ovqatlanish
sog'lam turmush
shifokor ko'rige
tabiiy mahsulot

2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. To'g'ri ovqatlanishni qanday tushunasiz?
2. Nima uchun to'yib ovqatlanib bo'lmaydi?
3. Kalsiya boy mahsulotlarga nimalar kiradi?
4. D vitaminini qaysi mahsulotlarda bor?
5. O'zingizga yoqqan mahsulotlar haqida aytib bering.

3. O'qing.



Yosh fermer Berk Bayer shunday deydi: "Zamonaviy oziq-ovqatlarning qanday tayyorlanishini bilgach, tabiiy mahsulotlarni sotib olish shifoxona uchun sarflanadigan xarajatlarni ancha kamaytirishiga amin bo'ldim". Berk 8 yoshidan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Ilmiy anjumanlarning birida u shunday degandi: "Bolalar ni turli reklamalarga osonlik bilan ishontirishayotganiga hayronman. Men ham bir paytlar zamonaviy oziq-ovqatlar reklamada ko'rsatilganidek tabiiy tayyorlanadi deb o'ylardim. Lekin reklamalarning hammasi ham haqiqat emasligini bilib qoldim. Izlanishlarim tufayli oziq-ovqat sanoatining qorong'i tomonlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'la boshladim. Geni o'zgartirilgan mahsulotlar, peshtaxtalarda uzoq muddat turishi uchun mahsulotga qo'shiladigan sun'iy moddalar zararini hamma biladi. Demak, sog'lom yurishimiz uchun tabiiy yetishtirilgan oziq-ovqatlarni tanlashimiz shart".

"Jajji akademik"dan

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Berk Bayer tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Mahsulotlarga sun'iy moddalar qo'shilmaydi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Tabiiy mahsulotlardan foydalanish shifoxona uchun xarajatlarni kamaytiradi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

DIQQAT QILING

Ko'chirma gap – O'zlashtirma gap

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Berk: "Sakkiz yoshimdan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqaman", – dedi.

Berk sakkiz yoshidan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqishini aytди.

1. Berk: "Sakkiz yoshimdan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqaman", – dedi.
2. U shunday deydi: "Bolalarni turli reklamalarga osonlik bilan ishontirishayotganiga hayronman".
3. Yosh fermer: "Zamonaviy oziq-ovqatlar tabiiy tayyorlanadi deb o'ylardim", – deb aytди.

Mustaqil ish

O'zingiz uchun sog'lom turmushga mos kun tartibi va ovqatlanish qoidalarini tuzing.

ADABIY O'QISH

Hayvonlar haqida eng yaxshi kitob

Tabiatni kim yaxshi biladi? Rassommi? Yo‘q, rassom ko‘z oldida turgan tabiatni qog‘ozga ko‘chiradi. Yozuvchimi? Yo‘q, yozuvchi tabiatga yuzaki qaraydi. Tabiatni o‘z maqsadi yo‘lida tasvirlaydi. Olimlarmi? Yo‘q, olimlar tabiatni biladi, ammo his qila olmaydi. Ular tabiatni qafasga qamab o‘rganadi.

Tabiat ana shu uch nuqtayi nazaridan kelib chiqib tasvirlanadi. Seton-Tompson ana shu uch qarash – rassomlik, yozuvchilik, olimlikni uyg‘unlashtirib buyuk Seton-Tompson bo‘ldi.

Ernest Seton-Tompson adabiyotda birinchi bo‘lib jonivorlarni badiiy asarga bosh qahramon qilib oldi. “Domino. Bir qo‘ng‘ir tulki hayoti”, “Yovvoyi yo‘rg‘a”, “Jonni laqabli ayiqcha”, “Uchqur toychoq Jek. Bir quyon sarguzashti”, “Vinnipeg bo‘risi” kabi qator asarlar yaratib, ularda hayvonlarni qahramon darajasiga ko‘tardi. O‘z boshidan kechirgan hayotni, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tabiatni, o‘z qo‘li bilan ushlagan jonivorlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha badiiy asar qildi.

“Jonivorlar haqida hikoyalar” kitobi Seton-Tompson nomini olamga yoydi. Kitob qo‘lma-qo‘l o‘qildi, tik turib o‘qildi, ovoz chiqarib o‘qildi, kecha-yu kunduz o‘qildi. Kitobni butun dunyo o‘qidi.

Seton-Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton-Tompsonaga yaratilmagan edi, undan keyin ham yaratilmadi. Tabiat, xususan, jonivorlar haqida minglab asarlar yozildi, ammo hech kim Seton-Tompsondan oshib o‘tolmadi.

“Jajji akademik”dan

1. Siz ham tabiat, hayvonlar haqida badiiy asar o‘qiganmisiz?
2. Agar yozuvchi bo‘lsangiz, qaysi hayvon haqida yozar edingiz?
3. Ernest Seton-Tompsonning qanday asarlarini bilasiz?
4. Qaysi asari yozuvchining nomini dunyoga tanitdi?

tasvirlamoq
jonivor
nuqtayi nazar
badiiy asar
olamga yoymoq

Mohir qo'llar san'ati

O'N QO'LING – O'N HUNAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.



1. Hunar va hunarmandchilik haqida nima bilasiz?
2. Qanday hunarmandchilik sohalari bor?
3. Qaysi xalq hunarmandlari gilamlari bilan mashhur?
4. O'zbekistonda xalq hunarmandchiligining qaysi sohalari rivojlanmoqda?
5. Qanday zamонавиҳ hunarlarni bilasiz?

**mahorat
ijodkorlik
imkoniyat
hunarmand
shug'ullanmoq
davom ettirmoq**

2. O'qing.

Moskvada avtoatelye ochgan hamyurtimiz Miraziz Mirsaidov firma hammuassisi hisoblana-di. U ishini xuddi Stiv Jobs kabi garajda boshlagan. U faoliyati haqida bunday deydi: "Bolaligimdan avtomobilarning har xil turlariga qiziqaman. Bu soha, ya'ni teri, charm bilan ishlash ota-bobom-dan meros desam ham bo'laveradi. Bobom Asaka shahrida poyabzal ustasi bo'lgan, bu kasb undan otamga o'tgan. Otamdan men o'rganganman. Men uchinchi-to'rtinchi avlod kosibman.



Inson o‘zining qiziqishini topa olishi lozim. Men uchun shu sohada ishlash – hobbi. Dastlab faqat sarmoya kirlitsam bo‘ldi, natijaga erishish mumkin degan xayolda bo‘lganman. Ammo vaqt o‘tib tushundimki, o‘z sohangizning ustasi bo‘lsangizgina, katta marralarni zabt etsa bo‘larkan. Hunar qayerga yoki qaysi davlatga borishingizdan qat’i nazar, siz bilan birga. Shuning uchun har doim ilm va hunar o‘rganishga intiling”.

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Miraziz Mirsaidov O‘zbekistonda ham avtoatelye ochgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri
2. Unga bu avtoatelye otasidan meros qolgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Uning ota-bobosi kosib bo‘lgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri
4. Ilm va hunar har doim o‘z sohibi bilan birga.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri

DIQQAT QILING

-gan, -kan, -qan

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Moskvada avtoatelye ochgan Miraziz Mirsaidov o‘z faoliyatini garajda boshlagan.

1. Moskvada avtoatelye och.... Miraziz Mirsaidov o‘z faoliyatini garajda boshlagan.
2. U tik... charm qoplamlar mustahkamligi bilan haydovchilarga ma’qul kelmoqda.
3. O‘z ishining ustasi bo‘l... hunarmandlar elda doimo aziz.
4. Yoshlikda olin... bilim toshga o‘yilgan naqshdir.
5. Bolaligidan avtomobilarga qiziq... Miraziz o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lib yetishdi.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Naqqosh turli buyumlarga naqsh soladi.

1	Naqqosh	A	Teriga ishlov beradi.
2	Zargar	B	Matolardan kiyim tikadi.
3	Tikuvchi	D	Turli buyumlarga naqsh soladi.
4	Ko‘nchi	E	Qimmatbaho toshlardan taqinchoqlar yasaydi.

Mustaqil ish

O‘zingiz qiziqadigan hunar haqida ma’lumot yozing.

BINOKOR – BUNYODKOR

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

me'moriy obida
inshoot
mustahkam
bino
g'aroyib

1	Me'morchilik insonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan.	
2	Boshpana nobop ob-havodan va hayvonlardan himoya vositasidir.	
3	Yevropada gumbazli minoralarni ko'p uchratish mumkin.	
4	Ayrim inshootlar vaqtlar o'tishi bilan eskiradi.	
5	Me'morchilik yaqin yillarda paydo bo'lgan.	

3. O'qing va savollarga javob bering.

O'tov, tarixiy manbalarda keltirilishicha, Markaziy va O'rta Osiyo, Janubiy Sibirda yashovchi xalqlarda mavjud bo'lgan. Qishda issiq, yozda salqin bo'ladigan bu uylar orasida "qora uy", "oq o'tov", "bo'z o'tov", "bo'z o'rda" kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu uylar boshqa joyga ko'chirish va qurish uchun juda ham qulay hisoblanadi.

O'tov tiklashda ishlatiladigan ashyolar tay-yorlaydigan ustalarni "uychi" deyishadi. Uni tiklashda turli o'lchovdagi yog'ochlar, konussimon panjara, kigiz, charm, ip kabilar ishlatiladi.

Hozir o'tovlardan asosan dala hovlilar, dam olish maskanlarida keng foydalanoqda. Tashrif buyurgan mehmonlar esa ularni qiziqish va hayrat bilan tomosha qiladilar. Sababi bu uylarning qurilish ashyolari va bezaklari uchun tabiiy mahsulotlar ishlatiladi.



Qoraqalpoq elida ota kasbini davom ettirayotgan Azamat Turekeyev uychilarning 3-avlodini. Hunarmand hozir o‘z hunarini nafaqat O‘zbekistonda, balki Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy va Rossiya davlatlarida ham namoyish qilmoqda.

1. Qaysi xalqlar o‘tovlardan foydalanadi?
2. O‘tovning afzalliklari nimada?
3. Qora uy qanday qismlardan tashkil topadi?
4. Sayyohlar nima uchun o‘tovlarga qiziqish bilan qaraydilar?
5. Hozir o‘tovlardan nima maqsadlarda foydalaniladi?

DIQQAT QILING

-yotgan, -ayotgan

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

O‘tov qadimdan foydalanib kelinayotgan boshpana hisoblanadi.

1. O‘tov qadimdan foydalanib kel... boshpana hisoblanadi.
2. Ota kasbini davom ettir... hunarmandlar o‘z mahoratlarini butun dunyoga namoyish qilmoqdalar.
3. O‘tovning ichki qismini beza... ayollar bezaklarning joylashuviga e’tibor beradilar.
4. O‘tovga kira... kishi bezaklarga qarab uy egalari haqida ma’lumot olishi mumkin bo’lgan.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Eyfel minorasi Fransiyada joylashgan.

Inshootlar	Mamlakat
Eyfel minorasi	
	O‘zbekiston
Ehromlar	
	Angliya
“Burj Xalifa”	
	Italiya



Mustaqil ish

Orzungizdagи uy rasmini chizing.

LIBOS – INSON KO'RKI

1. O'ylang va toping. Gapiring.



A



B




D



E



F



G

Yapon	Turk	Hind	Shotland	Turkman	O'zbek
			f		

2. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Kiyim himoya vazifasini bajargan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Liboslar insonning yoshi haqida ma'lumot bermaydi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Arablar hayvonlar terisidan tikilgan kiyimlardan foydalanadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

 sidirg'a
 chopon
 mato
 xushbichim
 mo'yinali
 mavsumiy

3. “Insert” usulida o‘qing.

	Matn mazmuni	+ / - / V / ?
1	Libos – inson ziynati. Davrlar, zamonlar yangilangani sari liboslar ham o‘zgarib boradi. Bir-biridan rang-barang, uzun-kalta, keng-tor, dabdabali-ko‘rimsiz, qimmat-arzon liboslar.	
2	Inson kiyim tanlashda bu liboslarning yarashgani, o‘ziga munosibligi, yoshiba, qomatiga mosligi, kiyadigan davrasiga to‘g‘ri kelish-kelmasligiga ahamiyat berishi kerak. Madaniyatning talabi – shu.	
3	Kiyinishning inson ruhiyati, fe'l-atvori, kayfiyati, tarbiyasi, did-farosati bilan bog‘liqligi bor. Shuning uchun kiyim tanlashda e’tiborli bo‘lish talab etiladi.	
4	Dastlab teri va jundan mato to‘qish va tikishni kashf qilgan odamzod paxta va ipak tolalarining paydo bo‘lishi bilan liboslarga qulaylik va go‘zallik baxsh etdi.	

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Zamonlar yangilangani sari liboslar ham o‘zgarib borgan.

1. Zamonlar, o‘zgarib, liboslar ham, yangilangani sari, borgan.
2. Inson, kiyinishning, ta’siri, ruhiyatiga, bor.
3. Kiyim tanlashda, ahamiyat berish zarur, mavsumga mosligiga, o‘zimizga yarashganiga.
4. Sanoatning rivojlanishi, baxsh etdi, liboslarga, qulaylik va go‘zallik.

5. O‘ylang va toping. Yozing.



Foydalanish uchun so‘zlar: katta, sidirg‘a, oq, gulli, uzun, ko‘k, jinsi, qizil, keng.

Hajm-o‘lchov sifati	Rang-tus sifati	Xususiyat sifati	Ot
kalta	qora	charm	kurtka
			ko‘ylak
			chopon
			shim

Mustaqil ish

O‘zingizga yoqqan zamonaviy brend kiyimlari haqida ma’lumot to‘plang.

MILLIY HUNARMANDCHILIK

1. O‘ylang va toping. Gapiring.



2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring. Ha/yo‘q

1	“Atlas” so‘zi arabchadan olingan.	Ha
2	Atlasning vatani Qo‘qon va Andijondir.	
3	Matoning bo‘yoqlari tabiiy giyohlardan olinadi.	
4	Atlasdan faqat ayollar va bolalar kiyimlari tikiladi.	
5	Hozir dizaynerlar atlasdan uy va interyerlarni bezashda foydalanmoqda.	

kulol
zargar
gilamdo‘z
charx
ishlov bermoq
pishitilgan

DIQQAT QILING

-ydigan, -adigan

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Kulol – loy bilan ishlaydigan usta.

1. Kulol – loy bilan ishla... usta.
2. Zargar – bezak buyumlarini ishlay... usta.
3. Gilamdo‘z – turli iplardan gilam to‘qi... usta.
4. Duradgor – yog‘ochdan har xil buyumlar yasa... usta.

4. O'qing va savollarga javob bering.

Kulolchilik oddiy loydan mo'jizakor buyumlar yasaladigan san'at turidir. Bu hunar bilan odamlar juda qadim zamonlardan beri shug'ullanib kelgan.

Maxsus loydan piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, tog'ora, xum, tandir kabi buyumlar, o'yin-choqlar yasaladi. Buyumlarni tayyorlash uchun maxsus tuproq suv bilan aralashtirilib, loy qilinadi. Pishitilgan loydan charx yordamida buyum yasaladi va olovda pishiriladi. Ularga rang berilib, naqshlar bilan bezaladi.

Hozir o'zbek kulollari butun dunyo bo'ylab turli festivallarda, tanlovlarda qatnashib, o'z san'atlari bilan hammani hayron qoldirmoqda. Sayyoohlар milliy hunarmandchilik buyumlari, ayniqsa, sopol buyumlarni katta qiziqish bilan xarid qiladilar. Tabiiy mahsulotlardan yasalgan buyumlar inson salomatligi uchun foydali ekanini zamonaviy tibbiyat ham isbotlamoqda.

1. Kulolchilik qanday hunar?
2. Kulollar nimalarni yasaydilar?
3. Kulolchilik buyumlari yasalish jarayonini aytib bering.
4. Sizningcha, sayyoohlар nima uchun kulolchilik buyumlariga qiziqadilar?
5. Tabiiy mahsulotdan yasalgan buyumlarning foydali tomonlari haqida gapiring.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

*Hunar bo'lsa qo'lingda,
Non topilar yo'lingda.*

1. Hunar bo'lsa qo'lingda,
... topilar yo'lingda.



2. Tikkan ... emas,
Bichgan – chevar.



3. Ustozsiz shogird,
Jonsiz ...



4. Uchqundan qo'rqqan
... bo'lmas.



5. Qo'yni qassob so'yisin,
Oshni pishirsin.



Mustaqil ish

Qo'l hunariga asoslangan birorta buyumning yasalish texnologiyasini o'rganining va amalda sinab ko'ring.

ZAMONAVIY HUNARLAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.



1. Karving nima?
2. Karving dastlab qayerda paydo bo'lgan?
3. Bu san'at turining rivojlanishiga nima sabab bo'lgan?
4. Meva va sabzavotlarga turli shakllar berilishiga sizning fikringiz qanday?


2. O'qing.



Ko'pchilik avtomobil sohiblari mashinalari boshqalaridan ajralib turishini xohlaydi. Buning uchun avtovyuningdan foydalanadilar. Tyuning – avtomobilarni o'ziga xos va mos qilib takomillashtirish, individual ko'rinish berishni anglatadi. Bunda mashinaning barcha qismlariga o'zgartirish kiritish mumkin.

Zamonaviy sozlashda avtomobilning tashqi va ichki ko'rinishi va mexanikasini yaxshilash mumkin. Ya'ni tyuning xizmatlariga mashinalarning bamperlarini almashtirish, boshqa jihozlar o'rnatish, avtomobilni bo'yash, rasm tushirish va boshqalar kiradi.

3D rasm chizish noyob rassomchilik san'ati bo'lib, biror jismni shakl holida tasvirlashdir. Ya'ni 3 o'lchamda (eni, bo'yi, balandligini) chizishdir. Qog'ozda, ba'zan devor yoki asfaltlarda bunday rasmlarga ko'zingiz tushgan. Xuddi rasm emas, qo'l bilan ushlab bo'ladigan jism-dek ko'rindi. Uch o'lchovli tasvirlarni chizish bir qarashda ancha murakkab. Siz bundan cho'chimay, qiziqish bilan urinib ko'ring. Birinchi marta o'xshamasligi mumkin. Lekin umidsizlikka tushmang. Diqqat bilan namunalarni o'rganing. Qayta-qayta mashq qilib, hammasini uddalaysiz.



3. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Avtovyuning yordamida mashinaning ayrim qismlariga o‘zgartirish kiritiladi.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri.
2. Avtovyuningda mashinaning rusumi ham o‘zgaradi.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri.
3. Uch o‘lchamli rasmlarni chizish juda oson.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri.
4. 3D rasm namunalari qog‘ozga, devorga, hatto asfaltlarga ham chiziladi.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri.

takomillashtirmoq
sozlamоq
bezamoq
logist
jihoz

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Marketolog – tovar va xizmatlar reklamasi, iste’molchilarining ehtiyojlarini tahlil qilish bilan shug‘ullanadigan shaxs.

1	Marketolog	Ko‘kalamlashtirish loyihalarini amalga oshiradi. Obodonlashtirish uchun yerkuni tayyorlaydi.
2	Logist	Diqqatga sazovor joylarda: ko‘rgazmalar, muzeylar, qo‘riqxonalar, me’moriy inshootlarda sayyohlarga yo‘lboshchilik qiladi.
3	Landshaft dizayneri	Tovarlarni tashishni, ularni saqlashni tashkil qiluvchi mutaxassis.
4	Ekskursiya rahbari (gid)	Iste’molchilarining ehtiyojlarini tahlil qilish, tovar va xizmatlar reklamasi bilan shug‘ullanadigan shaxs.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
gilamdo‘z.

S	F	M	A	R	K	E	T	O	L	O	G
D	G	I	L	A	M	D	O‘	Z	B	R	Y
L	A	A	L	S	D	U	Q	A	N	D	U
Y	N	Z	K	S	F	R	U	R	J	I	Y
O	CH	X	J	O	B	A	V	G	L	Z	K
P	K	F	U	M	K	D	CH	A	F	A	L
L	O	G	I	S	T	G	I	R	D	Y	P
R	R	B	T	F	A	O	R	D	Y	N	O
M	E	N	E	J	E	R	T	A	H	E	Y
E	A	D	R	F	H	G	Y	S	N	R	Q

Mustaqil ish

Zamonaviy hunarlar haqida 3 ta fakt yozing.

MAHORAT DARSI: “IKKINCHI UMR”

1. O‘ylang va toping. Savollarga javob bering.



1. Bu buyumlar nimadan yasalgan deb o‘ylaysiz?
2. Siz ham shunday buyumlar yasab ko‘rganmisiz?
3. “Ikkinci umr” deganda nimani tushunasiz?

2. Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Polietilen vatani – Amerika.

1. Polietilen vatani –
2. Plastikni 1855-yili ingliz metallurgi va ixtirochisi ... kashf qilgan.
3. Plastikdan ... yasaladi.
4. ... – polietilenden voz kechgan birinchi shtat.

3. O‘qing. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna:

1 – G. Bu buyumni yasash unchalik qiyin emas.

- A. Aytgancha, mahsulotning ost qismidan te-shikchalar qo‘yish esdan chiqmasin.
- B. Plastik idishning yoti holatda bir tomoni kesib olinadi.
- C. Idish pushti rangga bo‘yaladi.
- D. Ko‘zlari, burunlari qora bo‘yoqda chiziladi.
- E. Yasalgan buyumlarga gullar yoki ko‘katlar ekish mumkin.



- G. Bu buyumni yasash unchalik qiyin emas.
- H. Qopqog'i bor qismi boshi hisoblanadi va shu tomondan kesayotganda qulq qismi qoldiriladi.
- I. 5 litr yoki 10 litrlik plastik idish va rangli bo'yoq kerak.
- A. Qulq uchun boshqa tarelka teng ikkiga bo'linadi va yelim yordamida **niqobga** yopish-tiriladi (qotiriladi).
- B. Akril bo'yoq bilan bo'yaladi.
- D. Bu buyum bir martalik likopchalardan yasaladi.
- E. Bo'yoq qurigandan so'ng boshqa rangli bo'yoq bilan burun, kiprik, tishlar, mo'ylov chiziladi.
- F. Niqobni taqish uchun rezina qadaladi.
- G. Ukalarimizga sovg'a qilsak, juda xursand bo'ladilar.
- H. Ko'zlar uchun teshiklar teshiladi.
- I. Bo'yash uchun turli bo'yoqlar ham kerak.



4. O'ylang va toping. Yozing.

plastik, bo'yoq,
rangli, stakan,
polietilen, turli,
paket, yashil,
plastmassa,
buyum, qog'oz,
idish.

Qanday?	Nima?
plastik	idish

mahsulot
chiqindi
ekmoq
kurashmoq
kesmoq
qadoqlamoq

5. O'ylang va toping. Gapiring.



Mustaqil ish

Siz ham shunday buyumlar yasab keling.

ADABIY O'QISH

“Farhod va Shirin”

nasriy bayondan parcha

*Hunarni asraban netgumdir oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir oxir?!*

Chin mamlakatida ikki hunarmand usta bor edi. Har ikkisi go‘yo egizak tug‘ilganday edilar. Birining ismi Boniy, boshqa biriniki esa Moniy edi. Bu mamlakatda Boniyday me’mor, Moniyday naqqosh topilmas edi. Boniy qurgan har bir bino osmon koshonasidek qulash nimaligini bilmas, u ishlatgan tuproq toshday mustahkam bo‘lar edi. Moniy ham shunday usta naqqosh ediki, agar jonsiz suratga bezak bera boshlasa, u tasvir tirik odamday bo‘lib ketardi.

Bu ikkovidan tashqari yana bir tezkor usta bor edi. Uning san’ati ham juda nozik edi. U toshkesar Quran edi.

Donishmand vazir Mulkoro ularning hammasini yoniga chorlab, so‘z ochdi:

– Shohimiz sizga to‘rtta go‘zal qasr qurishni buyurdilar. Boisi shahzoda Farhod yilning to‘rt fasilda shu saroyda istiqomat qiladi.

Ustalar o‘z bilimlarini ishga solib, saroy qurishni boshladilar. Qurilishda ishlar reja bilan borar ekan, bu haqida shahzoda Farhodga gapirib berdilar:

– Osmon singari shunday to‘rt qasr quriladiki, dunyoning to‘rt qit’asida ham boshqa bunday qasr topilmas.

Binolarni haddan ziyod ta’rif qilishdi. Shahzoda ham borib ko‘rishni havas qilib qoldi.

Qasr qurilishini ko‘rish uchun borgan Farhod hunarmandlarning ishini zavq bilan kuzatdi.

Har bir usta o‘z ishiga berilib ketgan edi. Ayniqsa, toshtarosh usta o‘tkir teshalari bilan katta-katta toshlarni sariyog‘ kabi kesar edi. Shahzoda buning sirini bilishga nihoyatda qiziqib qoldi. Ustalarning ishini kuzatib turgan shahzodada hunarga bo‘lgan qiziqish ortib borar edi. Ularning mahorat bilan ishslashini ko‘rgan shahzoda har bir ustaga tahsinlar aytdi.

Farhod Qorandan tosh yo‘nishni, Moniydan naqqoshlikni, Boniydan me’morlikni o‘rgandi. Bu hunarlarning mohir ustasiga aylandi.

Savollar:

1. Chin mamlakatida qanday ustalar bor edi?
2. Moniying mahorati haqida gapiring.
3. Vazir Mulkoro ustalarga qanday vazifa topshirdi?
4. Farhod nima uchun ustalarning ishiga qiziqib qoldi?
5. U ilk hunarini qaysi ustadan o‘rgandi?

**naqqosh
me’mor
koshona
donishmand
istiqomat qilmoq
qasr**



2030-YIL



KELAJAK KASBLARI

DUNYODAGI KASBLAR

1. O'ylang va toping. Gapiring.

Tikuvchi
Arxitektor
O'qituvchi

Uchuvchi
Sartarosh
Haydovchi

O't o'chiruvchi
Shifokor



2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun nima qilish kerak?
2. Biznesning o'ziga xos xususiyati nimada?
3. Rahbar o'z xodimlariga qanday munosabatda bo'lishi kerak?
4. Kompaniya kimlarning hisobiga rivojlanadi?
5. Kimlarning tajribalarini o'rganish tavsija qilinadi?

og'riqsiz
hushyor
xushmuomala
xatarli
qiziqarli
davolamoq
haydamoq

3. O'qing.

Shahnoza opa – stomatolog

Shahnoza opa 32 yoshda. U oilaviy poliklinikada stomatolog bo'lib ishlaydi. O'z ishini juda yaxshi ko'radi. Bolalarning tishlarini **og'riqsiz** davolaydi.



Maqsud aka – haydovchi

Maqsud aka 44 yoshda. U taksi haydovchisi. Taksoparkda ishlaydi. Nihoyatda hushyor va xushmuomala odam. Yo'lovchilarni aytigan vaqtda o'z manzillariga eltib qo'yadi.

**Iroda opa – o'qituvchi**

Iroda opa 36 yoshda. U maktabda o'zbek tili fanidan dars beradi. Darslarni qiziqarli o'tadi. Biz o'zbek tili darslarini yaxshi ko'ramiz.

**Anvar aka – ichki ishlar xodimi**

Anvar aka 28 yoshda. U xorijiy va mahalliy sayyoohlar xavfsizligini ta'minlash bo'limida ishlaydi. Biroz xatarli bo'lishiga qaramay, o'z ishini juda yaxshi ko'radi.

**4. O'ylang, toping va yozing.****Namuna:**

Shahnoza opa 32 yoshda. U xususiy klinikada stomatolog bo'lib ishlaydi.

	Ismi	Yoshi	Kasbi	Ish joyi
1	Shahnoza opa	32	stomatolog	xususiy klinika
2			haydovchi	
3				maktab
4		28		

5. O'ylang, toping va yozing.

- Kim? Stomatolog og'riqsiz davoleydi.
 Kim? Haydovchi
 Kim? O'qituvchi
 Kim? Ichki ishlar xodimi


Foydalanish uchun so'zlar:
 xatarli / og'riqsiz
 hushyor / qiziqarli

Mustaqil ish

Yaqinlaringizning kasbi, yoshi va ish joyi haqida yozib keling.

KASB QANDAY TANLANADI?

1. O'ylang va toping. Gapiring.



Bog'bon, fotograf, shifokor, arxeolog, advokat, marketolog, asalarichi, haydovchi, santexnik, zargar, muzeishunos.

- | | |
|----------------------------------|--|
| 1. Odam – odam: o'qituvchi, ... | 4. Odam – belgilar tizimi: hisobchi, ... |
| 2. Odam – tabiat: baliqchi, ... | 5. Odam – badiiy obraz: aktyor, ... |
| 3. Odam – texnika: operator, ... | |

2. Tinglang, o'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

3D dizayneriga arxitektura, qurilish, sog'liqni saqlash sohalarida talab yuqori bo'ladi.

KASBGA XOS XUSUSIYATLAR		KASBLAR	
1	Arxitektura, qurilish, sog'liqni saqlash sohalarida talab yuqori.	A	Brend menejer
2	Matnlarni to'g'ri yoza oladigan mutaxassis. Unga, ayniqsa, reklama sohasida ehtiyoj katta.	B	Dasturchi
3	Kompyuter dasturlash sohasining mutaxassisi.	C	3D dizayneri
4	Bu soha tez sur'atlarda ilgarilab ketmoqda.	D	Kontent menejer
5	Kompaniyaning imijini yaratadi.	E	Robototexnika mutaxassisi

DIQQAT QILING

Men	-man	Biz	-miz
Sen	... + moqchi	-san	Siz
U	-	Ular	-siz -lar

3. O‘ylang va toping. Yozing.**Namuna:***Men kelajakda o‘qituvchi bo‘lmoqchiman.*

1. Men kelajakda ... bo‘l
2. Abdulaziz ikki yildan so‘ng universitetga kir
3. Biz juma kuni arxitektor bilan uchrash
4. U logistika sohasini o‘rgan
5. Ular hunarmandning ustaxonasiga bor

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Kasblar egasi		Otlar	Sifatlar	Fe'llar
1	arxitektor	qog‘oz, maket	aqli, mulohazali	chizadi, loyihalashtiradi
2		taroq, qaychi		
3	fermer		mehnatkash, tadbirli	
4	o‘t o‘chiruvchi			qutqarmoq, evakuatsiya qilmoq
5		bo‘yoqlar, mo‘yqalam		

Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun tavsiyalar

1. O‘z qiziqishlaringizni aniqlab oling.
2. Bilimlaringizni kengaytiring.
3. Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing.
4. Ota-onangiz maslahatlari yordamida mustaqil qaror qabul qiling.

Mustaqil ish

Kelajakda o‘zingizni qaysi kasb egasi sifatida tasavvur qilasiz? Tanlamoqchi bo‘lgan kasbingiz haqida quyidagi tavsiyalardan foydalanib 30–50 so‘zdan iborat esse yozing.

KASB HAM ESKIRADI(MI)?

1. O'qing.



Telefon operatori

Ushbu jiddiy kasb vakillari asosan qizlar edi. Operatorlar telefon liniyalarini bir-biriga almashtirish va ulash vazifasini bajargan. Qo'l rejimida ularish atigi sakkiz soniyani tashkil qilgan.



Muz yoruvchilar

Muz ustida yurib uzun parrakli arra bilan muzni kesganlar. Bu juda xavfli kasb edi. Ba'zan katta hajmli muz sinib, muz yoruvchilar suvgaga cho'kib ketgan paytlar ham bo'lgan.



Chiroqchilar

Bugungi kunda ko'cha chiroqlarining bir vaqtida yonib-o'chishi odatiy holdir. Ammo avvallari ko'chalarni yorug'lik bilan ta'minlash uchun chiroqchilarni yollashgan. Ular har kuni maxsus tayoqchalari bilan yoritgichlarni yoqib, tongda o'chirishgan. Bu kasb egalari hududlarga biriktirilgan va bu hududlar uzoq masofalarga cho'zilgan.




Uyg'otuvchilar

Zamonaviy soatlar ixtiro qilinmagan paytda shunday kasb egalari bo'lgan. Ishchilar ishga kechikmasligi uchun maxsus odamlar har tongda derazalarni taqillatib, ularni uyg'otishgan. Hozir bunga ehtiyoj qolmagan va kasb yo'qolib ham ketgan.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Telefon operatori	juda xavfli kasb egalari bo'lgan.
Muz yoruvchilar	ishchilar ishga kechikmasligi uchun tongda derazalarni taqillatib, ularni uyg'otishgan.
Chiroqchilar	telefon liniyalarini bir-biriga ulash vazifasini bajargan.
Uyg'otuvchilar	tongda va kech kirganda chiroqlarni o'chirib-yoqish bilan shug'ullangan.



shiddatli
xavotir uyg'otmoq
masofaviy ta'lif
ehtiyoj
yaratuvchanlik

3. O'ylang va toping. Yozing.

- Ilm (-siz, -li)ga ishonch yo'q. Hunar (-siz, mand)ga quvonch yo'q.
- Bekorchidan maza (be-, -li) gap.
- Mehnat (-siz, -li) topilgan mol hisob (-siz, -li) ketar.
- Hunar (be-, -li) xor bo'lmas,
Do'st-dushmanga zor bo'lmas.
- Hunar (-li, -siz) o'lmas,
Hunar (-li, -siz) kun ko'rmas.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

Hozir



Keyin



5. O'ylang va toping. Yozing.

Yo'qolgan kasblar	Yo'qolish arafasidagi kasblar	O'imlas kasblar
muz yoruvchilar	hisobchi	o'qituvchilik

Mustaqil ish

Kasblarning yo'qolishiga sabab bo'luvchi 3 ta fakt yozing.

KELAJAK KASBLARI

1. Tinglang. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

2 – energetika mutaxassisasi,



1



2



3



4




5

muhandis
texnolog
dizayner
shaharsoz
urbanist
AT mutaxassisasi

2. “Insert” usulida o'qing.

	Ma'lumotlar	+ / - / V / ?
1	Kelajakda talab qilinadigan kasblar – ijtimoiy mutaxassisliklar. Insoniyat bor ekan, odamlar bilan ishlash hamisha yetakchi o'rinni egallaydi.	
2	Tadqiqotchilar yaqin o'n yil ichida eng ko'p talab qilinadigan kasblar reytingini tuzdi. Ushbu reytingda muhandislar birinchi o'rinni egalladi. Undan keyingi o'rnlarda – AT mutaxassislari va kompyuter texnikasi ishlab chiqaruvchilari.	
3	Bundan tashqari, sotuvchi, ekolog kabi kasb egalari ham oson ish topadi.	
4	O'qituvchilar, shifokorlar va kimyogarlarga ham har doimgidek talab yuqori bo'ladi.	

3. O‘ylang, toping va gapiring.



1. Sizningcha, bu tasvir necha xonali uyning chizmasi?
2. Sizningcha, uyda nechta deraza bor?
3. Uyda nechta eshik bor?
4. Chizmadan oshxonani toping.
5. Sizningcha, chizmaga qanday o‘zgartirishlar kiritish mumkin?

DIQQAT QILING

- 1) Menimcha,
- 2) ..., menimcha,
- 3) ..., menimcha.

4. O‘ylang, toping va yozing.

Namuna:

Menimcha, kelajakda AT mutaxassislariga talab yuqori bo‘ladi.

1. Menimcha, kelajakda AT mutaxassislariga talab yuqori bo‘ladi.
2. ..., har qanday davrda ham o‘qituvchilik kasbiga talab yuqori bo‘ladi.
3. Kelajakda dizaynerlikning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘ladi,
4. Shifokorlik, ..., har doim eng kerakli kasblardan biri sanaladi.
5. ..., eng ahamiyatli kasb qaysi?

5. O‘ylang, toping va gapiring.

Namuna:

A: Kelajakda qaysi kasblarga talab yuqori bo‘ladi deb o‘ylaysiz?
B: Menimcha, dizayner va muhandis-texnologlarga talab yuqori bo‘ladi.

- A:
B:
A:
B:


Mustaqil ish

O‘zingiz yashayotgan uyning chizmasini chizishga harakat qiling.

XXI ASR DASTURCHILARI

1. Tinglang. O'ylang, toping va yozing.

“Telegram”, “Facebook”, “Alibaba”, “Amazon”, “Google”, “Microsoft Office”



- | | |
|---|--------|
| 1. Pavel Durov – “Telegram” ilovasini yaratgan. | 4. ... |
| 2. ... | 5. ... |
| 3. ... | 6. ... |

DIQQAT QILING

Men	-man	Biz	-miz
Sen	-san	Siz	-siz
U	-	Ular	-lar

dasturchi
internet
mutaxassis
maqsad qilmoq
o'z ustida ishlamoq
daromad topmoq

2. O'ylang va toping. Yozing.

1. Sherali Obidov “Google” kompaniyasida ishla.... .
2. Kompaniya AT mutaxassislariga yuqori haq to'la.... .
3. Dasturchilik kasbi tinimsiz mehnatni, izlanishni talab qil.... .
4. Stiv Jobs, Pavel Durov kabi dasturchilarni butun dunyo tani.... .
5. Maqsadimiz aniq bo'lsa, unga, albatta, erish.... .

3. O'qing.

Men, Sherali Obidov, Namangan viloyatida tug'ilgaman. Hozir "Google" kompaniyasida dasturchi bo'lib ishlayman. O'zimni dunyodagi eng muvaffaqiyatli insonlardan biri deb bilaman. Sababi bolalikda niyat qilgan barcha maqsadlarimga erishdim. Istagan oliygohimda tahsil oldim. Ayni paytda jahondagi eng yirik kompaniyada ishlayman. Biroq bularning hech biri osonlikcha qo'lga kiritilmadi. Orzularimni amalga oshirish uchun men eng yaxshi mutaxassislardan tahsil olib, o'z ustimda ishладим.

Biror kasbni tanlolmay turgan yoshlarga dasturchilikni tavsiya qilaman. Chunki siz doimo zamon bilan hamnafas bo'lasiz va yaxshi daromad topasiz. Dasturchilik kasbi ham boshqa kasblar singari tinimsiz mehnatni, izlanishni talab qiladi.

Bir narsani unutmang, dasturchi bo'lasizmi yoki o'qtuvchi, shifokor, hatto oddiy sartarosh, ishingizni zo'r bilsangiz, kuchlisi bo'lsangiz, hamisha yaxshi pul topasiz. Kuchli mutaxassis har joyda qadrlanadi. Ishda ham, hayotda ham kerakli va sevimli bo'lasiz.



4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. O'zini muvaffaqiyatli insonlar safiga kirgizadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Dasturchi bolalikda qilgan niyatlarining ayrimlariga erisha olmadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Dasturchilik kasbini egallagan inson doimo zamon bilan hamnafas bo'ladi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
4. Faqat dasturchilar o'z ishini zo'r bilishi kerak.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
5. Barcha kasblar ham tinimsiz mehnatni, izlanishni talab qiladi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Internetning
foydali tomonlari

Internetning
zararli tomonlari

Mustaqil ish

Oilangiz a'zosidan kasbi va kelgusi rejalari haqida intervyyu oling.

QUTQARUVCHI

1. O'ylang va toping. Gapiring.



101 102 103 104

101	Gaz xizmati
102	O't o'chiruvchi
103	Ichki ishlar
104	Tez yordam

2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qo'shiq qaysi kasb egalari haqida?
2. Sizningcha, favqulodda vaziyatlarga nimalar kiradi?
3. Tabiiy ofat, xavfli hodisalar paytida qutqaruvchilarning vazifasi nima?
4. Qutqaruvchiga xos shaxsiy sifatlarni sanang.

tez yordam
muassasa
manzil
dori-darmon
ma'lumot
qutqaruv xizmati
vaziyat
tezkor

DIQQAT QILING

Menimcha, mening fikrimcha, bizningcha

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Yong'in chiqqanda, menimcha, o't o'chiruvchilarga tezda xabar berish kerak.

1. Yong'in chiqqanda, ..., o't o'chiruvchilarga tezda xabar berish kerak.
2. ..., har bir o'quvchi favqulodda hodisalar yuz berganda evakuatsiya qilish xaritasi bilan tanish bo'lishi shart.
3. ..., kasallikni davolagandan uning oldini olgan ma'qul.
4. ..., suv toshqini paytida balandroq tepalik ustiga chiqish kerak.

4. O'qing.



1009

Sizga yoki oilangizdagи kattalarga biror tashkilot, muassasa manzili, telefon raqami kerak bo'lib qolsa, **1009** raqamiga qo'ng'iroq qilib bog'laning. Navbatchi dispetcher sizga so'rovingiz bo'yicha ma'lumot beradi.



1069

Biror dori-darmon turi, narxi yoki qayerdan topish mumkinligi haqida ma'lumot kerak bo'lsa, **1069** raqamiga qo'ng'iroq qiling.



1050

Qutqaruv xizmati inson hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar yuzaga kelganda tezkor yordam ko'rsatadi. Bu uchun siz **1050** raqamiga qo'ng'iroq qiling.

5. O'ylang va toping. Gapiring.



1	Ukangiz mashinada qulflanib qolsa, 1009 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	✓
2	Oshxonada gaz hidi sezilsa, 1050 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	
3	Izlagan dorilaringiz qaysi dorixonada borligini bilmoxchi bo'lsangiz, 1050 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	
4	Yaqinlaringiz ishlayotgan tashkilot yoki muassasa manzilini aniqlash uchun 1009 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	
5	Sayr qilayotganingizda kuchukchangiz kanalizatsiya qudug'iga tushib ketsa, 1050 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	

Mustaqil ish

Maktabingizdagи evakuatsiya xaritasi bo'yicha harakatlanish tartibini o'rganing va chizing.

G'AROYIB KASBLAR

1. O'qing.

Shokolad tatib ko'ruvchilar

Bu ish egalari bir kunda o'rtacha yigirma turdag'i shokoladni tatib ko'rishadi. Degustator shokolad bo'laklarini tekshiradi, ularning rangi va tuzilishini, so'ngra xushbo'yligini va nihoyat ta'mini tahlil qiladi. Shirinliklarni har kuni yeyish kishi sog'lig'i uchun zararlidir. Shu sababli mashhur qandolat kompaniyalari bu ish uchun yiliga 30 ming funt sterling to'laydi.



Navbatda turuvchilar

Narxlar arzonlaydigan mavsum bu kasb egalari qattiq ter to'kishadi. Ular boshqalar uchun navbatda turib, biror tovarni sotib oladi. Ana shunday kasb egalaridan birining aytishicha, u haftasiga ming dollargacha haq oladi.

Pingvin ko'taruvchilar

Pingvin uchib ketayotgan vertolyot yoki samolyot shovqini dan boshini ko'tarib, muvozanatini yo'qotib, shunchaki orqasiga yiqilib tushadi. So'ng o'rnidan tura olmaydi.

Shuning uchun deyarli barcha qutb stansiyalarida pingvin ko'taruvchilar bor. Ish juda oddiy ko'rinishadi. Lekin har qanday ob-havoda, xoh bo'ron bo'lsin, xoh 50 daraja sovuq bo'lsin, pingvinlarni qutqarish kerak.



2. O'ylang, toping, gapiring.

1. Degustatorlar shokoladni yaxshi ko'radi.
 - A. To'g'ri.
 - B. Noto'g'ri.
2. Qimmat tovarlar ayrim paytlarda arzon narxlarda sotiladi.
 - A. To'g'ri.
 - B. Noto'g'ri.

**tanbeh
mahsulot
qo'rqinchli
qandolatchilik
yollash
qobiliyat**

3. Pingvin o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi.
- A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

3. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Matnda qanday kasblar haqida so‘z borgan?
2. Siz ham shunday g‘aroyib kasblar haqida bilasizmi?
3. Qaysi kasb qiyinroq deb o‘ylaysiz?
4. Shu kasblardan qaysi birini tanlagan bo‘lardingiz? Nima uchun?

DIQQAT QILING

Men	-man	Biz	-miz	
Sen	... + r/ar	-san	Siz ... + r/ar	-siz
U	-	Ular	-lar	

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

G‘aroyib kasblar haqida yanada ko‘proq ma’lumot to‘plarman.

1. G‘aroyib kasblar haqida yanada ko‘proq ma’lumot to‘pla.... .
2. Golf o‘ynashni yoqtirganim uchun to‘p yig‘uvchi kasbini tanlashni o‘ylab ko‘r.... .
3. Shirinliklarni tayyorlashda aynigan tuxum ishlatilmasligi uchun tuxum hidlovchilarni ishga olish.... .
4. Kelajakda biz ham tabiatni asrash bo‘yicha turli loyihalarimizni taqdim qil...

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Ot (bitta)	degustator
Sifat (ikkita)	
Fe'l (uchta)	
Gap (to‘rt so‘zdan iborat)	
Sinonim	

Mustaqil ish

G‘aroyib kasblar haqida esse yozing.

KASBIDAN KAMOL TOPGANLAR

1. Tinglang, o'ylang va toping.



	Ma'lumotlar	Ha/yo'q
1	Henri otasi kabi fermer bo'lishni istar edi.	
2	Uning otasi "Ford Motor Company"ga asos soldi.	
3	Henri barcha insonlarda avtomobil bo'lishini xohlar edi.	
4	"T-Ford" modeli millionlab nusxada sotildi.	

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Henri otasi kabi fermer bo'lmoqchi emas edi.

1. Henri otasi kabi fermer bo'l... emas edi.
2. U keljakda mashhur inson bo'l....
3. Henri dunyodagi barcha insonlarda avtomobil bo'lishini xohla... edi.
4. Yosh Henrining orzulari keljakda amalga osh... , balki.
5. Henri kompaniya xodimlarining turmush tarzini farovon qil... bo'lgan va doimo ularga yuqori haq to'lagan.

3. O'qing.

Murod Nazarov: “Kompaniyamiz tashkil etilganiga ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Lekin buning orqasida yigirma yillik tajriba yotibdi. Aslida, yoshlikda havaskor sifatida qurilish ishlariiga qiziqqanman va birinchi uyimni 14 yoshda qurishimga to‘g‘ri kelgan.



O’sha uyga ko‘chib o’t-ganimizdan keyin men Yaponiyaga grant asosida o‘qishga kirdim. Qaytib kelganimidan so‘ng, xorijdagi shaharsozlik meni qiziqtirib qo‘ygani uchun o‘z yurtimda ulardan ham zo‘rini qurgim keldi.



Tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, biznesda o‘zingiz kabi tasavvurlarga ega hamkorlar bilan ishslash kishini zavqlantiradi”.

kun.uz saytidan olindi.

4. Savollarga javob bering.

1. Matn kimning tilidan hikoya qilingan?
2. Murod Nazarov birinchi uyini qachon qurgan?
3. Nima uchun o‘z kompaniyasiga asos solgan?
4. Murod Nazarov biznesdagi hamkorlarining qanday bo‘lishini istaydi?

kompaniya
model
brend
tajriba
biznes
hamkor
asos solmoq
tashkil etmoq

5. O‘ylang va toping. Yozing.

S	U	F	E	R	M	E	R	D	R	Y
A	B	B	U	A	U	B	B	A	S	S
G	K	E	R	K	H	F	S	S	K	U
X	O	J	B	A	A	I	B	T	L	E
D	I	Z	A	Y	N	E	R	U	K	K
L	O	J	N	I	D	V	V	R	L	O
U	L	S	I	S	I	S	S	CH	D	L
V	O	P	S	I	S	V	V	I	D	O
O	Y	G	T	E	X	N	O	L	O	G

Mustaqil ish

“Kim bo‘lsam ekan?” mavzusida esse yozing.

ADABIY O'QISH

BUYUK SAKRASH

– Bu materiya translyatori, – deb tushuntirdi doktor Simiak.

Uskuna bolaning xayolini butkul o'g'irladi. Dolf nafasini yutgancha butun devor bo'ylab yoyilgan ulkan uskunaga tikilardi. Oyoq ostida izolyatsiyalangan yo'g'on simlar chalkashib yotardi. Dolf nigohini uskuna paneliga qaratdi: chiroqlar bilan tutashgan raqam, belgilar, tugma va tutqichlar unga hech narsani anglatmas edi.

O'tmishni bugun bilan bog'laydigan ulkan uskuna yonida turgan Dolf to'satdan o'zining hech narsaga arzimas ekanini angladi. Dolfning otasi doktor Vega har ikkala vaqt mashinasi ixtirochilari bilan do'stona munosabatda edi. Dolfning bir necha oydan buyon laboratoriyaga kirish to'g'risidagi iltimoslari Yangi yil bayrami arafasida nihoyat amalga oshdi. Faqat Dolf ishtiyoq bilan tomosha qilmoqchi bo'lgan bu uskuna unda bunchalik hayratlanarli taassurot qoldirishini kutmagan edi.

– Nima bu?

Dolf uskuna markaziga joylashgan, xuddi telefon budkasini eslatuvchi, qalin devorli, shaf-fov, odam bo'yidek keladigan eshikni ko'rsatdi.

Lekin eshik, Doktor Simiak aytganidek, oynadan emas, maxsus zARBGA chidamli xomashyodan tayyorlangan edi.

– Bu yerga o'tmishga yuboriluvchi hujayra yoki biror jism joylashtiriladi, – deya o'z so'zini davom ettirdi laboratoriya assistenti doktor Knefetur.

– Orqaga ham shu qutida qaytishadimi?

– Omadi kelsa, albatta.

– Omadi kelsa deganingiz nimasi?

– Ko'ryapsanmi, do'stim – suhbatga aralashdi doktor Simiak, – biz o'tmishga ushbu qu'ticha bilan jo'natayotgan jonivorni faqat oradan uch soat o'tgachgina ortga qaytarishimiz mumkin, bundan oldin iloji yoq. Gap shundaki, bizning translyatorlarimiz katta miqdorda energiya iste'mol qilib, qizib ketadi. Translyator sovishi uchun esa vaqt kerak bo'ladi. Eng asosiysi shuki, qo'nish joyining koordinatalarini uskunalar yozib olgani sababli quticha vaqt mashinasи olib borgan joyda aniq bo'lishi zarur. Kimdir qutichani siljitsa yoki qutichaning o'zi u yoki bu yoqqa siljib ketsa, bizga faqat quticha turgan joyning mashina tomonidan olingan bir siqim tuprog'i qaytib keladi, jonivorimiz esa o'tmishda qolib ketadi.

– Nima uchun sizlar hayvonlar bilan ishlaysizlar-a? Axir ular o'tmishda nima ko'rganliklari ni gapirib bera olishmaydi-ku.

Bolaning tanbehiga mantiqan e'tiroz bildirish mushkul edi...

Tea Bekman

Savollarga javob bering.

1. Dolf qanday xonaga kirib qolgan edi?
2. Dolfning dadasiga qilgan iltimosi qachon amalga oshdi?
3. O'tmish mashinasiga odamlarning kirishi xavflimi?
4. Siz ham o'tmishga qaytgan bo'larmidingiz? O'tmishning qaysi davri sizga qiziq?

Orzumizdagi texnikalar

KELAJAK TEXNIKALARI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Keng ommalashishi mumkin bo'lgan texnologiyalarni sanang.
2. Avtopilotga ega avtomobilarning qanday afzalliklari bor?
3. 3D printerlar yordamida nimalar “chop etsa” bo'ladi?
4. Yuk tashishga mo'ljallangan robotni qaysi kompaniya taqdim etgan?
5. “Sony” kompaniyasi qanday robot ishlab chiqqan?

2. O'ylang va toping. Gapiring.



DIQQAT QILING

Balki, ehtimol.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Ehtimol, biz bugun xayolimizga ham keltirmagan texnikalarga guvoh bo'larmiz.

1. ..., biz bugun xayolimizga ham keltirmagan texnikalarga guvoh bo'larmiz.
2. “SpaceX” raketasida kosmosga sayohat qilarmiz,

3. Kelajakda aholi yashash tarzini osonlashtirish uchun yanada ko‘proq texnikalar ishlab chiqarilar,
4. ... , kelajakda 3D printerlarining imkoniyatlari yanada ko‘payar.
5. Oradan yillar o‘tib, ... , men ham ixtirochi bo‘larman.

**rivojlanib bormoq
innovation
texnikalar biznes
marketing
investitsiya
tadqiqot
olib bormoq**

4. O‘qing

Volumetrik bosib chiqarish biznesning yangi, istiqbolli yo‘nalishi. 3D bozori har yili o‘rtacha 25% ga o‘sib bormoqda. Chunki yangi texnologiyalar jiddiy investitsiyalarni va malakali marketingni talab qiladi.

“3D bosib chiqarish” atamasi 1995-yilda AQSHda paydo bo‘lgan. U oldindan tayyorlangan raqamli loyiha bo‘yicha mahsulotni shakllantiradigan va quyadigan maxsus uskunalar yordamida hajmlı modelni yaratishni anglatadi.



3D printerlar yordamida dastlab o‘yinchoqlar ishlab chiqarish imkoni paydo bo‘ldi.

Mazkur texnologiyaning imkoniyatlari juda katta bo‘lib, kelajakda tibbiyat, ta’lim, avtomobilsozlik, sanoat kabi sohalarda qo’llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

	Ma’lumotlar	Ha/yo‘q
1	Yangi texnologiyalar jiddiy investitsiyalarni va malakali marketingni talab qilmaydi.	
2	3D bozori yildan yilga rivojlanib bormoqda.	
3	Mazkur texnologiyaning istiqboli porloq.	
4	Kelajakda ishlab chiqarishning barcha sohalarida undan foydalanish mumkin emas.	

Mustaqil ish

Ishlab chiqarish bo‘yicha o‘z biznes loyihangizni yarating.

MAISHIY TEHNİKALAR

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

go‘sht qiymalagich, havo sovitkich, sharbat chiqargich, blender, elektr choynak, changyutkich, kir yuvish mashinasi, elektr qozon/multivarka



2. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Og‘ir dazmollarni ishlatish qulay deb o‘laysizmi?
2. Sili ixtirosidan oldin dazmollar qanday shaklda bo‘lgan?
3. Pechlarda qizdiriladigan dazmollarning qanday noqulay taraflari bor edi?
4. Bug‘ funksiyali birinchi dazmollar qachon paydo bo‘lgan?

DIQQAT QILING

Albatta, shubhasiz – ishonch ma’nosidagi kirish so‘zlar

maishiy texnika
kundalik hayot
ehtiyoj
qo’llanmoq
foydalanmoq
vaqtini tejamoq

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Sharbat tayyorlagichga, albatta, mevalarni yuvib solish kerak.

1. Sharbat tayyorlagichga, ... , mevalarni yuvib solish kerak.
2. Blenderdan foydalangach, uning qismlarini, ... , yuvib qo'yish shart.
- 3.... , maishiy texnikalardan foydalanganda xavfsizlik qoidalariiga amal qilish kerak.
4. Inson hayotini yengillashtiradi, ...
5. Texnikalardan foydalanishdan oldin, ..., ishlatish yo'riqnomasi bilan tanishib chiqish kerak.

4. O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.

Bugun mikroto'lqinli pech deyarli hamma xonodon oshxonasida bor. Uning dunyoga kelishi-ga AQSHning harbiy ta'minot kompaniyasi muhandisi Persi Spenser sababchi bo'lgan. Bir kuni u cho'ntagidagi shokolad magnetron ta'sirida eriganini bilib qoladi. U bu hodisani hamkasblariga aytib beradi. Kompaniyaning yana bir muhandisi, Persining eng yaqin hamkasbi Jessi Kartraytni bu hodisa qiziqtirib qoladi va unda mikroto'lqinli pech yaratish g'oyasi tug'iladi.

Qurilmaning birinchi nusxasi 1947-yili Amerikaning harbiylar oshxonasida mahsulotlarni tezda eritib berish uchun ishlatilgan. O'sha paytda bu qurilma haddan tashqari katta vazn (300 kg) va past quvvatga (3 kilovatt) ega bo'lgan.

Uy yumushlarida qo'llanadigan juda ko'p ixtiro va zamonaviy texnikalarning avtomatlashtirilgan dasturlari ham Jessi Kartraytga tegishli. Jumladan, kir yuvish mashinasini yaratish g'oyasi muallifi ham u.

1. Mikroto'lqinli pechning dunyoga kelishiga muhandis Persi Spenser sababchi bo'lgan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. O'sha paytda bu qurilma haddan tashqari kichik vazn va yuqori quvvatga ega bo'lgan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Kir yuvish mashinasini yaratish g'oyasi Jessi Kartraytga tegishli.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

- | | |
|---|--|
| 1. O'chog'i bor, mo'risi yo'q,
Cho'g'i bor-u, kuli yo'q. | 4. O't yemaydi bedanam,
Suv ichmaydi bedanam. |
| 2. Bir ajoyib ishxona,
Ichi doim qishxona. | Atlas, kimxbob ustida
Yo'rg'alaydi bedanam. |
| 3. Pish-pish etib suv sepib,
Kemam boradi yelib. | 5. Katta quti, yuzi bor,
Ko'p tomosha, so'zi bor. |

Mustaqil ish

Maishiy texnikalardan foydalanishda amal qilinadigan ehtiyyot choralari haqida ma'lumot to'plang.

ALLO, ALLO!

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. “Telefon” so‘zining ma’nosini bilasizmi?
2. Telefon yana qanday atalgan?
3. Telefonni kim ixtiro qilgan?
4. Telefoniyada qaysi olimlarning xizmatlari bor?
5. Telefon ishlab chiqaruvchi qanday kompaniyalarini bilasiz?
6. Siz uchun telefonning qanday ahamiyati bor?

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna:

1 – G...



A

B

D

E



F



G



H



I

3. O‘qing.

“Samsung” kompaniyasi

“Samsung” – mobil va elektronika sohasida gigant kompaniyalardan biri. 1938-yili janubiy koreyalik tadbirdor Li Ben Chxol asos solgan kompaniya butun dunyo bozorlariga innovatsiyalarni olib kira oldi. “Samsung” koreys tilida “Uch yulduz” ma’nosini anglatadi.

“Samsung” 1983-yildan shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqara boshladi. 1991–1992-yillarda esa shaxsiy mobil vositalar va mobil telefonlar ishlab chiqarishni yo’lga qo’ydi.

Bugun mazkur brend ostida displeylar, mobil qurilmalar, telekommunikatsiya tizimlari, maishiy elektronika, raqamlı fototexnika, yarimo’tkazgichlar va monitorlar ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlar jahonning turli mamlakatlarida shuhrat qozongan.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

1	Innovatsiyalarini butun dunyoga olib kirgan kompaniyaga	1983-yildan ishlab chiqara boshladi.
2	“Samsung” birinchi shaxsiy kompyuterlarini	maishiy elektronika, raqamli fototexnika, mobil qurilma va boshqa texnikalar ishlab chiqariladi.
3	Turli mamlakatlarda shuhrat qozongan kompaniya	Li Ben Chxol 1938-yili asos solgan.
4	Mashhur “Samsung” brendi ostida ko‘plab nomi koreys tilida “Uch yulduz” ma’nosini anglatadi.	

DIQQAT QILING

1. ... shunday ...-ki, natijada
2. ... shu qadar ...-ki, natijada

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Li Ben Chxol kompaniyada shunday axloq normalarini joriy qildiki, natijada mashhurlik va muvaffaqiyatga erishdi.

1. Li Ben Chxol kompaniyada axloq normalarini joriy qildi. Mashhurlik va muvaffaqiyatga erishdi.
2. “Samsung” kompaniyasi yarimo‘tkazgichlar bozoriga jadal kirdi. Kichik oilaviy biznesdan global korporatsiya darajasiga ko‘tarildi.
3. “Samsung” kompaniyasi mobil telefonlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Butun sayyorda kompaniya brendi mashhur bo‘ldi.

6. O‘ylang va toping. Gapiring.



Mustaqil ish

O‘zingiz va oila a’zolaringiz mobil telefonidan nima maqsadda va qancha vaqt foydalanishini kuzating. Shu asosda faktologik matn yozing.

PARVOZGA SHAYLANING

1. O‘ylang va toping. Gapiring.



Foydalinish uchun so‘zlar: styuardessa, aviamuhandis/aviatexnik, uchuvchi, dispatcher, yordamchi uchuvchi



2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

	Ma’lumotlar	Ha/yo‘q
1	“Boeing 747” dunyodagi uzoq masofaga uchuvchi birinchi samolyotmi?	
2	“Boeing 747” birinchi parvozini 1969-yilda amalga oshirganmi?	
3	Bu samolyot hozirgacha dunyodagi eng katta, eng keng va eng og‘ir yo‘lovchi samolyoti hisoblanadimi?	
4	Yangi modeldagi samolyotlar 150 tagacha yo‘lovchini tashish imkonini beradi.	
5	Eng uzoq masofaga uchuvchi “Boeing 747” samolyotlarini Avstraliyaning “Qantas Airways” aviakompaniyasi boshqaradi.	
6	“Boeing 747” 1989-yilda Sidneydan Londonga yo‘lda to‘xtamay uchgan.	

DIQQAT QILING

Xayriyat, esiz, afsus.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Xayriyat, parvoz muvaffaqiyatli yakunlandi.

uchuvchi
parvoz
yordamchi uchuvchi
aviamuhandis
xizmat
kuzatmoq
boshqarmoq

1., parvoz muvaffaqiyatli yakunlandi.
2. Buyumlarimni samolyot bortida unutib qoldiribman,
3., yozgi ta'tilda Turkiyaga sayohat qiladigan bo'ldik.
4., aviachiptani onlayn xarid qilishni o'rganib olmabman.
5., aeroportga o'z vaqtida yetib kelishga ulgurdim.

4. O'qing.

Ilk samolyotlar yog'och, gazlama va simdan tayyorlangan. Ular bir kishini qiyinchilik bilan havoga ko'targan va bir necha kilometr masofagagini ucha olgan xolos.

"Flayer-1" deb nomlangan ilk uchar uskunani 1903-yil 17-dekabrda AQSHlik aka-uka Uilbur va Orvil Rayt sinab ko'rishdi va birinchi urinishda 37 metrga uchishdi. Shu sana zamонави aviatsиyaning tug'ilgan kuni hisobланади.

Hozirgi samolyotlar – ulkan va murakkab mashina bo'lib, bortidagi bir necha yuz yo'lovchi bilan to'xtovsiz uchib, Yer sharining yarmini aylanib chiqishi mumkin. Uchuvchisiz uchadigan qurilmalar ham bor, ular yerdan beriladigan buyruqlar asosida havoga ko'tarila olish, uchish va qo'nishga qodir.



5. O'ylang va toping. Gapiring.

S:?

J: Ilk uchar uskuna faqat bir kishini ko'tara olgan.

S:?

J: Uchuvchisiz samolyotlar ham mavjud.

S:?

J: Ular yerdan berilgan buyruqlar asosida havoga ko'tarila oladi.

S:?

J: IL-76 samolyotining o't o'chirishga, shifoxona sifatida ishlashga ixtisoslashgan turlari mavjud.


**Mustaqil ish**

O'zingiz sayohatga borishni orzu qilgan davlatga uchish aviachiptasini tayyorlab keling.

DRONLAR

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

Harbiy dron, suvosti droni, daraxt ekadigan dron, yerda yuruvchi dron, kamera droni



2. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Pochtachi dronlar havoda necha soat harakatlana oladi?
2. Qaysi kompaniya o‘z pitsalarini mijozlariga dronlar yordamida yetkazib berishni yo‘lga qo‘ydi?
3. Pitsani yetkazib berishda menejer qanday vazifa bajaradi?
4. Delft universiteti (Niderlandiya) talabalaridan biri qanday dron yaratdi?
5. Og‘irligi 4 kg bo‘lgan “Mo‘jiza mashinasi” qanday vazifa bajaradi?

masofadan
boshqarish
yetkazib berish
jamoatchilik

DIQQAT QILING

Shunday ... -ki, natijada ...

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Har bir dron shunday daraxt ekadiki, natijada bu amal oddiy usuldan 25 marta tez bajariladi.

1	Har bir dron bir kunda daraxt ekadi.	A	Maydonlarni kuzatish atigi 6 daqiqada yakunlandi.
2	Kuzatish ishlari dronlar yordamida amalga oshirildi.	B	Odatdagidan ancha arzonga tushadi.
3	Jo‘natmalar dronlar yordamida olib boriladi.	D	Bu oddiy usuldan 25 marta tez bajariladi.
4	Dronlardan tibbiy maqsadlarda ham foydalaniladi.	E	Bemorga tez va sifatli tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

4. O‘qing.

Dron – texnologiya nuqtayi nazaridan uchuvchisiz samolyot hisoblanadi. Dron asosan avtonom yoki masofadan boshqarish pulti bilan harakatlana oladigan, uchadigan robotdir. Yaqin o‘tmishda uchuvchisiz samolyotlardan ko‘proq harbiy sohada foydalanilgan. Ammo hozir ular oddiy odamlar va keng jamoatchilik tomonidan yetkazib berish xizmatlari kabi maqsadlarda ko‘proq ishlatilmoqda. Kinorejissyorlar va jurnalistlar muntazam ravishda uchuvchisiz samolyotlardan videografiya maqsadida foydalanadi. Ya’ni dronlar suratga yoki videoga olish qiyin bo‘lgan vaziyatlarda qo‘l keladi.



5. O‘ylang va toping. Gapiring.

	Ma’lumotlar	To‘g‘ri /Noto‘g‘ri
1	Dron pult bilan faqat masofadan boshqariladi.	
2	Kino sanoatida dronlardan suratga olishda foydalaniladi.	
3	Dronlardan yetkazib berish xizmatlarida foydalanilmaydi.	
4	Texnologik jihatdan dron uchuvchisiz samolyotdir.	

Mustaqil ish

O‘zingiz tasavvur qilgan dronning rasmini chizing.

“AQLLI UY”LAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.



1. Aholi turarjoylarini avtomatlashtirishning qanday afzalliklari bor?
2. Uyning qaysi qismlari avtomatlashtiriladi?
3. Uydagi qurilmalar qanday boshqariladi?
4. Datchik nima?
5. Shunday “aqlli uy”larda yashashni istaysizmi?

datchik
avtomatik
avtomatlashtirmoq
boshqarilmoq
internet
xavfsizlik

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Hozirgi davrda texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda, natijada aholi turarjoy binolari avtomatlashtirilmoqda.

1. Hozirgi davrda texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda.
2. Aholi turarjoy binolari avtomatlashtirilmoqda.
3. Yozda quyoshning jazirama nurlari uyingizni qizita boshlaganda uyning deraza pardalari avtomatik tarzda tushiriladi.
4. Uyning sovitish tizimi ishga tushadi.

5. Datchiklar doimo sizga xabar jo'natib turadi.
6. Uyingizni qo'lingizdagi mobil telefon orqali muntazam kuzatishingiz mumkin.

3. O'qing.

“Aqli uy” – odamlarning qulayligi va farovonligi uchun xizmat qiladigan ajoyib kashfiyot. “Aqli uy”larga o'rnatilgan boshqaruv tizimi orqali uydagi isitish tizimlari, suv ta'minoti, elektr energiyasi, konditsioner va shamollatish, shuningdek, xavfsizlik tizimlarining uzluk-siz ishlashi nazorat qilinadi.

Ba'zi “aqli uy”lar audio va video tizimlar bilan ham jihozlangan bo'lib, ular telefondan yoki kompyuterlardan internet orqali osonlikcha boshqariladi. Tasavvur qiling: faqat bitta tugma-chani bosib, dunyoning istalgan joyidan uyingizda nima bo'layotganini bilishingiz mumkin.

“Aqli uy”lar elektr tizimi bilan bog'liq ravishda ishlaydi. Chunki uydagi barcha tizim elektr energiyasi ta'minotiga ulanadi. Elektr energiyasi ham maxsus boshqariladi. Tarmoqda uzilishlar bo'lganida tizim avtomatik ravishda quyosh panellari yoki boshqa muqobil energiya manbalariga ulanishi mumkin.

4. O'ylang va toping. Yozing.

BILAR EDIM	BILIB OLDIM	BILMOQCHIMAN

5. O'ylang, toping va gapiring.



Mustaqil ish

Keljakda o'zingiz yashashni istagan “aqli uy” rasmini tasvirlang.

DUNYONI O'ZGARTIRUVCHI TEXNIKALAR

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.



sun'iy intellekt
elektromobil
boshqarmoq
kompyuter
avtomatik qurilma

2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Ilon Maskning tug'ilgan yurti – Amerika.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. U yoshligidan faqat dasturlashga qiziqqan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Uning yaratgan loyihalari butun dunyoga mashhur.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
4. Raketaalar sotib olib, Marsni egallash uning maqsadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
5. Sun'iy intellekt kompaniyasi – “Open AI” direktorining yordamchisi bo‘lib ishlaydi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

DIQQAT QILING

Xullas, demak

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Xullas, “Open AI” kompaniyasi sun’iy intellekt loyihalarini ishlab chiqadi.

1., “Open AI” kompaniyasi sun’iy intellekt loyihalarini ishlab chiqadi.
2., “Tesla” kompaniyasi elektromobillar ishlab chiqaradi.
3., Ilon Maskning “Space X” kompaniyasini tashkil qilishdan asosiy maqsadi – Marsni egallash.
4. , Ilon Mask dunyoni o‘zgartiruvchi texnikalarni yaratmoqda.
5., ilm-fan rivojlangani sari insoniyatga xizmat qiladigan ixtiolar yaratilaveradi.

4. O‘qing.

Kompyuter – XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lib, hozir inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida qo’llanib kelmoqda.

Dastlab yaratilgan kompyuter asosan murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Keyinroq kompyuterda matn, rasm, tovush, video kabi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, uzatish kabi amallarni bajarish imkoniyati yuzaga keldi. Ularning turlari xilma-xil bo‘lib, ular nafaqat o‘lchamlari, balki ma'lum bir imkoniyat va vazifalari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Kompyuterlar kundan kunga takomillashib bormoqda, sohada yangidan yangi kompaniyalar paydo bo‘lmoqda. Hozirgacha jahon bozorida kompyuter texnikasining 100 dan ortiq modeli ishlab chiqarilgan.

5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” darsligidan

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1	Monitor	A	Qog‘ozdagi matn yoki tasvirni kompyuter xotirasiga kiritadi.
2	Sichqoncha	B	Uning asosiy vazifasi – kompyuterga ma'lumotlarni kiritish va kompyuter bilan muloqot qilish.
3	Skaner	D	Harakatining natijasi monitorda kurstor ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uning yordamida kompyuterni boshqarish qulay.
4	Klaviatura	E	Uning vazifasi ma'lumotlarni ekranda namoyish qilishdan iborat.

Mustaqil ish

“Paint” dasturida o‘zingiz orzu qilgan texnika rasmini chizing.

ADABIY O'QISH

Robotlar

xayoliy
 soha
 ko'mak bermoq
 zimmasiga olmoq
 ehtiyojkorlik
 keksa
 sohib

Yaqin-yaqinlargacha robotlar inson uchun xayoliy kashfiyat bo'lib tuyular va ularni faqatgina filmlarda tomosha qilish mumkin edi. Biroq bugun texnologiya rivoji tufayli har xil robotlar turli sohalarda qo'llanmoqda. Uy ishlarida ko'mak beruvchi robotlar ham yaratilib, odamlarning mehnatini osonlashtirmoqda.


Robot-tozalovchi pol, deraza va chang bo'lishi mumkin bo'lgan joylarni tozalashni o'z zimmasiga oladi. Bu esa uy egasiga bir qancha yengilliklar yaratadi. Ularning aksari unchalik qimmat emas, shuningdek, katta joy egallamaydi. Ularni boshqarish ham qiyin emas, mobil dastur orqali tozalash uchun vaqt va joyni tanlash mumkin. Robot ifloslangan joylarni aniqlaydi, chang, soch tolalari, hayvon junini ehtiyojkorlik bilan yig'ib oladi. U qo'lida yig'ish-tirish va supurib-sidirish qiyin joylarni tozalashga mo'ljallab tayyorlangan. Robotning bo'y past, shuning uchun mebel tagini ham osonlik bilan tozalay oladi. Tegishli ishlarini bajarib bo'lgandan so'ng avtomatik ravishda o'z joyiga qaytadi.

Robot-enagalar bolalar bilan astoydil shug'ullanadi, masalan, ularga ertak aytadi, savollari ga javob beradi, ota-onaning iltimosini yetkazadi, hatto bola aks etgan videolavhani mobil telefonga uzatadi. Ushbu robotning keksalarga xizmat ko'rsatadigan turlari ham bor. Ular ishlar ro'yxatini tuzadi, barcha qaydlarni eslatib turadi, kichik ishlarni bajaradi. Sun'iy intellekt sharofati bilan sohibining odatlariga moslashadi, suhbatlashadi. Hatto egasining ahvoli yomonlashsa, favqulodda xizmat xodimlarini ham chaqira oladi.

Xullas, ilm-fan taraqqiyoti natijasida inson mehnatini yengillashtiradigan, uning yashash tarzini osonlashtiradigan ko'plab robotlar yaratilmoqda.

Savollar:

1. Insonlar robotlarni nima uchun kashf qildi deb o'ylaysiz?
2. Robotlar ixtiro qilinishining insoniyat uchun qanday ijobiylari va salbiy tomonlari bor?
3. Robotlarning tozalovchi va enagalardan tashqari yana qanday turlarini bilasiz?
4. Robot-enagalarning vazifalarini tushuntirib bera olasizmi?
5. Sizningcha, ilm-fan rivojlanishi natijasida yaqin kelajakda robotlarning qanday turlari yaratilishi mumkin?



KECHA, BUGUN, ERTAGA



MAHALLAM

XUSH KO'RDIK!

1. O'qing.

Assalomu alaykum! Mening ismim Suhrob. Men 7-sinfda o'qiyman. Bu – men yashaydigan mahalla. Har kuni mакtabga ketayotgan paytimda mahallamizning sokin va ozoda ko'chalarini tomosha qilishni yoqtiraman. Ertalab supurilgan, suv sepilgan ko'chalaridan o'tar ekanman, kecha tarix darsida ustozimiz keltirgan ma'lumotlar esimga tushdi. Ustozimizning aytishicha, mahalla haqidagi ilk ma'lumot X asr tarixchisi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida keltirilgan ekan.



Mahallamiz guzari ham juda chiroqli. Mana, nonning shirin hidi anqib turgan novvoyxona, Odil amakim ishlaydigan sartaroshxona. Hammalari ertalabdan ishni boshlab yuborishgan.

Mahallamizdan katta anhor oqib o'tadi. Yozda bu yerga o'rtoqlarim bilan har kuni cho'milgani kelamiz.

Anhor bo'yida joylashgan choyxonada choyxonachi Ikrom aka ishni boshlab yuborgan. Birpasdan keyin bu yerga mahallamizning yoshi ulug' nuroniylari kelib, suhbatlashib o'tirishi. Men ularga salom beraman, ularga ko'maklashaman.

Mana, mакtabga ham kelib oldim. Maktabimiz binosi mahalla guzarining yonida joylashgan. Bugun ustozimiz mahalla bo'ylab sayohatga olib chiqishini aytganlar. Ustozimiz sayohat davomida mahallamiz tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar, afsona-yu rivoyatlar aytib bermoqchi. O'ylaymanki, sayohat davomida ko'plab yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Nonvoyxona = novvoyxona

2. O'ylang va toping. Gapiring. Ha/yo'q.

Mahalla haqidagi ilk ma'lumotni Suhrobing ustozi aytadi.	
Odil amaki choyxonada ishni boshlab yuborgan.	
Suhrob ustozi va sinfdoshlari bilan mahalla bo'ylab sayohatga chiqmoqchi.	
Mahalla haqidagi ilk ma'lumot XII asrga to'g'ri keladi.	
Suhrob mahallasidagi nuroniy otaxonlarning duolarini oladi.	

3. Tinglang va savollarga javob bering.



1. Alisher Navoiy mahallaga qanday ta’rif beradi?
2. Mahallangizdagi urf-odat, qadriyatlar haqida gapirib bering.
3. “Bir bolaga yetti mahalla ota-onा” degan maqolni qanday izohlaysiz?
4. Sizga mahallangizdagi qaysi joylar yoqadi? Nima uchun?

DIQQAT QILING

Men	-m	Biz	-k
Sen	... + gan	Siz	-ngiz
U	-	Ular	-lar

**beg’ubor
chopmoq
obod
betakror
chamanzor
gulzor**

4. O’ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Bizning uyimiz mahalla guzari yonida joylashgan.

1. Bizning uyimiz mahalla guzari yonida (joylashmoq).
2. Buvimning aytishicha, oldinlari mahallamiz o’rtasidan katta anhor (oqmoq).
3. Ko’chamizdagi chinor daraxtini mening bobom (ekmoq).
4. Bobom uzoq yillar mahalla oqsoqoli (bo’lmoq).
5. Mahallamiz bugun obod qishloqqa (aylanmoq).

5. O’ylang va toping. Yozing.

Ot (1 ta)	Mahalla
Sifat (2 ta)	
Fe'l (3 ta)	
Gap (4 so‘zdan iborat)	
Sinonim (1 ta)	

Mustaqil ish

Mahallangiz tarixi haqida oila a’zolaringiz yordamida ma’lumot to‘plang.

МАHALLA GUZARI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Tinglagan qo'shig'ingizda qishloq qanday tasvirlangan?
2. "Vatan ichra kichik vatandir" jumlasidan nimani tushundingiz?
3. "Har kimga aziz tug'ilgan joyi,
Tog'lari, bog'i, tuprog'i, loyi". Insonga yana nimalar aziz bo'lishi mumkin?
4. Qo'shiqning naqarotini aytib ko'ring.

2. O'qing.



Mahallamiz guzari

Bu – mahallamiz guzaridagi kutubxona. Kitobga qiziqadigan bolalar kutubxonadan bema-lol foydalanishi mumkin. Hozir dars tugagani uchun sinfdoshlarim shu yerga kelgan.

Bu – mahallamiz "Yoshlar guzari" dagi tikuvchilik xonasi. Tikuvchi qizlarimiz Zumrad va Saodat. Bu yerda chevarlik hunarini o'rgangan qizlar ishlaydi.

Bu – novvoyxona. Unda mahallamizning taniqli novvoysi Ixtiyor aka ishlaydi. U yopgan nonlarga talab shunchalik ko'PKI, kecha-yu kunduz qo'li qo'liga tegmaydi. Ixtiyor aka o'z kasbini juda qadrlaydi.

Bu yerda esa sartaroshxona joylashgan. Rustam aka – o'z ishini juda yaxshi biladigan sartarosh. Shuning uchun mijozlari doim xursand. U barchaga samimiy munosabatda bo'ladi.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Sinfdoshlarim kutubxonada kitob o'qiyapti.

Naqorat



Naqarot

	Kim?	Qayerda?	Nima(ni)?	Nima qilyapti?
1			kitob	
2	Zumrad			
3		novvoyxonada		
4	Rustam aka	sartaroshxonada	ustarani	ishlatyapti

DIQQAT QILING

..., chunki
..., negaki

4. O‘ylang va toping. Yozing.***Namuna:***

O‘quvchilar mahalladagi kutubxonaga bordilar, chunki dars tugagan edi.

1. O‘quvchilar mahalladagi kutubxonaga bordilar, ... dars tugagan edi.
2. Zumrad tikuvchilik hunarini o‘rganmoqda, ... u ko‘ylak tikishni yoqtiradi.
3. Mahallamizda Ixtiyor akani hamma hurmat qiladi, ... u o‘z kasbini juda qadrlaydi.
4. Rustam akaning mijozlari juda ko‘p, ... u hamma bilan samimiy munosabatda bo‘ladi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

B	O	G‘	D	O	R	I	X	O	N	A	O
E	Y	G	E	G	S	A	T	F	K	D	D
K	K	U	T	U	B	X	O	N	A	S	K
A	Q	Z	A	X	O	D	G	J	F	A	O‘
T	M	A	K	T	A	B	O	G‘	Ch	A	Ch
s	A	R	T	A	R	O	SH	X	O	N	A
P	T	T	U	K	V	E	X	U	Ch	Q	V
N	O	V	V	O	Y	X	O	N	A	G	Y
J	L	V	D	O‘	K	O	N	P	N	Y	J
H	CH	O	Y	X	O	N	A	T	B	L	X

Mustaqil ish

Mahallangizdagi o‘zingiz yoqtirgan bino va inshootlar haqida ma’lumot to‘plang.

MEHMONDO‘STLIK

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Nima uchun mehmonga o‘z vaqtida borish kerak?
2. Yangi damlab keltirilgan choy nima uchun qaytariladi deb o‘ylaysiz?
3. Dasturxonga kim birinchi qo‘l uzatadi?
4. Mezbonlik qilganda nimalarga ahamiyat berasiz?
5. Yana qanday mehmondorchilik odoblarini bilasiz?

2. O‘qing.

– Alisa, bugun Nodira xolamnikiga mehmonga boramiz.

- Bizning borishimizni xolang biladimi?
 - Yo‘q, bizda qarindoshlarnikiga mehmonga borishdan oldin aytib o‘tirishmaydi.
 - Juda zo‘r-ku!
 - U yerga oyim tikkan ko‘ylaklarni kiyib boramiz. Atlas ko‘ylak senga juda yarashsa kerak.
 - Menga ham tikdilarmi? Qani, ko‘ray-chi...
- Voy, buncha chiroyli!
- Bu senga sovg‘a!
 - Rostdanmi? Bilasanmi, Sevara, menga eng yoqqan sovg‘a shu bo‘ldi. Rahmat!
 - Yoqqanidan xursandman. Endi shirinliklardan olaylik.
 - Nega?
 - Chunki mehmondorchilikka quruq borib bo‘lmaydi. Bizda urf-odat shunday.
 - Ajoyib urf-odatlaringiz bor ekan!



3. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Alisaga Sevaraning onasi tikkan atlas ko‘ylak yoqmadi.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri
2. Sevaraning onasi bilan Nodira xola – opa-singil.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri
3. Mehmona borishdan oldin mezbonni ogohlantirish kerak.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri
4. Odatda mehmondorchilikka quruq qo‘l bilan borilmaydi.
 - A. To‘g‘ri.
 - B. Noto‘g‘ri

mehmondorchilik
ko‘ylak
sovg‘a
atlas
urf-odat

DIQQAT QILING

..., shuning uchun
..., shu sababli

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Atlas ko'yak Alisaga juda yoqdi, shuning uchun mehmondorchilikka shu ko'ylagini kiyib bordi.

1. Atlas ko'yak Alisaga juda yoqdi, ... mehmondorchilikka shu ko'ylagini kiyib bordi.
2. Mehmonga quruq qo'l bilan borilmaydi, ... Alisa va Sevara shirinliklar olib bordi.
3. Dasturxonagi taomlarga oldin kattalar qo'l uzatishadi, ... qizlar Nodira xolaning ovqatdan olishini kutib turishdi.
4. Alisa va Sevara uy yumushlariga ko'maklashdi, ... Nodira xola ulardan juda xursand bo'ldi.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Mehmon izzatda,	_____	chirog'i ravshan.
Mehmon kelar eshikdan,		mehri-diling keng bo'lsin.
Mehmonxonang tor bo'lsa ham,		shirin so'zing bo'lsin.
Shirin oshing bo'lmasa,	→	mezbon xizmatda.
Mehmon kelgan uyning		rizqi kelar teshikdan.

Mustaqil ish

Mehmon uchun dasturxon tuzash ketma-ketligini yozing.

YON QO'SHNI – JON QO'SHNI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.



1. Ahmad nima uchun uyini sotmoqchi bo'ldi?
2. Nimaga u uyini yuqori narxda baholaydi?
3. Ahmadning gaplarini eshitgan xaridor nima deydi?
4. Voqeadan xabar topgan Abdulloh qanday yo'l tutadi?

DIQQAT QILING

..., chunki

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Bir kuni Ahmad uyini sotishga qaror qildi, chunki u pulga muhtoj bo'lib qoldi.

1. Bir kuni Ahmad uyini sotishga qaror qildi, chunki ...
2. Uyimning narxini qimmat aytyapman, chunki ...
3. ..., chunki qo'shnisi pulga ehtiyoj sezib qolganini undan yashirgandi.
4. ... , chunki men doim siz bilan qo'shni bo'lib qolishni xohlayman.
5. ... , chunki Abdullohdan qo'shnisi bor.

3. O'qing.

Qo'shnichilik odoblari

O'zbek xalqida "Gilam sotsang, qo'shningga sot, chunki bir chetida o'zing o'tirasan", "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shning afzal" degan maqollar bor. Odamlar azal-azaldan qo'shni bo'lib yashaydilar, shuning uchun ular orasida mehr-oqibat yo'qolib ketmagan. Qo'shnilar qo'shnisi biror joyga ketsa, uyini o'zinikiday muhofaza qilib turadi. Muhtojlik sezsa, yordam beradi. Bemor bo'lsa, holidan xabar oladi. Maslahat so'rasha, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Uning bilmagan narsasini o'rgatadi. Qo'shnisining xursandchiligidan xursand bo'ladi, qiyin vaziyatlarida yonida turadi. Bular – qo'shnilar o'rtasida lozim bo'lgan odoblardir.



4. O'ylang va toping, gapiring. ✓ ✗

Qo'shnilar	uyini o'zinikiday muhofaza qilib turadi.	✓
	muhtoj qoladigan bo'lsa, yordam beradi.	
	bemor bo'lsa, holidan xabar olmaydi.	
	maslahat so'rab chiqqan bo'lsa, to'g'ri yo'l ko'rsatadi.	
	qo'shnining xursandchiligidan xafa bo'ladi.	

mehr-oqibat
muhofaza qilmoq
muhtoj
maslahat
musibat
dinor

5. O'ylang va toping. Yozing.

Ot (1 ta)	Qo'shni
Sifat (2 ta)	
Fe'l (3 ta)	
Gap (4 so'zdan iborat)	
Sinonim (1 ta)	

Mustaqil ish

Yon qo'shningiz haqida ma'lumot (ismi, yoshi, kasbi) yozib keling.

MAHALLA BO‘YLAB

1. O‘qing va savollarga javob bering.

Mahallamiz qadimdan hunarmandlar maskani sifatida dovrug taratgan, shuning uchun sayyoohlar ko‘p keldi. Ayniqsa, do‘ppido‘zlik, beshiksozlik, tikuvchilik, milliy choponlar tayyorlash, yog‘ochdan turli buyumlar yasash kabi hunar turlari juda rivojlangan. Bizning ko‘chamizda asosan yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘ullanadigan hunarmandlar yashaydi. Bu hunarmandlar mahsulotlariga xorijda ham qiziqish katta, shuning uchun ular sifatli mahsulotlar tayyorlashadi.



Mahallamizda milliy uslubda, ko‘rkam va muhtasham “Hunarmandlar markazi” qad rostladi. Yaqinda mazkur markaz foydalanishga topshirildi.



Bu yerda hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastasi, mo‘jazgina do‘ppido‘zlik va yog‘och o‘ymakorligi muzeyi barpo etildi. Bundan tashqari, mehmonxona, milliy uslubdagi choyxona qurilyapti, shuning uchun ish qizg‘in davom etmoqda.

1. Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin?
2. Nima uchun bu mahallaga sayyoohlar ko‘p keladi?
3. Bu mahallada qanday hunarmandchilik turlari rivojlangan?
4. Sizning mahallangizda qanday kasb egalari istiqomat qiladi?

2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

Hududlar	Zardo‘zi	Piltado‘zi	Gilam do‘ppi	Patdo‘zi	Takya
Samarqand					
Buxoro	+				
Shahrisabz					
Xorazm					
Surxondaryo					

DIQQAT QILING

..., shuning uchun

dovruq taratmoq
do'ppido'zlik
beshiksozlik
yog'och o'ymakorligi
milliy uslub
muhtasham
savdo rastasi

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Do'ppi o'zbek milliy kiyimining ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun o'zbek xalqining hayoti va an'analariga chuqur kirib borgan.

1	Do'ppi o'zbek milliy kiyimining ajralmas qismi hisoblanadi.	A	Juda chiroyli ko'rindi.
2	Tayyor do'ppi ustidan ipak, zar yoki kumush ip bilan kashta tikiladi.	B	Xorijda bu mahsulotlarga qiziqish katta.
3	Gilamdo'zlar tabiiy mahsulotlardan nafis gilam to'qiydi.	D	Ular o'z rangini yo'qotmaydi.
4	Gilamga ishlatalidigan bo'yoqlar giyohlardan olinadi.	E	O'zbek xalqining hayoti va an'analariga chuqur kirib borgan.

4. O'ylang va toping. Yozing.

Kasb-hunar

O'qituvchi

Gilamdo'z

gilamdo'z,
o'qituvchi, hisob-
chi, zargar, chi-
langar, shifokor,
duradgor, dastur-
chi, payvandchi,
haydovchi,
arkitektor, kulol

Mustaqil ish

Mahallangiz haqida 3 ta fakt yozing.

HASHAR ELGA YARASHAR

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.



1. Tezkorlik bilan bajarish zarur bo'lgan ishlar hashar yo'li bilan amalgalashirilgan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Toshkentda ro'y bergan zilzila oqibatida umumxalq hashari o'tkazish an'anaga aylanmagan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Hasharda faqat yoshlardan ishtirok etadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
4. Hashar – mehr-oqibat ramzi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

2. O'qing.

Necha yuz yillardan buyon davom etib kelayotgan an'analarga ko'ra hasharda tozalik, ozodalik ishlari bajariladi. Bu tadbir ko'pchilikni birdamlikka, ahillikka va mehr-oqibatga undashi bilan ajralib turadi.

Kuni kecha bizning mahallada ham hashar bo'lib o'tdi. Mahallamizni obod qilishga hissa qo'shish uchun deyarli har bir xonadondan odam chiqdi. Ko'pchilik bo'lib mahallamiz hovlisini supurdik. Yerlarni o't, xas-xashak va chiqindilardan tozaladik. Daraxtlarni oqlab, yangi

gul va daraxt ko‘chatlari o‘tqazdik. Ariq va zovurlarni tozaladik. Mahallamiz yigitlari birgashib yerga ishlov berdik. Hashar shodon kayfiyatda kechdi.

“Hashar – elga yarashar” degan naql bejiz aytilmaganiga ishonch hosil qildik.

3. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Hashar nima maqsadda o‘tkaziladi?
2. Hashar insonlarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi?
3. Siz ham hasharda qatnashasizmi?
4. “Hashar – elga yarashar” maqolini qanday tushunasiz?
5. Mahallangizda o‘tkaziladigan hasharlar haqida aytib bering.

DIQQAT QILING

..., negaki

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Hammamiz xursand bo‘ldik, negaki mahallamiz yanada obod bo‘ldi.

Namuna:

O‘scha paytlarda ekinlarning bo‘yi 40–50 santimetr bo‘lgan, chunki ularni sug‘orishga suv bo‘lmagan.

1. O‘scha paytlarda ekinlarning bo‘yi 40–50 santimetr bo‘lgan. Ekinlarni sug‘orishga suv bo‘lmagan.
2. Iyul oyining oxirlarida dehqonlar xursand bo‘ldi. Katta Farg‘ona kanali qazilishi va yurtga suv kelishi xabari chiqqan edi.
3. Kanal qisqa muddatda qazib bitkazildi. Hasharchilar shijoat bilan ishladi.
4. Bugun ham shahar va qishloqlarda hashar o‘tkazib turiladi. Bu milliy an‘analarimizdan biridir.

Mustaqil ish

Mahallangizda o‘tkazilgan hashar haqida ma’lumot yozing.

FRENKINING KUNDALIGIDAN

1. O'qing.

24-iyun. Do'stim Suhrobning taklifi bilan O'zbekistonga keldim. Suhrobning mahallasi-da ko'chalar juda fayzli ekan. Qizlar va ayollar hovlilarni supuradi. Hamma bizga iliq munosabatda bo'ladi. Qayerga borsak, "O'tiring, choylashib ketasiz", deyishadi.

"Hashar" degan so'zni men ilk bor shu yerda eshitdim. Umumiy hashardan keyin Halim amakining uyiga bordik. U yerda lo'mboz bosishayotgan ekan. Biz ham Suhrob bilan toonga loy chiqarishga yordam berdik, shuning uchun ust-boshlarimiz loy bo'lib ketdi. Lekin hamma xursand edi. Hashardan keyin osh pishirib, bizni mehmon qilishdi. O'zbek palovi bunchalik mazali bo'ladi deb o'ylamagan edim.

Suhrobnинг sinfdosh do'stlari bilan mahalladagi, urushda qatnashgan otaxonlardan biri Mirsharif bobodan xabar olishga bordik. Mirsharif bobo bizni ko'rib xursand bo'lib ketdi. Yoshlik xotiralaridan gapirib berdi. Suhrobdan nimaga bu yerga kelganimizni so'rasam, u shunday dedi: "Bizda odat shunday, keksa insonlardan xabar olib turamiz".

Mahallada qurilgan katta kutubxona hammaning sevimli joyi ekan. Uni shu mahallada voyaga yetgan, hozir shaharda tadbirkor bo'lib ishlayotgan Akram aka o'z hisobidan qurib, bolalarga sovg'a qilgan ekan.

Bugun xayrلashamiz. Men bu yerkirga o'rganib qoldim. Chunki samimiy insonlar davrasida bo'ldim. O'z yurtimga borganda o'rtoqlarimga taassurotlarimni so'zlab beraman. O'zbekiston sehrli va sirli diyor deganlaricha bor ekan!..



2. Savollarga javob bering.

1. Frenki nima uchun Toshkentga keldi?
2. Lo'mboz bosish deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalar nima uchun Mirsharif boboning uyiga bordilar?
4. Akram aka bolalarga nega kutubxona qurib berdi?

**osoyishta
hashar
xotira
voyaga yetgan
samimiy
taassurot
sehrli**

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Tushunchalar	Izohlar
Lo‘mboz	Devor yoki tomga loy bosish
Hashar	
Mahalla	

4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qo‘sinq nima haqida?
2. Qo‘sinqda mahalla qanday tasvirlangan?
3. Qo‘sinqda mahallaga nisbatan qanday sifatlar qo’llangan?
4. Mahallangizdagi qaysi joylar sizga yoqadi? Nima uchun?

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Hovli olma,	_____	qo’shning yaxshi bo’lsa, yaxshilik kel-tirar.
Qo’shning tinch –		ota-onang.
Qo’shning yomon bo’lsa, yomonlik keltirar;	→	qo’shni ol.
Mahallang –		yaqindagi qo’shni yaxshi.
Uzoqdagi qarindoshdan		sen tinch.

Mustaqil ish

Bugungi kun uchun kundalik yozing.

ADABIY O‘QISH

QARZ

Bir kuni gapdan gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:

– Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo‘yyapsiz? Sandiqqa bositapsizmi?

– Sandiq qatta, bolam? – deb kuldi onam. – Qarzlarim bor. O‘sangha beraman-da.

Akamning qovog‘i osildi:

– Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

– E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?

Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo‘schnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko‘ylak kiyib olibdi.

– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.

– Bugun man tug‘ildim, – dedi u qop-qora ko‘zlarini pirpiratib jilmayarkan.

– Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir... Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.

– Mana, o‘rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

– Men ishkalad yemayman. Tishim tushgan. – Keyin yana o‘scha jiddiy ohangda qo‘shib

qo‘ydi: – Bultur poshsha buvum menga tuqli olib beruvdilar. Tug‘ilganimda.

Qizcha o‘ylanib qoldi.

– Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko‘ylak...

Qo‘limdan konfet tushib ketdi.

O‘tkir Hoshimov,
“Dunyoning ishlari” qissasidan

Savollar:

1. Qarz nima?
2. Qo‘schni qizning ismi nima?
3. Poshsha buvi Bahoga nima sovg‘a qilgan edi?

MENING YURTIM

ONA VATANIM

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Vatan nima?
2. Vatan tuyg'usi faqat insonlarga xosmi?
3. Matnda qaysi xalqlar tilga olinadi?
4. Biz Vatanimizni nima uchun sevamiz?

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Ichan qal'a Ark Telemínora Bog'i shamol
Xudoyorxon o'r dasi Oqsaroy Chilpiq qal'asi Registon



3. O'ylang va toping. Yozing.



Foydalanish uchun so'zlar: Registon maydoni, konussimon, qadimiyl, mustahkam, telemínora, Chilpiq qal'asi, baland, Ark, turli, Ichon qal'a.

Namuna:

Samarqand shahridagi Registon maydoni – juda qadimiyl me'moriy obidalardan biri.

1. Samarqand shahridagi ... juda ... me'moriy obidalardan biri.
2. Toshkentda joylashgan eng inshootlardan biri.
3. Buxoroda joylashgan atrofi devor bilan o'ralgan.
4. Xorazmda qurilgan dunyoning joylaridan sayyoohlar keladi.
5. Qoraqalpog'istonndagi 35 metrli tepalik ustiga qurilgan.

4.O'qing.



Salom. Men Devidman. Fransiyada yashayman. Fransiya – unutilmas taassurotlar makoni. Fransiyaga sayyoohlar juda

ko'p tashrif buyuradi. Ayniqsa, poytaxt Parij dunyoning eng hashamatli shaharlaridan biri hisoblanadi. Mahobatli Eyfel minorasi esa Parijni butun dunyoga mashhur qilgan. Luvr muzeyi ham eng gavjum maskanlardan biridir.



Assalomu alaykum. Mening ismim Malika. Men O'zbekistondanman. Bizning mehmondo'st xalqimiz milliy kiyimlari, mazali taomlari va betakror hunarmandchilik buyumlari bilan har doim turistlarni qiziqtirib kelgan.

Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari yilning har faslida mehmonlar bilan gavjum.



Assalomu alaykum. Mening ismim Esma. Oilamiz bilan Istanbulda yashaymiz. Istanbul – sayyoohlar ning sevimli maskani.

Sayohatchilar juda ko'p keladigan joylar dan biri ulug'vor Ayo Sofiya maydonidir.

Istanbulning ramzlaridan biri – Galata minorasi shaharning barcha joyidan ko'rinish turadi.



Assalomu alaykum. Mening ismim Mahmud. Tojikistonda yashayman. Dushanbeda ta'lim olaman. Yurtimizga kelgan mehmonlar har doim xursand bo'lib qaytadi. Poytaxtda Rudakiy bog'i, Ismoil Somoniy maydoni – sayyoohlarning sevimi li joyi. Maydonga davlatimiz bayrog'i o'rnatilgan bo'lib, balandligi bo'yicha 2-o'rinda turadi.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Esma Istanbulda do'stlari bilan yashaydi.	
2	Ayo Sofiya va Galata minorasi juda mashhur.	
3	Malikaning yurtiga ko'plab sayyoohlar keladi.	
4	Malika Luvr muzeyi haqida gapirdi.	
5	Mahmud poytaxtda o'qiydi.	
6	Eng baland bayroq Dushanbeda joylashgan.	

Mustaqil ish

Sizga gidlik vazifasi topshirildi. Sayyoohlarni olib bormoqchi bo'lgan joylaringiz haqida taqdimot tayyorlang.

TRANSPORT

1. O‘ylang, toping va yozing.



Foydalanish uchun so‘zlar: bekat, aeroport, vokzal, port.



Ahmed bekatda
avtobus kutyapti.

Kema ... ga
yaqinlashmoqda.

Poyezd ...dan
3:15 da yuradi.

Samolyot 20:20 da
...ga qo‘nadi.

2. O‘qing.

Men Solihman. Paroxodda sayr qilishni yoqtiraman. Kemandan atrofni tomosha qilish juda maroqli. Paroxod soat 4:15 da harakatlana boshlasa ham, men erta kelib, atrofni tomosha qilyapman.

Mening ismim Sumayya. Talabaman. Do‘sstarimiz bilan festivalda qatnashish uchun boshqa shaharga ketyapmiz. Poyezdda yurish menga yoqadi. Poyezd soat 17:40 da harakatlanishi boshladi. 8 soatdan keyin biz manzilga yetamiz.

Men Fridrixman. Bizning samolyotimiz hozirgina havoga ko‘tarildi. Avval biroz silkindi, keyin bir tekis ucha boshladi. Samolyotimiz 3 soat parvoz qilar ekan.

Men Danielman. Ustozimiz va sinfdoshlarimiz bilan avtobus bekatida turibmiz. 15 daqiqadan so‘ng avtobus yuradi. Avtobusda sayohat qilishni yoqtiraman.

3. O‘ylang va toping. Gapiring. Ha/yo‘q ✓ ✗

1	Sumayya chiqqan poyezd manzilga soat 2:40 da yetib boradi.	✓
2	Fridrix aeroportga 3 soatdan keyin yetib boradi.	
3	Solih aeroportga ertaroq kelib, atrofni tomosha qilardi.	
4	Daniel va sinfdoshlari o‘tirgan avtobus 15 daqiqadan so‘ng portdan jo‘nab ketadi.	
5	Samolyot yuqoriga ko‘tarilishdan avval yengil titraydi.	
6	Paroxodda suvni tomosha qilish maroqli.	

4. Tinglang. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Birinchi avtobus 1895-yil Germaniyada paydo bo'lgan.

1	Birinchi avtobus	A	barcha uchun mo'ljallangan transport.
2	Avtobus va metrolar	D	bir paytning o'zida hammaga teng xizmat ko'rsatadi.
3	Metroning vatani –	E	Toshkent metrosi ish boshlagan.
4	Jamoat transporti	F	London.
5	1977-yili	G	1895-yil Germaniyada paydo bo'lgan.

DIQQAT QILING

Men	-man	Biz	-miz
Sen	... + yap	Siz	... + yap
U	-san -ti	Ular	-siz -tilar

avtobus
metro
samolyot
kema
suzmoq
parvoz qilmoq
havoga ko'tarilmoq
chipta

5. O'ylang va toping. Yozing.

 Foydalanish uchun so'zlar: mikroavtobus, kema, poyezd, samolyot, mashina.

Namuna:

Dam olish kuni do'stlarimiz bilan mikroavtobusda sayohatga chiqyapmiz.

1. Dam olish kuni do'stlarimiz bilan ... sayohatga chiq.... .
2. ... pastlab uch.... .
3. ... dengizda suz.... .
4. Ular tog'ga ... ket... mi?
5. Siz shaharga ... ketishni istama ...mi?

6. O'ylang, toping va gapiring. Mumkin/mumkin emas



Mustaqil ish

Transport vositalarida harakatlanish odobi haqida matn yozing.

FESTIVALLAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Dunyoda qanday festivallar o'tkaziladi?
2. Bunday tadbirlar nima maqsadda o'tkaziladi deb o'ylaysiz?
3. Sizga qanday festivallar yoqadi?
4. O'zbekistonda qanday festivallar o'tkazilib keladi?
5. Siz qanday festivalda qatnashishni xohlaysiz? Nima uchun?

2. O'qing.

Qo'qon – hunarmandlar shahri

Qo'qon shahrida Butunjahon hunarmandlar festivali o'tkazildi. Turli mamlakatlardan va boshqa viloyatlardan sayyoqlar, hunarmandlar tashrif buyurdi. Mehmonlar turli xalqlarning hunarmandchilik buyumlari bilan tanishdi. Festival barchaga yoqdi.



Xalqning asl taronalari

Samarqandning qadimiy Registon maydonida har ikki yilda "Sharq taronalari" festivali bo'lib o'tadi. Bu festivalga ko'p davlatlardan ishtirokchilar va mehmonlar keladi. Har bir qatnashchi o'z xalqining milliy kuy va qo'shiqlarini taqdim etadi. Bayram bir necha kun davom etadi.

3. O'ylang, toping va gapiring.

1	Samarqandning qadimiy Registon maydonida	A	Qo'qon shahrida o'tkazildi.
2	Qo'qon festivalida	B	mehmonlar hunarmandchilik buyumlari bilan tanishdi.
3	"Sharq taronalari" festivali	D	bir necha kun davom etadi.
4	Samarqand festivali	E	"Sharq taronalari" festivali bo'lib o'tadi.
5	Butunjahon hunarmandlar festivali	F	har ikki yilda o'tkaziladi.

4. O'ylang va toping. Yozing.



festival
 tanlov
 ko'rgazma
 masterklass
 qiziqarli
 ajoyib
 tashkil qilinmoq
 o'tkazilmoq

1. Havoda ziravorlarning xushbo'y hidi anqimoqda – Ziravorlar festivali.
2. Gulchi bog'bonlar o'z gullarini ko'rsatmoqda –
3. Festival bahor faslida tabiat qo'ynida o'tkaziladi –
4. Mahoratlari oshpazlar palov pishirish bo'yicha mahorat darsi o'tmoqda –
5. Ko'rgazmada mahalliy va xorijlik baxshi-shoirlar taqdirlandi –

DIQQAT QILING

Men	-man	Biz	-miz
Sen	... + y/a	Siz	... + y/a
U	-di	Ular	-siz -dilar

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Festivallar butun dunyoda o'tkaziladi.

1. Festivallar butun dunyoda o'tkazil...
2. Mavzusi har xil bo'lsa-da, ularni do'stlik-birodarlik, xursandchilik, o'yin-kulgi, musiqa birlashtir.... .
3. "Sharq taronalari" festivalida ishtirokchilar o'z xalqining milliy kuy va qo'shiqlarini kuy...
4. Namanganda o'tkaziladigan "Gullar bayrami"da atrof gullarga burkan.... .
5. Kelajakda men xalqaro festivallarda ishtirok etishni xohla...

Mustaqil ish

O'zingiz qatnashishni istagan festival uchun reklama e'lonini tayyorlang.

NAVRO‘Z SAYLI

1. Tinglang. Moslashtiring va gapiring.

1	Navro‘z –	A	xushbo‘y va vitaminlarga boy.
2	Sumalak –	B	ulug‘ milliy bayram.
3	Yalpiz	D	bolalarga chaqqon, uddaburon, jismonan sog‘lom bo‘lishda yordam beradi.
4	Ko‘k somsa –	E	eng sevimli taomlardan biri.
5	Xalq o‘yinlari	F	oila a’zolarimizning sevimli taomi.

yangi kun
 bag‘rikenglik
 qon-qardoshlar
 noz-ne’matlar
 tetiklashtirmoq
 yalpiz
 sumalak

2. O‘qing.

Navro‘z

Navro‘z O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiyligi va umumiy bayramidir. U fors-tojik va turkiy xalqlarning qadimiyligi bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, kun va tun teng bo‘lgan paytga to‘g‘ri keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Navro‘zning shakllanish davri eng qadimgi zamonlardan zardush-tiylik paydo bo‘lgan davrlargacha davom etgan. Navro‘z so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, “yangi kun” degan ma’noni bildiradi.



Qadim-qadimdan Navro‘z turkiy xalqlarning sevimiyligi bayrami bo‘lib kelgan. Bayram kunlari hatto urush-janjallar ham to‘xtagan, gina-kuduratlar unutilgan. O‘zbek xalqi azaldan bu bayramni do‘st-u yaqinlari, qon-qardoshlari bilan birga nishonlab kelgan.



3. Savollarga javob bering.

1. Navro‘z qanday bayram?
2. Nima uchun O‘rta Osiyo xalqlari Navro‘zni katta tantanalar bilan nishonlaydi?
3. Navro‘z saylida qatnashganmisiz?
4. Bayram saylida qanday milliy urf-odatlarning guvohi bo‘lgansiz?
5. Navro‘zda qanday milliy taomlar tayyorlanadi?

4. O‘ylang, toping va yozing.



Sumalak pishirish



Varrak uchirish



Arqon tortish



Kurash



Dorbozlik

Namuna:

1. Sumalak tayyorlash maroqli, chunki unda kuy-qo‘sniq va o‘yin-kulgi bo‘ladi.

2.

3.

4.

5.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

S	F	F	P	O	N	O	R	I	N	J
A	S	S	U	M	A	L	A	K	S	F
S	O	T	K	L	V	A	R	R	A	K
H	M	U	D	O	R	B	O	Z	V	U
T	S	I	G	F	O‘	T	O	V	N	R
Y	A	L	P	I	Z	Q	R	T	O	A
B	V	CH	I	L	L	A	K	U	I	SH

Mustaqil ish

Sumalakning tayyorlanish jarayoni haqida 30–50 so‘zdan iborat matn yozing.

YOQIMLI ISHTAHА

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.



1	Mamlakatlar milliy taomlari bilan ham dunyoga tanilishi mumkin.	
2	O'zbek milliy palovi UNICEF nomoddiy madaniy meroslari ro'yxatiga kiritildi.	
3	O'zbek xalqi barcha taomlarni "osh" deb ataydi.	
4	Arafada qo'shnisini kira olib chiqqan bolalarga hayitlik beradilar.	
5	Palov O'rta Osiyodan tarqalgan bo'lishi mumkin.	
6	Usta oshpazlarning aytishicha, palovning 1000 xil turi bor ekan.	

milliy taom
pishirmoq
xizmat qilmoq
oshxo'rlik qilmoq
gavjum
xushmuomala
chaqqon

2. O'ylang va toping.Yozing.

Namuna:

1) spaghetti; 2)...

cheburek



1

spaghetti



2

pide



3

beshbarmoq



4



5



6



8



9

somsa

sushi

chuchvara

manti

3. O'qing.

Ajoyib osh markazi

Mening ismim Yilmaz. Biz Turkiyadan O'zbekistonga mehmon bo'lib keldik. Oilamiz bilan Toshkentning gavjum yerida joylashgan osh markaziga bordik. Do'stlarimiz juda maqtashgandi, haqiqatan juda ajoyib joy ekan. O'rtada katta qozonda 1 tonnali, uning yonida yana 5 ta kichikroq qozonda osh pishirilmoqda. Osh yeishga keluvchilar juda ko'p edi. Chunki ozoda bu maskanning sarishta ishchilari juda chaqqon va xushmuomalalik bilan xizmat qilyapti. Bizni ham kulib kutib olgan Sardor aka ichkariga boshladи. Bu yerga bizdan boshqa ham ko'p turistlar tashrif buyur-gan ekan. Yam-yashil maysa va gullar, milliy hunarmand-chilik buyumlari bilan bezalgan xonalar juda chiroyli ekan. Katta laganda olib kelingan osh ishtahamizni ochib yubordi. Palovga qizil va sariq sabzi, no'xat, mayiz, zira betakror ta'm bermoqda. Biz maza qilib oshxo'rlik qildik, rasmga tushdik. Bu ajoyib osh markazi menda juda yaxshi taassu-rot qoldirdi.



4. Savollarga javob bering.

1. Osh markazining ko'rinishini tasvirlab bering.
2. Nima uchun bu yerga sayyoohlar ko'p keladi?
3. Mehmonlarga palov yoqdimi?
4. Palovga qanday masalliqlar solinadi?
5. Siz ham o'zingizga yoqqan shunday maskan haqida gapirib bering.

DIQQAT QILING

Men	-man	Biz	-miz
Sen	... + moqda	-san	Siz
U	-	Ular	-siz

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Osh markazida katta qozonlarda turli xil osh pishirilmoqda.

1. Osh markazida katta qozonlarda turli xil osh pishiril.... .
2. Mohir oshpazlar mazali oshlarni mehr bilan idishlarga suz.... .
3. O'zbek milliy libosidagi xodimlar mehmonlarga chaqqonlik bilan xizmat ko'rsat.... .
4. Biz oila a'zolarimiz bilan chiroyli va shinam xonada oshxo'rlik qil.... .

Mustaqil ish

Oilangizdagilar yordamida palov tayyorlashning ketma-ketligini yozing.

ILM-FAN INSHOOTLARI

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	Teleskop astronomlar uchun asosiy ish quroli sanaladi.	
2	Yevropalik va rossiyalik astronomlar katta teleskopni qurish uchun joy izlaydi.	
3	Osmon jismlarini kuzatishda faqatgina teleskopning hajmi muhim.	
4	Har xil tog'larda izlanishlar 10 yil davom etdi.	
5	Ulkan teleskop ham noqulay joyga o'rnatilsa, olis yulduzlarni ko'rsata olmaydi.	
6	Qashqdaryo viloyatining Kitob tumani yaqinida Maydanak rasadxonasi qurildi.	

rasadxona
ilmiy inshoot
teleskop
komet
asteroid
tejamoq
tashrif buyurmoq

2. O'ylang, toping va yozing.

Namuna:

Aylananing markazidan o'tib, uning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq – diametr. Ko'zgusining diametri 1,5 m bo'lgan teleskop observatoriyaning asosiy qurilmasidir.



1. Ko'zgusining ... 1,5 m bo'lgan teleskop observatoriyaning asosiy qurilmasidir.



2. ... yilda mashhur Hartli kometasi aniqlandi.

3. 2007-yili bu teleskop yordamida ... sayyorasi kashf qilindi.

4. Koinotda "O'zbekiston", "...", "...", "Beruniy" va "..." deb nomlangan osmon jismlari ham bor ekan.

5. Maydanak observatoriyasida jami ... ta yangi kometa va 80 ta asteroid topildi.

1. Aylananing markazidan o'tib, uning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq bu – ...



2. O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgan yil – ...

3. Registon maydoni joylashgan shahar – ...

4. "Tib qonunlari" asari muallifi – ...

1018 ta yulduzni aniqlagan astronom – ...

Algebra faniga asos solgan buyuk vatandoshimiz – ...

5. Yil fasllari soni – ...

DIQQAT QILING

Men	-man	Biz	-miz
Sen	... + yap	Siz	-siz
U	-ti	Ular	-tilar

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:*Maydanakda turli mamlakat olimlari ilmiy izlanishlar olib boryaptilar.*

1. Maydanakda turli mamlakat olimlari ilmiy izlanishlar olib bor.... .
2. Akrom teleskop yordamida yulduzlarni kuzat.... .
3. Biz astronomiya, fizika, geografiya fanlarini qiziqib o‘rgan.... .
4. Siz tabiiy resurslarni tejash uchun qanday ishlarni amalga oshir...?
5. Men lupa, oyna va quyosh nuri vositasida ishlaydigan qurilma yasa.... .
6. Astronomlar yangi sayyoralarni kashf qil.... .

4. O‘qing.

Dunyodagi eng noyob laboratoriyalardan biri Katta Quyosh pechidir. U Toshkent viloyatida joylashgan. Bunday inshoot dunyoda 2 ta bo‘lib, yana biri Fransiyada joylashgan. Bu qurilma elektr energiyasini tejash va Quyosh energiyasidan unumli foydalanish maqsadida yaratilgan. Quyosh nuri yasalgan buyumlarni qizdiradi va ishlov beradi. Hozir bu maskanga juda ko‘p sayyoohlar va tadqiqotchilar o‘rganish uchun tashrif buyurmoqda.



5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Katta Quyosh pechi	A	o‘rganish uchun kelmoqda.
2	Bu qurilma	B	yana Fransiyada bor.
3	Quyoshdan kelayotgan energiyadan	D	elektr energiyani tejaydi.
4	Tadqiqotchilar va sayyoohlar	E	Toshkent viloyatida joylashgan.
5	Katta Quyosh sandoni	F	faqt ikki mamlakatda bor.
6	Bu laboratoriyalardan biri	G	unumli foydalaniladi.

Mustaqil ish

Ulug‘bek rasadxonasi haqida taqdimot tayyorlang.

YURTIMIZDAGI TEATRLAR

1. O'ylang va toping. Gapiring.



1



2



3



4

1	O'zbek milliy akademik drama teatri	
2	Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatri	
3	Respublika yosh tomoshabinlar teatri	
4	O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri	

teatr
repertuar
aktyor
rejissyor
grim ustasi
afisha
rol
tomoshabin

2. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Qoravoy borgan payt boy nima qilayotgan edi?

2. Shum bolaning yolg'onlarini sanab bering.

3. O'z yolg'oni oqibatida Qoravoy qanday ahvolga tushadi?

4. Siz ham yolg'on gapirganmisiz?



3. O'qing.

Teatr san'ati hayotni, voqeal-hodisalarini, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Bunda yozuvchi yozgan pyesa yoki boshqa dramaturgik asarlarga tayaniлади. Pyesani rejissyor sahnalaşdıradi: rollarni aktyorlarga taqsimlab beradi, ular bilan mashqlar o'tkazadi, rassom, liboschi, pardozchi va boshqalar bilan ish olib boradi. Shu tariqa, ko'pchilik bo'lib tayyorlangan sahna asari tomoshabinlarga ko'rsatiladi.

O'zbek milliy akademik drama teatri O'zbekistondagi eng birinchi va katta teatr – "Turon" negizida paydo bo'lgan. Bugun yurtimizda o'ttizdan ortiq teatr faoliyat yuritmoqda.

4. O'ylang va toping. Yozing.

1	Rejissyor	A	eskizlar asosida badiiy obraz yaratadi.
2	Rassom	B	o'z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe'l-atvori, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi.
3	Pardozchi	D	boshqaruvchi, pyesani tanlaydi, aktyorlarga rollarni bo'lib beradi.
4	Aktyor	E	ijrochi qiyofasini rolga moslab o'zgartiradi.

5. O'ylang va toping. Yozing.



Foydalanish uchun so'zlar: yosh tomoshabinlar, hashamatli va shinam bino, sevimli qahramon.

Teatr

Ot

Sifat

qahramon

sevimli

Mustaqil ish

O'zingiz istagan birorta rolni ijro qilib bering.

ADABIY O'QISH

“HELLADOS” *hikoyasidan parcha*

O'sha kuni Yanguli sut opkeldi. Hovlida unga ko'zim tushdi-yu... taniyolmay qoldim.
Basharasi momataloq bo'lib ketgandi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radim ajablanib.

Aql bovar qilmasdi – bu atrofda Yanguliga kim qo'l ko'tarishi mumkin?! Yoki birorta katta-roq yoshdagi odamning ishimikin bu?

- Hech narsa! – dedi u chetga qarab.
- Aftingni bir qaragin...
- Hechqisi yo'q! – deya jilmaydi u.
- Kim ekan u mushtumzo'r?!
- Otam!
- Otang?
- Otam.
- Nima gunoh qiluvding? – deya uning shishib ketgan chakkasiga avaylab qo'limni tekkazdim.
- Sababi bor-da...
- Nima ish qilib qo'yding?
- Uch kundan keyin Suxumiga Gretsiyadan paroxod keladi. Bu yerlik greklar Elladaga qaytishyapti. Otam ham....
- Xo'sh nima qipti?
- Ketmoqchi emasman... Otamning gapiga qaraganda, bizning vatanimiz, ona tuprog'imiz o'sha yerda... Bizni ajdodlar ruhi chaqirayotganmish, bu nidoga quloq solish shart emish...
- Nega ketmoqchimassan? – deb so'radim astoydil taajjublanib. Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi.
- Qandoq tushuntirsamikin... – deya gap boshladи u nihoyat. – Onam yo'q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko'chada, Venetsian ko'chasida katta bo'ldim... Mening vatanim, menin Elladam bu – Suxumi, ko'cha, Chalbash; bu – Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko'prik... – U bir yutinib olib, davom etdi: – Bu Mida, qolaversa, sen... Tushundingmi endi?

A'zoyi badanim jimirlab ketdi. Bunaqa so'zlarni birinchi marta eshitayotgan edim.

– Bu nima bo'lmasa? – Men Yangulining ko'kragini ochib baland ovozda o'qidim – Hellados.

– Bu naqsh, Jamol. Vatan ichkariroqda, naq yurakning o'zida!

Nodar Dumbadze

Savollar:

- 1) Yangulining gunohi nima edi?
- 2) Sizningcha, Yanguli haqmi yoki otasimi?
- 3) Nega Jamolning a'zoyi badani jimirlab ketdi?
- 4) Yangulining Vatanga bergen ta'rifiga munosabatingizni bildiring. Siz uchun Vatan bu – ...

BIZNING SAYYORA

KOINOTGA SAYOHAT

1. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.



1	Quyosh, sayyora, Yer, inson, o’simlik, hayvon – barchasi Koinotdir.	
2	Birinchi sayohat Oyga boshlangan.	
3	Kuchuk va mushuk tajriba uchun fazoga yuborilgan.	
4	Sog‘lom va maxsus tayyorgarlikdan o’tgan insonlar samoga sayohat qilishi mumkin.	
5	Yuriy Gagarin Oydan tuproq namunasi va fotosuratlar bilan qaytgan.	

DIQQAT QILING

kerak
... + -sh/-ish + zarur
mumkin

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Men kosmosga parvoz qilishdan oldin juda ko‘p o‘qishim kerak.

koinot
Oy
sayyora
fazo
kosmonavt
uchmoq
parvoz qilmoq

1. Men kosmosga parvoz qilishdan oldin juda ko‘p o‘qishi.... .
2. Sen kosmosda ilmiy-tadqiqot olib bor.... .
3. U yigirma bir soatdan ko‘proq Oyda bo‘lish.... .
4. Kosmonavtlar fazoga uchishdan oldin maxsus ko‘rikdan o‘tish.... .
5. Biz “Koinot olamida” kitobidan qiziqarli ma’lumotlar olish.... .

3. O'qing.

Yupiterning sirti katta hajmdagi bulutlar bilan o'ralgan. U eng ulkan sayyora bo'lib, Yerdan 1300 marta katta.

Marsda atmosfera zikh emas. Bu sayyora har doim yerliklarni qiziqtirib kelgan. Hozirgacha izlanishlar davom etmoqda.

Merkuriy Quyoshga eng yaqin joylashgani uchun cho'g'day qizib turadi.

Quyosh tizimi Quyosh va uning atrofida aylanayotgan barcha kosmik jismlar, sayyoralar, ularning yo'ldoshlari va asteroidlarni o'z ichiga oladi. Ular doimo aylanib turadi.

Muz va changdan iborat halqa o'rabi turadigan sayyora – Saturn.

Uran va Neptun sirtlaridagi harorat pastligi bilan bir-biriga juda o'xshaydi. Chunki ular Quyoshdan juda uzoqda.

Faqat Yerda nafas olsa bo'ladigan atmosfera mavjud.

4. O'ylang, toping va yozing.


Namuna:

Merkuriy Quyoshga eng yaqin sayyora bo'lgani uchun cho'g'day qizib turadi.

1. ... Quyoshga eng yaqin sayyora bo'lgani uchun cho'g'day qizib turadi.
2. Muz va changdan iborat halqa o'rabi turadigan sayyora –
3. ... eng katta sayyora bo'lib, sirti katta hajmdagi bulutlar bilan o'ralgan.
4. Yerliklarni hamisha qiziqtirib kelgan sayyora –
5. Quyoshdan juda uzoqda joylashgan sayyoralar – ... va

5. O'ylang va toping. Gapiring.

M	V	Q	U	Y	O	Sh	Q	A	I
E	L	J	X	Y	E	R	E	V	Y
R	L	H	L	U	R	A	N	E	N
K	J	N	E	P	T	U	N	N	E
U	Q	K	V	I	B	D	G	E	R
R	A	S	A	T	U	R	N	R	H
I	F	O	D	E	Y	U	V	A	S
Y	H	M	A	R	S	P	K	V	D



Mustaqil ish

Sayyoralarning joylashuvi rasmini chizing.

YER SAYYORASI

1. O‘ylang va toping. Gapiring.



	Ma'lumotlar	Ha	Yo'q
1	Faqatgina Yerda hayot bor.		
2	Olimlar uzoq yillardan beri Yerni o'rganadilar.		
3	Quyosh Yer atrofida aylanadi.		
4	Qadimda Yerni toshbaqa ko'tarib turadi deb o'ylashgan.		
5	Birinchi bo'lib Aristotel Yerning dumaloq emasligini isbotlagan.		

2. O'qing.

Ona sayyoramiz taxminan 4,5 milliard yil oldin gaz va tosh parchalaridan iborat bulutlaridan paydo bo'lgan. Million yillar davomida zilzila, vulqon, yomg'ir va shamollar natijasida Yerning qiyofasi o'zgarib turgan. Yerning boshqa sayyoralardan farqi unda hayot borlidigidir. Hayot mavjud bo'lishini ta'minlovchi bir nechta qatlama bor:

- Atmosfera butun sayyoramizni o'rab turgan havo qatlami.
- Biosfera Yer sayyorasidagi tirik mavjudotlarni o'z ichiga oladi.
- Litosfera Yerning asosiy yuza (tosh) qismi hisoblanadi.
- Gidrosfera – yer yuzidagi barcha suvlar, qor va muzliklar qoplami.

Yer sharining iqlimi ayrim joylarda o'ta issiq, ba'zi joylari muzliklardan iborat. Mana shu muhitda bugun qariyb 8 milliard odam va 9 millionga yaqin o'simlik, hayvonot va hasharot turlari istiqomat qiladi.

Har yili 22-aprel sanasida Xalqaro Yer kuni bayram qilinadi. Ushbu kunda turli tadbirlar va aksiyalar o'tkaziladi, ko'chatlar ekilib, ko'chalar, jamoat joylari, tabiiy hududlar tozalanadi.

3. O'ylang, toping va yozing.


Namuna:

- Yer sayyorasining yoshi nechada?
- Yer sayyorasi taxminan 4,5 milliard yoshda.

1. Yer sayyorasining yoshi nechada?
2. Yer sayyorasining boshqa sayyoralardan nima farqi bor?
3. Yer sayyorasining suv qatlami qanday ataladi?
4. Sayyoramizning yuza qatlami nima deyiladi?
5. Xalqaro Yer kuni munosabati bilan qanday tadbirlar o'tkaziladi?

tabiiy yo'ldosh
shar
quruqlik
dumaloq
faraz
ehtiyot qilmoq

4. O'ylang va toping. Gapiring. Mumkin/mumkin emas.




Mustaqil ish

“Yer sayyorasi: kecha, bugun, ertaga” mavzusida 30-50 so‘zdan iborat esse yozing.

Kecha	Bugun	Ertaga
.....
.....
.....
.....

YETTI IQLIM

1. Tinglang va savollarga javob bering.



1. Beruniy nima uchun Ray shahriga boradi?
2. Birinchi marta Oy tutilishini qayerda kuzatadi?
3. Beruniy qaysi fanlar bilan shug‘ullangan?
4. Beruniy nechta asar yozgan va undan nechta siyosiy olim sanaladi?
5. Beruniy nima uchun qomusiy olim sanaladi?

DIQQAT QILING

... -gach,

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Xorazmni Ma’mun bosib olgach, Beruniy Ray shahriga keladi.

1. Xorazmni Ma’mun bosib ol..., Beruniy Ray shahriga keladi.
2. Abu Rayhon Beruniy geodeziyani o’rgan..., bu fan yanada rivojlandi.
3. Olimlar Yer shari meridianini zamonaviy qurilmalar orqali tekshir..., Beruniyning zakovatiga yana bir bor tan berdi.
4. Beruniy asarlarini o‘qib chiq..., geografiyaga qiziqishim yanada ortdi.
5. Tuz suv tubiga cho‘k..., suyuqlikning rangi tiniqlashdi.

3. O‘qing.

Suv Yerda eng ko‘p tarqalgan suyuqlik hisoblanadi. U sayyoramizning 2/3 qismini egal-lagan dengiz va okeanlarda, ko‘l va daryolarda jamlangan. Arktika va Antarktida muzlari ham suvdan iborat.

Sayyoramizda 4 ta okean bor. Bular – Tinch, Hind, Atlantika va Shimoliy muz okeanlari. Tinch okean – eng katta va iliq, Atlantika okeani kattaligi bo'yicha ikkinchi o'rinda va u eng sho'r hamda eng ko'p o'rganilgan; Hind okeani xilma-xil o'simlik va hayvonot dunyosiga boy.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Atlantika okeani kattaligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Suv sayyoramizning 3/2 qismini tashkil qiladi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Eng katta va iliq okean Tinch okeandir.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
4. Eng sho'r va eng ko'p o'rganilgan okean bu – Atlantika.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
5. Hayvonot dunyosi va xilma-xil o'simliklarga boy okean bu – Hind okeani.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

Yer shari
materik
globus
xarita
qomusiy

5. O'ylang, toping va yozing.

- 1) Shimoliy Amerika
- 2) ...
- 3) ...
- 4) ...
- 5) ...
- 6) ...
- 7) ...



Mustaqil ish

O'zingiz yashayotgan hududning geografik xaritasini chizing.



DUNYO XALQLARI

1. O'qing. Savollarga javob bering.

ESKIMOSLAR

Ma'lumki, bugun dunyo aholisi sakkiz milliard kishiga yaqinlashib qoldi. Tadqiqtchilar Yer yuzida uch mingdan to'rt minggacha xalq borligini taxmin qilganlar. Bundan aniqroq raqamni aytish qiyin. Chunki aholi ro'yxati barcha hududlarda o'tkazilmagan. Xitoyliklar bir milliarddan ortiq. Braziliyadagi botokuda va Argentinadagi yamanalar atigi bir necha yuz kishi yoki bir necha o'n kishidan iborat. Yirik xalqlar sayyoramizning ko'pchilik aholisini tashkil etadi. Jumladan, o'n milliondan ko'p bo'lgan yetmishta xalq jami aholining sakson foizini tashkil qiladi. Yirik xalqlar deb xitoyliklar, hindistonliklar, bengallar, turkiyaliklar, ruslar, yaponlarni sanash mumkin.

Dunyo xalqlari turli geografik hududlarda yashaydilar. Har bir xalq o'zi yashaydigan joyning tabiatiga moslashadi. Ba'zi xalqlarning yashash tarzi an'anaviy bo'lsa, ba'zi xalqlarni ki noodatiyidir. Sayyoramizda eskimos degan xalq mavjud. Ularning yashash tarzi juda qiziq.

Eskimoslarni "qahraton odamlari" deb ta'riflaydilar. Chunki ular shimoliy o'lkalarda yashaydilar. Tashqi olam bilan aloqalari juda sust. Eskimoslar – hech kimnikiga o'xshamaydigan hayot tarzi va odatlarga ega kam sonli millat. Ular Grenlandiya oroli, Kanadaning Nunavut hududi, Alyaska oroli va Chukotka yarimorolida istiqomat qilishadi.

"Eskimos" so'zi hindu tilidagi "eskimansig" so'zidan kelib chiqqan. "Eskimansig" so'zi "xom baliq iste'mol qiluvchi odam" degan ma'noni ifodalaydi. Bu millat vakillari eskaleut tilining turli dialektlarida so'zlashadi. Jami vakillari soni 170 ming kishi atrofida.

Eskimoslarning yashash joyi o'ta sovuq o'lkalardir. Shu bois eskimoslar tabiat sharoitlari ga moslashgan holda jon saqlashga harakat qilishadi. Eskimoslar bir necha oiladan iborat jamoalarga birlashgan holda yashaydilar. Asosan umumiy ov quollaridan foydalanishadi va jamoaviy ov qilishadi.

1. 10 milliondan ko'p bo'lgan 70 ta xalq qaysilar? Ular dunyo aholisining qanchasini tashkil qiladi?
2. Eskimoslarga o'xshagan kam sonli xalqlar haqida eshitganmisiz?
3. Nega eskimoslarning tashqi olam bilan aloqasi sust?
4. Nega eskimoslar hozir ham ov qilishadi?

2. Tinglang.

Namuna:

O'zbekistonning poytaxti – Toshkent shahri. O'zbekistonda davlat tili – o'zbek tili.

Ismi	O'lkasi	Yashash joyi	Tili
Nodira			
Farid			
Ameliya			

3. O'qing.

Muxbir: Xush kelibsiz!



Bill: Xush ko'rdik!

Muxbir: Ismingiz nima?

Bill: Ismim Bill.

Muxbir: Qayerdansiz?

Bill: Floridadanman.

Muxbir: Necha yoshdasiz?



Bill: O'n besh yoshdaman.

Muxbir: O'quvchimisiz?

Bill: Ha, Floridadagi xususiy mактабда o'qiyman.

Muxbir: O'zbek tilida gaplasha olasizmi?

Bill: Ha.

Muxbir: Yana qaysi tillarni bilasiz?

Bill: Rus va nemis.

Muxbir: Bir necha tillarni o'rganishdan maqsadingiz nima?

Bill: Xalqlarning urf-odat va madaniyatini o'rganish.

4. Savollarga javob bering.

1. Bill qayerlik?

A) fransiyalik

B) amerikalik

C) finlandiyalik

2. Bill necha yoshda?

A) 13

B) 14

C) 15

3. Bill qayerda o'qydi?

A) mактабда

B) kollejda

C) universitetda

4. Bill qaysi tillarni biladi?

A) nemis

B) o'zbek

C) rus

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Markaziy Osiyo davlatlari va tillari

1 – Qozog'iston Respublikasi/qozoq tili

2 –

3 –

4 –

5 –

Mustaqil ish

O'zingiz istagan mamlakatga virtual sayohat qiling va taassurotlaringiz haqida so'zlab bering.



DUNYO TILLARI

1. O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.

Salom, mening ismim Jamshid. Yoshim o'n beshda. Turkiyadan kelganman. Poytaxtda yashayman. Ona tilim o'zbek tili. Turk tili-da ham bemalol gaplasha olaman. Turk tilidagi badiiy asarlarni o'qishni yaxshi ko'raman.

Hozir ingliz tilini o'rganyapman. Kelajakda Angliyadagi Oxford universitetida o'qimoqchiman.

O'zbekistonga mehmonga keldim. Uning qadimiy va go'zal obidalari menga yoqadi.

Assalomu alaykum, ismim Ayperi. Yoshim o'n to'rtida. Bishkekda yashayman. Qirg'iz tili ona tilim bo'lsa-da, rus va ingliz tillarida bemalol gaplashamani. Fransuz tilini o'rganmoqdaman. Sorbonna universitetida o'qishni istayman.

Chunki fransuz madaniyatiga qiziqaman.



Ismi	O'lkasi	Shahri	Ona tili	Biladigan tili	O'rganayot-gan tili
Jamshid				rus va ingliz tili	
Ayperi		Bishkek			

DIQQAT QILING

... -guncha

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:


Til paydo bo'lguncha odamlar bir-biri bilan imo-ishoralar orqali muloqot qilganlar.

1. Til paydo bo'lguncha ...
2. Singlim ingliz tilini o'rganguncha ...
3. Bolalar to'rt yoshga kirkuncha
4. ... guncha men kitoblarimni o'qib tugatdim.
5. ... guncha tillar rivojlanib bormoqda.

3. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna:

Farzona o'zbekistonlik. U o'zbek tilida gaplashadi.



4. O'ylang va toping. Gapiring.

Tilga ixtiyorsiz –	_____	el biladi.
Odam qancha ko'p tilni bilsa,		yo'lida qolmas.
Til bilgan		shuncha imkonga ega.
Tilni ko'p bilgan	→	elga e'tiborsiz.
Til bilgan		ko'pni bilar.

Mustaqil ish

“Assalomu alaykum” so'zini o'zingiz bilgan tillarga tarjima qiling.

DUNYODAGI TENGDOSHLARIM

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Gapiring.

Joy nomlari	Qoya va yo'laklar	Muzli yo'l	Osma ko'prik	-30 °C sovuq
Hindiston				+
Xitoy				
Indoneziya				

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Singapurda bola muktabga 6 yoshdan qabul qilinadi.

1. Muktabga, Singapurda, qabul qilinadi, 6 yoshdan
2. To'rt yillik, ona tili, birinchi, ingliz tili, o'qitiladi, matematika, fanlari
3. O'qishdan so'ng, ajratiladi, qobiliyatiga ko'ra, to'rt yillik, o'quvchilar, guruhlarga
4. Boradi, Finlandiyada, bolalar, muktabga, 7 yoshdan
5. Ochiqlikda, iliq, mashg'ulotlar, o'tiladi, havoda

4. O'qing.

Yaponiyadagi ta'lif tizimi haqida tengdoshingiz Umarbek Bahodirjonov bilan suhbatlashamiz:

- Salom, Umarbek. O'zingiz va maktabingiz haqida so'zlab bersangiz.
- Assalomu alaykum, men Yaponiyaning Saytama shahrida yashayman. Maktabimning nomi "Honcho". Bu yerda maktablar tegishli hudud nomi bilan ataladi.
- Sizni maktabga kim olib boradi?
- Hammani maktabga katta sinfdagi qo'shni bolalar olib boradi. 6-sinfgacha "randozeru" deb nomlangan sumka tutamiz. Bu sumka gavdani to'g'ri tutishga yordam beradi, xavfsizlik bog'ichi ham bor. O'quvchilarning maxsus rangli poyabzallariga qarab qaysi sinfda o'qishini farqlash mumkin. Masalan, 1-sinf o'quvchisi oq, 6-sinf o'quvchilari esa ko'k oyoqkiyim kiyadi.
- Darsingiz qachon tugaydi?
- Tushlikda darsimiz yakunlanadi. Keyin mayin musiqa sadolari ostida o'z joylarimizni tozalaymiz. Chunki farroshlar yo'q. Tozalik uchun o'zimiz javob beramiz. Darsdan keyin qo'shimcha mashg'ulotlarga ham boramiz.



"Jajji akademik" dan

5. O'ylang va toping. Yozing.

Kim?	Nima?	Qayerda?	Qachon? Qachongacha?
o'quvchi	sumka	maktabda	tushlikda

Mustaqil ish

Agar siz direktor bo'lsangiz, maktabingizda qanday o'zgarishlar qilgan bo'lar edingiz? 30–50 so'zdan iborat esse yozing.

DUNYO KUTUBXONALARI

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qaysi kutubxonani “muzey” deb atash mumkin?
2. Qaysi kutubxona yo‘laklarida mashhur shaxslarning haykallari bor?
3. 1592-yili qurilgan kutubxona qaysi?
4. Oq va tilla ranglardan iborat kutubxona qayerda joylashgan?
5. Kutubxonalardan qaysi biri noodatiy uslubda qurilgan?

kitob
 kutubxona
 kutubxonachi
 kartoteka
 o‘qish zali
 audiokitob



DIQQAT QILING

... -sa,

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Kutubxonaga borsam, kitobxonlik tadbirlari o‘tkazilayotgan ekan.

1	Kutubxonaga borsam,	A	ko‘p kitoblar uchun aksiya o‘tkazilayotgan ekan.
2	Detektiv asarlarni o‘qisam,	B	o‘yin boshlanib ketgan ekan.
3	Kitob do‘koniga borsak,	D	do‘stim qo‘ng‘iroq qildi.
4	Kitob o‘qib o‘tirsam,	E	kitobxonlik tadbirlari o‘tkazilayotgan ekan.
5	Bolalar maydonchaga kelsa,	F	huquqshunoslik kasbini tanlagim keladi.

3. O'qing.

Hozir elektron kutubxonalar tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Shulardan biri "The Google Books" elektron kutubxonasiidir. U "Google" tomonidan yaratilgan. Bu yerda bir yuz o'ttiz milliondan ortiq kitob raqamlashtirilgan bo'lib, ular 480 tilga tarjima qilingan.

Bu raqamlar dunyo bo'yicha kitoblarning 20 foizi raqamlashtirilib, elektron kutubxonaga joylashtirilganidan dalolat beradi.

"Google" dunyodagi barcha kitoblarni raqamlashtirishni maqsad qilgan.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

MA'LUMOTLAR		HA/YO'Q
1	Hozir elektron kutubxonalar tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.	
2	"The Google Books" elektron kutubxonasi "Google" tomonidan yaratilmagan.	
3	Elektron kutubxonadagi har bir kitobni to'rt yuzdan ortiq tillarda o'qish mumkin.	
4	"Google" kitoblar raqamlashtirilishini to'xtatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.	

5. O'ylang, toping. Gapiring.



Kitob	
+	-
Istagan vaqtida o'qish mumkin.	Chang bo'ladi.
His qilish darajasi yuqoriroq.	Joy egallaydi.
...	...



Elektron kitob	
+	-
...	...



Kutubxonachi	
+	-
...	...

Robot kutubxonachi	
+	-
...	...

Mustaqil ish

Oilaviy kutubxonangizdagi kitoblardan 5 tasining nomi va muallifini yozib keling.

MUZEYLAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

- 1) Ermitaj muzeyi qurilishiga kim boshchilik qilgan?
- 2) Muzeydagi eksponatlar soni qancha?
- 3) Qimmatbaho arava qaysi zalga joylashtirilgan?
- 4) Shiftdagи qandillarda nima tasvirlangan?
- 5) Ko'rgazmadagi kumush buyumlarni kimlar ishlagan?

muzey
eksponat
sayohat
ko'rgazma
zal
ekspozitsiya
gid
taassurot

2. O'ylang va toping. Gapiring.



1) Ispaniya geologiya muzeyi




2) Parijdagi Luvr muzeyi



3) Nagoya ilmiy-tad-qiqot muzeyi



4) Sankt-Peterburg-dagi Ermitaj muzeyi



A



B



D



E

Namuna:

Ispaniya geologiya muzeyi: 1. D 2. ... 3. ... 4. ...

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Biz Ermitaj muzeyiga sayohatga borishimiz kerak.

1. Ermitaj muzeyiga sayohatga borish... kerak.
2. san'at muzeyiga sayohatga borish... mumkin.
3. tarix va geografiya fanini yaxshi o'rganish... zarur.
4. tabiat muzeyidagi ko'rgazma zalini tomosha qilish... kerak.
5. G'afur G'ulom va Oybekning uy-muzeyidagi buyumlarni qiziqib o'rganish... mumkin.

4. O'qing.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan. Muzey fondining asosiy qismi Amir Temur va temuriylar davriga oid qo'lyozma asarlar, turli davlat hukmdorlari bilan olib borilgan yozishmalar, tangalar, sopol va mis buyumlar, me'moriy bezak qoplamlari, kitoblar, etnografik buyumlar, yurtimiz rassomlari kartinalari kabi nodir eksponatlardan iborat. Eksponatlarning soni 2,5 mingdan oshadi.



5. O'ylang va toping. Gapiring.

	Ma'lumotlar	To'g'ri / Noto'g'ri
1	Temuriylar tarixi davlat muzeyi Amir Temur tavalludining 600 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan.	
2	Muzey fondida faqat Amir Temur bilan bog'liq eksponatlar mavjud.	
3	Muzey eksponatlari qo'lyozma asarlar, tangalar, sopol va mis buyumlar, me'moriy bezak qoplamlari, kitoblar, etnografik buyumlar va rasmlardan iborat.	
4	Eksponatlarning soni uch mingga yaqin.	

6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Temuriylar tarixi davlat muzeyi muhtasham va hashamatli binoda joylashgan.

 Foydalanish uchun so'zlar: Muhtasham, qandil, zal, hashamatli, eksponat, yoritkich.



Temuriylar tarixi davlat muzeyi ... va ... binoda joylashgan.

... gumbazini yoritib turgan "Zumrad" deb nomlangan muazzam ...ning og'irligi ikki tonnadan oshadi. Unga besh yuzta ... jamlangan.

Muzeyda bir qancha ...lar bo'lib, u yerda turli xil ... lar bor.

Mustaqil ish

Temuriylar tarixi davlat muzeyiga virtual sayohat qiling va taassurotlaringizni yozing.

NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI



Nobel mukofoti
xalqaro
nomzod
taqdirlamoq
dunyoga tanilmoq

1. O'qing.

1895-yil 27-noyabrda shved kimyogari va muhandisi Alfred Nobel o'z mablag'larini xavfsiz qimmatli qog'ozlarga aylantirish va ulardan tushadigan foizlarni insoniyat uchun eng ko'p foyda keltiradigan ixtiro egalariga mukofot sifatida berilishini vasiyat qiladi.

Nobelning vasiyatiga ko'ra, har yilgi foyda besh qismga bo'linadi va millatidan qat'i nazar, fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot sohalarida olamshumul ixtiro qilgan, adabiyot va tinchlik ravnaqiga hissa qo'shgan insonlarga mukofot tariqasida beriladi. Sovrindorlarni taqdirlash marosimi esa 10-dekabrdi, ya'ni Alfred Nobel vafot etgan sanada bo'lib o'tadi.

2. Savollarga javob bering.

1. Nobel mukofotini kim va nima maqsadda joriy qilgan?
2. Mukofot kimlarga beriladi?
3. Taqdirlash marosimi qachon bo'lib o'tadi?
4. Hozirga qadar Nobel mukofotni qo'lga kiritganlar soni qancha?
5. Siz qaysi yo'nalish bo'yicha Nobel mukofotini olishni istaysiz?

3. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

amaki

1879

fizika

laboratoriya

Tyurif

Nobel

1921

imtihon


4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:


Ernest oilasi bilan ko'l yoqasidagi uyga ko'chib borganda, otasi unga baliq ovlashni o'rgatdi.

1. Ernest oilasi bilan ko'l yoqasidagi uyga ko'chib borganda,
2. Eynshteyn Tyurif politexnikumini tamomlagach,
3. Direktor sinfga kirgan paytda
4. Onam ovqat pishirguncha,
5. Maktab kimyo xonasida laboratoriya izlanishlari o'tkazgan vaqtda,

5. O'ylang, toping, yozing.



1. Ernest Hemingway.
Adabiyot. AQSH,
21.07.1899



2. Albert Eynshteyn.
Fizika. Germaniya,
14.03.1879



3. Kofi Annan.
Tinchlik.
Gana, 08.04.1938



4. Françoise Barré-Sinoussi.
Tibbiyat.
Fransiya, 30.07.1947



5. Emmanuel Sharpantye.
Kimyo.
Fransiya, 11.12.1968

1. Kim?(Shaxsga so'roq)
2. Nima? (Narsa-buyumga so'roq)
3. Qachon? (Paytga so'roq)
4. Qayerda? (O'rinc-joyga so'roq)
5. Nima uchun? (Sabab-maqsadga so'roq)

Namuna:

1. Ernest Hemingway – yozuvchi.
2. Bir qancha asarlar muallifi.
3. 1899-yil 21-iyulda tug'ilgan.
4. AQSHda tavallud topgan.
5. Insoniy mardlik tasvirlangan asarlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Mustaqil ish

Nobel mukofoti sovrindorlaridan biri haqida uchta ma'lumot yozing.

ADABIY O'QISH

“CHOL VA DENGIZ”

asaridan parcha

Bola qaytib kelganda kun botgan, chol esa kursida o'tirganicha uyquga ketgan edi. Bola karavotdan eski askar adyolini olib, kursi suyanchig'i aralash cholning yelkasini yopib qo'ydi. Bu yelkalar cholning keksayib qolganiga qaramasdan zabardast, bo'yni ham undan qolishmaydigan darajada baquvvat va hozir, chol boshini ko'kragiga solintirib uxlagan tobda ajinlari ham u qadar ko'zga tashlanmas edi. Uning ko'ylagi ham xuddi yelkaniday qirq yamoq bo'lib ketgan, yamoqlar quyosh taftidan ola-bula tusga kirgan edi. Ammo cholning yuzi harqalay ancha qarimsiq bo'lib qolgan va hozir ko'zlar yumilib, uyquga ketganda xuddi jonsizga o'xshab ko'rindirdi. Cholning tizzasida uchib ketmasin deb tirsak bilan bosib olingan gaza-yotardi. U oyoqyalang edi. Bola uni uyg'otib o'tirmay, chiqib ketdi, qaytib kelganda chol hamon uyquda edi.


- Tur! – uyg'otdi uni bola va qo'lini cholning tizzasiga qo'ydi. Chol ko'zini ochdi va bir muddat qayerdandir, juda uzoqlardan qaytayotganday bo'lib turdi. Keyin u jilmaydi.
- Nima olib kelding?
- Yegulik keltirdim. Hozir ovqatlanamiz.
- Hali uncha ochiqqanim ham yo'q.
- Kelsang-chi endi, och qoringa baliq ovlab bo'larmishmi?
- Ba'zan shunday ham bo'lgan, – dedi chol o'rnidan qo'zg'alarkan, gazetani taxlay turib, adyolini yig'ishtira boshladi.
- Adyolni yig'ishtirma, – dedi bola.
- Men tirik ekanman, ovqatlanmasingdan turib, seni baliq ovlashga qo'ymayman.
- Unday bo'lsa, dard ko'rмагин, umring uzoq bo'lsin, – dedi chol...

Ernest Heminguey

(Adib Nobel mukofotini “Chol va dengiz” asari uchun qo'lga kiritgan)

Savollarga javob bering.

1. Chol va bola munosabatini qanday izohlaysiz?
2. Ular qayerga otlanmoqda?
3. Bola cholga nima uchun mehribonchilik qiladi?
4. “Inson mag'lubiyatga uchrash uchun yaratilgani yo'q. Insonni yo'q qilib tashlash mumkin, ammo uni aslo yengib bo'lmaydi!” Muallifning bu fikrini qanday tushunasiz?



ENSIKLOPEDIYA



TABIAT QONUNI

TABIAT VA INSON

1. “Insert” usulida o‘qing.

Nº	Ma’lumotlar	V, +, .., ?
1	Odam tabiat qonunlarini o‘zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib tabiat elementlarini, qismlarini o‘zgartirishi mumkin.	
2	Tabiat va jamiyat – bir-biri bilan chambarchas bog‘langan yaxlit borliqning ikki bo‘lagi.	
3	Tabiat odamga, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan qonuniyatga bo‘ysunadi.	
4	Tabiatdagi barqarorlik <i>tabiiy</i> yoki <i>ekologik muvozanat</i> deb ataladi. Tabiiy muvozanatning izdan chiqishi tabiatning buzilishi demakdir.	
5	Insoniyatning tabiatdan tashqarida mayjud bo‘lishi imkon-siz.	

DIQQAT QILING

Agar ... -sa,

2. O‘ylang va toping, yozing.

Namuna:


Agar tabiat yo‘qolsa, biz ham yo‘qolamiz.

**tabiat
jamiyat
inson
qonuniyat
muvozanat
bo‘ysunmoq
o‘zgartirmoq**

Tabiatning hech kimga bo‘ysunmaydigan qonunlari bor.
Xulqlarning barchasi o‘z tabiatini bilan go‘zal.

- 1) Agar tabiat yo‘qolsa, biz ham yo‘qolamiz.
- 2) Agar _____ sa, _____.
- 3) Gar _____ sa, _____.
- 4) Agar _____ sa, _____ sa, _____.
- 5) (Agar) _____ sa, _____.

3. Tinglang.



4. Savollarga javob bering.

1. O'tgan asrning oltmishinchi yillarida Orol dengizi kattaligi jihatidan dunyoda nechanchi o'rinda turar edi?
2. Orol dengizining qurishiga asosiy sabablar nima?
3. Orolning qurib borishi iqlimga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Nº	Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Ko'rilgan chora-tadbirlar	Sizning taklifingiz?
1	Havoning ifloslanishi	Avtomobillardan chiqadigan gaz va tutunlar, xazonlarning yoqilishi		
2	Ichimlik suvning kamayishi		Tomchilab sug'orish amaliyotining joriy qilinishi	
3	Qurg'oqchilik			Sun'iy bulut asosida yomg'ir yog'dirish

Mustaqil ish

“Tabiiy muvozanat” mavzusida faktlarga asoslangan qisqa matn yozing.

YIL FASLLARI

1. O'qing.

Yil fasllari

Bir yilda Yer sayyorasi Quyosh atrofida deyarli milliard kilometr masofani bosib o'tadi. Yer o'qi orbitaga nisbatan biroz qiyaroq joylashgan. Shu tufayli Quyosh yil mobaynida Shimoliy va Janubiy yarimsharlarni turli kuch bilan isitadi. Bizning kengliklarimizda to'rt fasl (bahor, yoz, kuz, qish)ning mavjudligiga assosiy sabab shu.

Qish. Qish – yilning eng sovuq fasli. 22-dekabr – yilning eng qisqa kuni.

Bahor. Havo iliqlashadi. O'simliklar uyg'ona boshlaydi va gullaydi.

Yoz. Bu faslda yilning eng uzun kuni kuzatiladi va u 16 soatcha davom etadi.

Kuz. Bu faslda quyosh nurlari borgan sari qiyaroq tushadi, harorat pasayadi, daraxt barglari sarg'ayib, to'kila boshlaydi.

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Bahorda havo iliqlashadi. O'simliklar uyg'ona boshlaydi va gullaydi.

1. Quyosh nurlari borgan sari qiyaroq tushadi. Harorat pasayadi. A) bahorda
2. Yilning eng uzun kuni shu faslda kuzatiladi. B) kuzda
3. Havo iliqlashadi. O'simliklar uyg'ona boshlaydi va gullaydi. C) qishda
4. Bu faslda yilning eng qisqa kuni kuzatiladi. Daraxtlar o'sishdan to'xtaydi. D) yozda

3. O'ylang va toping. Yozing.



Foydalanish uchun so'zlar: ikki xil, yil fasllari, bahor, kuz, kun, yoz, tun, qish.

Yer asosan ... harakatlanadi.

Yerning o'z o'qi atrofida aylanishidan ... va ... paydo bo'ladi.

Yerning quyosh atrofida aylanishidan ... vujudga keldi.

Yil fasllari – ..., ..., ... va

4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. She'r qaysi payt tasviri bilan boshlangan?
2. "Bahor" so'zi bilan qaysi so'z uyg'unlikda ishlataladi? Nega?
3. "G'uncha" va "novda" so'zlarini qanday tushunasiz?
4. "Shamol" so'zining qanday sinonimlari ishlataligan?

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Nº	Manzil	Ob-havo	Nima kiyasiz?
1	Rossiya	qorli	
2	Hindiston	yomg'irli	
3	Misr	issiq	
4	Angliya	mo'tadil	




Mustaqil ish

Tengkunlik, eng uzun kun, eng uzun tun, yaldo kechasi tushunchalarini izohlang.

TABIATDA SUVNING AYLANISHI

1. Tinglang.



suv
 bug'
 yog'in
 yog'ingarchilik
 sizib o'tmoq
 bug'lanmoq
 aylanmoq

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Suv tomchilarining birikishidan yomg'ir tomchilari hosil bo'ladi.

1. Suv tomchilarining birikishidan hosil bo'ladi.
2. Suv zarralarining chang zarralariga osilib turishidan hosil bo'ladi.
3. Yer sathidagi suvni bug'ga aylantiradi.
4. Yomg'ir tomchilarining sovuq atmosfera qatlamidan o'tishi natijasida hosil bo'ladi.
5. Qora bulutlardan yog'adigan siqiq muz parchasi.



3. O'ylang va toping. Yozing.

Suv:

- 1) muzlaydi
- 2)
- 3)
- 4)
- 5)

1. Agar suv muzlasa, qattiq jism holatiga o'tadi.
2.
3.
4.
5.

4. O'qing.

Sayyoramizdagi jami suv manbaining 98 foizga yaqinini sho'r suv, faqat 2 foizdan sal oshig'ini chuchuk suv tashkil etadi. Shuning uchun ham suvni tejash kerak.

Suv jo'mraklarining yaxshi yopilganiga e'tibor bering.

Idishlarni yuvayotganingizda jo'mrakni ochib qo'y mang. Ularni tog'oraga suv solib yuving.

Yuvenganda ham suvni tejang. Sovunlanayotgan paytingiz esa umuman suvni o'chirib qo'ysangiz bo'ladi.

Tishlarni yuvish uchun bir stakan suv yetarli. Tishlarni tozalab bo'lguncha suvni ochib qo'y mang. Suvni ikki marta ishlatalishni o'rganing.

Mevalarni biror idishdagi suvda chayib olganingizdan keyin ishlataligan suvni to'kmasdan xonaki gullarga quyish mumkin.

5. O'ylang va toping. Gapiring. Mumkin / mumkin emas.



Mustaqil ish

Ekinlarni tomchilatib sug'orish bo'yicha o'z loyihangizni yarating.

TABIAT HODISALARI

1. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

1 – shamol, ...



1) shamol

2)...

3)...



4)...

5)...

6)...



7)...

8)...

9)...

2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

Nº	Ta’rif	Ha/yo‘q
1	Chaqmoq va momaqaldiroq – bir xil tabiat hodisasi.	
2	Momaqaldiroq – tovush hodisasi.	
3	Bu ikki hodisa bir paytda ro‘y beradi.	
4	Tovush tezligi yorug‘lik tezligidan yuqori.	

tabiat hodisalari
chaqmoq
momaqaldiroq
paydo bo‘lmoq
gumburlamoq

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Qor gupullab yog'moqda.

1. Qor
2. Yomg'ir
3. Quyosh
4. Momaqaldiroq
5. Shudring
6. Bulut
7. Chaqmoq

1. Charaqlaydi
2. Gumburlaydi
3. Suzadi
4. Tomchilaydi
5. Chaqadi
6. Yog'adi
7. Tushadi

- 1) ... gupullab
- 2) osmonda
- 3) mayin
- 4) birdan
- 5) qattiq
- 6) tongda
- 7) yozda

4. O'qing.

KAMALAK

Yomg'irdan keyin osmonda ko'rinaladigan rangli yoy *kamalak* deb ataladi. U nam havo tarkibidagi yomg'ir tomchilarini orasidan quyosh nurining o'tishi natijasida paydo bo'ladi. Bu jarayonda quyosh nuri yetti xil rangda tovlanadi: qizil, olovrang, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsharang. Kamalakda har bir rang o'zining qat'iy o'rniga ega.

Psixologiya fanida esa ranglar ramziy ma'noda quyidagi tushunchalarni anglatadi:

Qizil: hayotning ramzi. Olovrang: g'ayrat va quvonchni anglatadi. Sariq: ilhom va ijod-korlikni uyg'otadigan rang. Yashil: tabiatni, o'sishni, yangilanishni va to'liqlikni anglatadi. Zangori: xotirjamlik va hamjihatlik timsoli. Ko'k: xayol va orzularga ishora. Binafsharang: tinchlik va ichki muvozanatni ifodalaydi.

5. O'ylang va toping. Yozing.

KAMALAK

Ranglar	Ramzi
qizil	hayot

Mustaqil ish

Bahor faslida kuzatiladigan tabiat hodisalaridan birining paydo bo'lish sabablarini yozing.

XAVFLI HODISALAR

1. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

1) ko‘chki, ...



1) ...



2)...



3)...



4)...



5)...



6)...

to‘fon, zilzila, vulqon, toshqin, qurg‘oqchilik, ko‘chki

2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Toshqin	F	Yer po‘sida yoki mantianing yuqori qismida to‘satdan siljish, shinish yoki o‘pirilish ro‘y berishi oqibatida vujudga keladi.
2	Ko‘chki	E	uzoq vaqt davomida yomg‘ir yog‘masligi va yuqori harorat natijasida paydo bo‘ladi.
3	Zilzila	A	mo‘l-ko‘l yog‘ingarchilik paytida katta daryo va ko‘llarning toshib ketishi natijasida hosil bo‘ladi.
4	Vulqon otilishi	D	tortishish kuchi ta’sirida katta relyefli qor massasining tushishi natijasida paydo bo‘ladi.
5	Qurg‘oqchilik	B	Yer mantiyasidan chiqadigan magma, kul va gazlarning massiv ravishda otilishidan hosil bo‘ladi.

3. O'qing.

Zilzila chog'ida Yer po'sti chayqalib, turli yo'nalişda to'lqinsimon silkinish tarqaladi. To'lqinlar tarqalish chog'ida yo'lda uchragan to'siqlarga uriladi. Shu sababli zilzila payti uylar silkinadi, ba'zan vayron bo'ladi. Yerning qimirlash kuchi turli birliliklarda o'lchanadi. Bu borada 12 balli tizim keng tarqalgan. 7 balldan yuqori siyasi vayrongarchilik keltiradi. Zilzila o'chog'idan boshlangan silkinish kuchi undan uzoqlashgan sari kamayib boradi. Zilzila kuchi seysmik stan-siyalarda o'lchanadi.



DIQQAT QILING

Agar ... -sa,

4. O'ylang va toping. Gapiring.

- A) Zilzila qanday sodir bo'ladi?
 - B) Yerosti tebranishlari natijasida zilzila sodir bo'ladi.
- A) _____?
- B) Tebranish natijasida paydo bo'lgan to'lqinlar yo'lda tarqalish chog'ida to'siqlarga uriladi. Shu sababli uylar qimirlaydi.
- A) _____?
 - B) Yerning qimirlash kuchi 12 balli tizimda o'lchanadi.
- A) _____?
- B) 7 balldan yuqori zilzilalar vayrongarchilik keltiradi.

5. O'ylang va toping. Yozing.



Foydalanish uchun so'zlar: zilzila, sezmoq, cho'kmoq, zilzila o'chog'i

Namuna:

Yerosti tebranishlari va yer yuzasining silkinishi "zilzila" deb ataladi.

1. Yerosti tebranishlari va yer yuzasining silkinishi **zilzila** deyiladi.
2. Ko'pincha zilziladan so'ng yerning ma'lum qismi ...
3. Yerosti silkinishi paydo bo'lgan joy ... deyiladi.
4. Odamlar Yer yuzida bo'ladigan zilzilalarning o'ndan bir qisminigina ...

Mustaqil ish

Zilzila sodir bo'lganda harakatlanish qoidalarini yozing.

ADABIY O'QISH

“OQ KEMA”

qissasidan parcha

Qoravultog‘ cho‘qqisidan hamma yoq yaqqol ko‘rinardi. Bola qorni bilan yotib olib durbinni ko‘ziga to‘g‘riladi...

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmono‘par yuksak qorli cho‘qqilar ham ko‘rinib turardi. Ular hamma tog‘larning ortida, hamma tog‘lardan baland: butun yer uzra yuksaklikka bo‘y cho‘zgandi. Qorli cho‘qqilar poyidagi o‘rmonzor tog‘lar, pastroqdagi serbarg butazorlar, yuqorida qalin qarag‘ayzorlar bilan burkangan tog‘lar ham ko‘rinib turadi...

Bola durbinni ko‘zidan olib, g‘amgin bosh egdi. “Biz endi uyga qanday qaytamiz?” – deya sekingina portfeliga so‘z qotdi u. – Buning hammasiga men sababchi, jinni buzoq sababchi, yana sen ham sababchisan, durbin. Oq kemaga qaragani har safar meni sen chaqirasan. Sen ham aybdorsan...”

Quyosh ko‘l tomonga og‘a boshladni. Havo unchalik issiq emasdi. Sharq tarafdagiligi qiyaliklarga birinchi kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga yo‘nalaveradi, soyalar esa pastga, tog‘lar poyiga cho‘zilaveradi. Odatda kunning ayni shu mahalida Issiqko‘lda oq kema ko‘rinardi.

Bola durbinni ko‘zga tashlanib turgan o‘scha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi. Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda Issiqko‘lning ko‘m-ko‘k sathida oq kema paydo bo‘ldi. Mana, qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o‘zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo‘yilgandek to‘g‘ri va bir tekis suzib borardi... Bola oq kemadan ko‘z uzmay unga zavq bilan tikilardi...

Chingiz Aytmatov

Savol va topshiriqlar.

1. Bola nimani kutayotgan edi?
2. Kech qolib ketganiga kimni (nimani) aybdor qildi?
3. Oq kema qaysi ko‘lda suzar edi?
4. Kemani tasvirlab bering.

ENG, ENG, ENG...

ENG G‘AROYIB O‘SIMLIKLAR

1. O‘qing.



Dragon daraxti “ajdaho daraxti” deb ham ataladi. Bu daraxt 650 yildan 1500 yilgacha yashaydi. Bo‘yi 15–20 metr atrofida bo‘ladi. Daraxt tanasidan oqadigan qizil suyuqlikdan oshqozon yarasini davolash uchun dori tayyorlanadi. Bu suyuqlikdan soch bo‘yoqlari ham ishlab chiqariladi.



Kamalakli evkalipt Shimoliy yarimsharda o‘sadi. Ushbu daraxt yiliga 3 metr balandlikkacha o‘sishi mumkin. Butun umri davomida esa bo‘yi 69 metrgacha yetadi. U oq qog‘oz ishlab chiqarish maqsadida yetishtiriladi. Dunyodagi eng rangli daraxtdan juda sifatli oq qog‘oz olinadi.

Sut daraxti Janubiy va Markaziy Amerika, Osiyoda ham o‘sadi. Bo‘yi 30 metrgacha bo‘ladi. Daraxtdan bir soat ichida 1 litr sigir sutiga o‘xhash sut olish mumkin. Lekin u ochiq havoda tez quyuqlashadi va ta’mi achchiq bo‘lib qoladi. Qizig‘i shundaki, daraxt yilning xohlagan paytida sut beraveradi.

Chinor daraxti Shimoliy Amerika, Kichik Osiyo va Yevropada o‘sadi. Turkiyadagi chinorlarning eng qadimgi vakili yoshi – 2300 yil. O‘zbekistonda ham qadimiylar uchraydi. Suratdagagi chinorning yoshi 600 yildan katta. Kengligi 22 kishining qulochiga teng.



2. O‘ylang va toping. Gapiring.

	Ma’lumotlar	Ha	Yo‘q
1	Dragon daraxti “ajdaho daraxti” deb ataladi.		
2	Kamalakli evkalipt butun umri davomida 9 metrgacha o‘sadi.		
3	Sut daraxtidan bir soat ichida 1 litr sigir sutiga o‘xhash sut olish mumkin.		
4	2300 yillik chinor 22 kishi qulochiga sig‘adi.		
5	Kamalakli evkalipt hayvonlarga ozuqa sifatida yetishtiriladi.		

3. O‘ylang va toping. Yozing.



Foydalanish uchun so‘zlar: qizil, achchiq, ochiq, oq, eng katta.

Namuna:

Daraxt tanasidan oqadigan qizil suyuqlikdan oshqozon yarasini davolash uchun dori tayyorlanadi.


ajdaho daraxti
suyuqlik
kamalak
achchiq
bahaybat
eng katta

1. Daraxt tanasidan oqadigan ... suyuqlikdan oshqozon yarasini davolash uchun dori tayyorlanadi.
2. Kamalakli evkalipt ... qog‘oz ishlab chiqarish maqsadida yetishtiriladi.
3. Sut daraxtining suyuqligi ... havoda tez quyuqlashadi va ta’mi ... bo‘lib qoladi.

4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Siz bu o’simlikka qanday nom bergan bo‘lardingiz?
2. Hasharotlar nima uchun bu gul barglariga qo‘nadi?
3. Venerina pashhatutqichi hasharotlarni “qopqon”ga qanday tushiradi?
4. “Qopqon”ga tushgan hasharot qutulib keta oladimi?

5. O‘ylang va toping. Gapiring.



1	“Raqsga tushayotgan qizlar” orxideyasi (Impatiens Bequaertii)
2	“Balerina” orxideyasi (Ballerina orkide)
3	“Oq baqlajon (kabutar) gul” orxideyasi (Radiata)
4	“Uchuvchi o’rdak” orxideyasi (Pilot duck orkide)



Mustaqil ish

O‘zbekistondagi g‘aroyib o’simliklar haqida ma’lumot yozing.

ENG G'AROYIB HAYVONLAR

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Qaysi mavjudot sayyoramizdagi umri boqiy yagona turik jonzot deb ta'riflanadi?
2. Chumolilar bir kunda necha daqiqa dam oladilar?
3. Yer sayyorasida eng himoyaga muhtoj hayvon qaysi ekan? Nima uchun?
4. Shakli bulutga o'xshab ketadigan quyon qanday nomlanar ekan?

mutlaqo
 o'lcham
 tasqara
 katta
 yirtqich
 kabutar
 moviy
 baland

DIQQAT QILING

Eh, oh-ho, eh-he, bay-bay...

2. O'ylang va toping. Yozing.



1. Tasqara



2. Mushuk



3. Kalmar



4. Kenguru



5. Koala

Namuna:

Avstraliyada yashovchi koala mutlaqo suv ichmaydigan hayvon.

Eh-he, koala mutlaqo suv ichmas ekan!

1. Avstraliyada yashovchi koala mutlaqo suv ichmaydigan hayvon. ...
2. Kalmar – atigi 30 santimetrga teng bo'lgan suv hayvoni. ...
3. "Kenguru" so'zi lotin tilida "katta qadamlar" ma'nosini bildiradi. ...
4. Mushuk umrining 70 foizini uxbab o'tkazadi. ...
5. O'zbekistondagi eng katta yirtqich qush – tasqara. ...

3. O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.

Primatlar bo'yи 15 santimetrdan oshmaydigan va tana vazni 150 gramm bo'lган mitti hayvonlardir. Ular Braziliya, Peru, Kolumbiyada daryo qирғоqlarida yashaydi. Bu hayvonlarning оrtacha umri – 10 yil.



Begemot "gipopotam", ya'ni "daryo oti" deb ham nomlanadi. Uni Afrika, Yevropa va Osiyoning ba'zi joylarida uchratish mumkin. Og'irligi 2,5 tonnadan 3,5–4 tonnagacha bo'ladi. Tana uzunligi – 1,5–1,7 metr, balandligi – 80 santimetr. 30 yildan 50 yilgacha umr ko'radi.

	Nomi	Qayerda uchraydi?	Bo'yи	Vazni	Qancha yashaydi?
1	Primatlar	Braziliya, Peru, Kolumbiya			
2	Begemot			2,5–4 tonna	

4. O'ylang va toping. Yozing.



1



2



3

Namuna:

Kabutarlarning moviy rangdagi ajabtovur turi mavjud.



4

1. Rangdagi, kabutarlarning, mavjud, moviy, ajabtovur, turi.
2. Uzunligi, shaffof boshli, makropin, kichik baliq, 15 cm bo'lgan.
3. Bu, shaffof, boshqalaridan, kapalaklar, farq qiladi, qanotlari bilan.
4. Eng yirik, qanotlari, kapalak, 30 cm, attakus, bo'lgan.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Qanday?

Nima?

moviy

kabutar

**Kapalak, moviy,
yirik, kabutar,
chopqir, uyquchi,
baliq, mushuk,
kichik, kenguru.**

Mustaqil ish
Uy hayvonlarining
antiqa harakatlari-
ni kuzatib, rasmga
yoki videoga oling.

ENG BALAND TOG'LAR

1. O'qing.


Himolay – Markaziy va Janubiy Osiyo – Xitoy, Hindiston, Butan, Pokiston, Nepal kabi davlatlar hududida joylashgan sayyoramizning eng yuksak tog‘ tizmasidir. Ushbu tog‘ tizmasida 109 ta cho‘qqi bor, ularning balandligi dengiz sathidan o‘rtacha 7 ming metr baland. Himolay tog‘ining eng baland cho‘qqisi – Jomolungma yoki Everest. Uning balandligi 8848 metrga yetadi. U tog‘ atrofidagi hududlarda geodezik tadqiqotlar olib borgan britaniyalik tadqiqotchi Jorj Everest sharafiga shunday nom olgan.



Monblan esa Alp tog‘ining eng yuqori cho‘qqisidir, uning balandligi 4808 metrni tashkil qiladi. Bu joy alpinistlarning eng sevimli maskani hisoblanadi. Monblanning etagida bir nechta mashhur chang‘i kurortlari joylashgan.



Perudagi g‘ayrioddii ranglarga ega bo‘lgan tog‘ Vinikunka deb ataladi. Yetti xil rangda bo‘lganligi uchun bu tog‘ “Kamalak tog‘i” deb ham nomlanadi. U Peru shahridan 170 kilometr uzoqlikda joylashgan.



2. O‘ylang va toping. Gapiring.

	4808 metr	109 ta cho‘qqi	Kamalak tog‘i	8848 metr	Everest	Alp tog‘i	170 kilometr
Himolay		+		+	+		
Monblan							
Vinikunka							

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Himolay – sayyoramizning eng baland tog‘ tizmasidir.

... sayyoramizning eng baland tog‘ tizmasidir.

Ushbu tog‘ tizmasida 109 ta ... bor.

Himolay tog‘ining eng baland cho‘qqisi –

Monblan ... tog‘ining eng yuqori cho‘qqisidir.

Yetti xil rangli bo‘lganligi uchun bu tog‘ ... deb ham ataladi.

**Alp, cho‘qqi,
kamalak tog‘i,
Himolay,
Jomolungma**

**tog‘
cho‘qqi
tadqiqot
alpinist
sevimli maskan
g‘ayrioddii**

4. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.



1	4:00	A	O‘z yutuqlaridan zavqlanishdi.
2	6:30	B	Ikki alpinist ertalab lagerni tark etishdi.
3	15 minut	D	Hillari va Norgay Everest cho‘qjisiga yetib keliшди.
4	11:30	E	Edmund Hillari va Tenzing Norgay Himolay tog‘i etagiga o‘rnatilgan lagerda uyg‘onishdi.

DIQQAT QILING

Naqadar, shunchalik, shu qadar, shunday

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Everest – dunyodagi eng baland cho‘qqi.
2. Edmund Hillari va Tenzing Norgay – dovyurak alpinistlar.
3. Ikki alpinistning Everest cho‘qjisini zabt etgani haqidagi xabar butun dunyoga yashin tezligida tarqaldi.
4. Alpinistlar Everest cho‘qjisini zabt etganidan nihoyatda zavqlanishdi.

1. Everest naqadar baland!
2.
3.
4.

Mustaqil ish

O‘zbekistonlik alpinist Rustam Rajabov haqida esse yozing.

SUV – MO'JIZA

1. O'qing.



Suvlar bilan bog'liq mo'jizaviy holatlarning guvohi bo'lganmisiz? Yo'qmi? Unda sizga shu haqda hikoya qilamiz.

Qozog'istonda Irtish daryosining tiniq, Ulba daryosining loyqa suvlari yonma-yon oqadi. Lekin sira bir-biriga aralashib ketmaydi.

Janubiy Amerikadagi eng sersuv daryo Amazonkaning ikki o'zani – Riu Negru va Solimoyns 4 kilometrgacha bo'lgan masofada birga oqlsa-da, suvlari bir-biriga qo'shilib ketmaydi.

Daniyaning Skagen shahri atrofida Shimoliy dengiz va Boltiq dengizi uchrashadi. Ikki katta dengizning suvi turli zichlikka egaligi bois ham shunchaki to'qnashadi – aralashib ketmaydi.

Germaniyaning Passau shahrida Ils, Dunay va Inn daryolari uchrashadi. Lekin uchta daryo ham o'z yo'lida alohida-alohida oqadi.

Qani edi, shu ajoyib manzaralarni o'z ko'zim bilan ko'rsam deb o'yladingizmi? Albatta, niyatizingizga yetasiz! Bu yo'lda ilm olishdan charchamang!

2. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Qozog'iston	A	Riu Negru va Solimoyns daryolari
2	Janubiy Amerika	B	Ils, Dunay va Inn daryolari
3	Daniya	C	Irtish, Ulba daryolari
4	Germaniya	D	Shimoliy dengiz va Boltiq dengizi

tiniq
dengiz
daryo
loyqa
o'zan
qo'shilib ketmoq
zichlik
irmoq
ko'l

DIQQAT QILING

... -sa + edi

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Anhorlardagi tiniq suvlardan hovuchlab ichsam.

1. ichsam, anhorlardagi, tiniq, hovuchlab, suvlardan.
2. cho'milsangiz, foydali, suvda, loyqa.
3. tog'lardan, quyilsa kerak, ko'p suv, daryolarga.
4. ko'p yog'sa, yomg'ir, bo'lsa kerak, suv toshqini.

4. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Anxel sharsharasi Venesuelaning sharqidagi qaysi daryoga oqib tushadi?

1 ball

2. Anxel sharsharasining umumiy balandligi qancha?

- A. 979 metr
- B. 978 metr
- C. 977 metr
- D. 807 metr

1 ball

3. Nuqtalar o'rnini to'ldiring:
Anxel sharsharasi juda ko'p ... jalb qiladi.

1 ball

4. Daryoda suv ko'p bo'lgan iyun-dekabr oylarida mahalliy gidlar bilan qanday sharsharaga borish mumkin?

2 ball

5. O'ylang va toping. Yozing.

Dunyoda **eng uzun daryo** – Nil, uzunligi 6671 km.



Yer sharida **eng katta ko'l** – Kaspiy, maydoni 376000 kv. km.



Eng chuqur ko'l – Baykal, chuqurligi 1620 m.



Eng sersuv daryo – Amazonka.
Uning 500 ta irmog'i bor.



km – kilometr, m – metr, kv. – kvadrat.

Namuna:

Dunyodagi eng uzun daryo Nil daryosi bo'lib, uning uzunligi 6671 km.

Mustaqil ish

Yashash joyingizga yaqin bo'lgan suv havzalari haqida ma'lumot to'plang.

ENG GO‘ZAL SHAHARLAR

1. O‘qing.

Italiya – eng go‘zal mamlakatlardan biri. Bu o‘lkada tashkil etilgan barcha milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar juda jozibali. Masalan, Abrutsoga har yili millionga yaqin sayyoh keladi. Bu yerda g‘oyat noyob o‘simplik va hayvonot dunyosi, juda qadimiy sivilizatsiya qoldiqlari bor. Sayyoohlarni ajoyib tog‘ yonbag‘irlari o‘ziga jalb qiladi.



Fransianing ramzi – Eyfel minorasi. 1887-yili arxitektura-muhandislik loyihalari tanlovida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan Eyfel: “Fransiya 300 metrlik bayroq ustuniga ega bo‘lgan yagona davlat bo‘ladi!” – deb aytgan. Qurilish ishlarini ikki yil davomida 300 nafar ishchi bajardi. Minoraning balandligi antenna bilan birga 324 metrni tashkil qilgan. Eyfel minorasi 40 yildan ortiq vaqt davomida dunyodagi eng baland inshoot bo‘lib qolgan.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Italiyada juda qadimiy sivilizatsiya qoldiqlari saqlanib qolgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
2. Eyfel minorasi – Italiya ramzi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Minorani ikki yil davomida 324 nafar ishchi qurgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
4. Italiyaga har yili millionga yaqin sayyoh keladi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

3. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Venetsiya	A	Unga ko‘rk berib turuvchi obyektlar Sena daryosini kesib o‘tgan ko‘priklar, bir-biridan so‘lim xiyobonlar, ko‘rkam binolar hamda takrorlanmas obidalardir.
2	Parij	B	Sayyoohlarni Vltava daryosi uzra o‘tgan, ajoyib ko‘rinish kasb etuvchi Charlz ko‘prigini qiziqib tomosha qiladilar.
3	Praga	D	Shahardagi arxitektura namunalari juda ham noyob san’at asariga o‘xshaydi. Ayniqsa, ularning aksi shaharni kesib o‘tgan kanallarda mayjlanganida butunlay boshqacha manzara hosil bo‘ladi.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Italiya juda noyob o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega.



Foydalanish uchun so‘zlar: eng go‘zal, juda noyob, eng ko‘rkam, juda jozibali.

1. Italiya ... o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega.
2. Shahardagi milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar ...
3. Dunyodagi ... manzaralarni ko‘rishni istaysizmi?
4. Venetsiya shahri arxitekturasi ... san’at asariga o‘xshaydi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.



1. Nima deb o‘ylaysiz, bu shaharlarni birlashtirib turgan xususiyat nima?
2. Sayohat qilish uchun yuqoridagi shaharlardan qay birini tanlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

Mustaqil ish

O‘zingizni xorijda deb tasavvur qiling va ota-onangizga maktub yozing.

ENG G'AROYIB GINNESCHILAR

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Gapiring.

Taomlar	O'zbekiston	352 kg	7360 kg	AQSH	100 kg	Qrim
gamburger						
osh	+					
cheburek						

3. O'ylang va toping. Yozing.



Namuna:

4 yoshli Bini “eng yaxshi basketbolchi it” deb tan olingan. Jonivor bir minut ichida to‘pni savatga 7 marta tushira oladi.

1. 4 yoshli Bini “eng yaxshi basketbolchi ...” deb tan olin-gan. Jonivor bir minut ichida to‘pni savatga 7 marta tushira oladi.

2. Purin laqabli ... panjalari bilan to‘pni tutib olish bo‘yicha rekord o‘rnatdi. U bir daqiqada 14 ta to‘pni tutib oldi.

3. Berti laqabli ... eng tez yuguruvchi toshbaqa sifatida rekord o‘rnatdi. U bir soniyada 28 cm masofani bosib o‘tgan.

**milliy
vakil
pishirmoq
jarayon
yig'a boshlamoq
nusxa**

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Bahaybat = ulkan = katta.

Namuna:

Dunyodagi eng bahaybat gamburger AQSHda tayyorlandi!

1. O‘zbekistonda dunyodagi eng ... osh tayyorlandi!
2. Toshkent oshpazlari eng ... osh tayyorlagani uchun Ginnesning rekordlar kitobiga kirdi.
3. Qrim milliy bayramida ... cheburek pishirildi.

5. O‘qing. O‘ylang va toping.

Natan Savayya lego konstruktori detallaridan qurgan “betmobil”i tufayli Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan. Nusxa yaratilishiga uch oy vaqt va 500 ming detal ketgan. “Betmobil”ning uzunligi 5,5 metr bo‘lib, 68 kilogramm og‘irlikka ega.

Bred Ladner – Betmen buyumlaridan iborat eng katta kolleksiya egasi. U 1988-yildan buyon betmenlarni yig‘a boshlagan.

Britaniyalik Jon Bitmid mashhur bolalar avtomobili – “Cozy Couple”ning eng katta nusxasini yasashga muvaffaq bo‘ldi.



Natan Savayya	mashhur bolalar avtomobili “Cozy Couple”ning eng katta nusxasini yasashga muvaffaq bo‘ldi.
Bred Ladner	lego detallaridan katta “betmobil” yasadi.
Jon Bitmid	Betmen buyumlaridan iborat eng katta kolleksiya egasi.

Mustaqil ish

Ginnes rekordlar kitobi haqida ma’lumot yozing.

KITOBLAR

1. O'qing.

Jon Tolkinning “Uzuklar hukmdori” asari 150 mln nusxada chop qilingan.

Noshirlar talabiga ko‘ra asar uchga bo‘linadi va trilogiyaga aylantiriladi. Bu iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli loyiha va noshirlarga katta foyda, yozuvchiga ulkan shuhrat keltiradi.

Joan Rouling qalamiga mansub “Harri Potter va hikmatlar toshi” asari 107 mln nusxada chop qilingan.

Bu asarni ko‘plab nashriyotlar chop etishni istamagan. Ammo Roulingga baribir omad kilib boqdi va aynan ushbu asarlar turkumi uni birinchi yozuvchi-milliarderga aylantirdi.

Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asari 140 mln nusxada nashr qilingan.

Asli uchuvchi bo‘lgan yozuvchiga bu asari juda katta shuhrat keltirdi. Nafaqat bolalar, balki kattalar ham sevib o‘quvchi asar dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan.

Xudoyerberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani o‘zbek bolalar adabiyotida eng ko‘p xorijiy tilga tarjima qilin-gan asardir. Bu haqida yozuvchining o‘zi shunday deydi: “Sariq devni minib” asarimning jahon tillariga ko‘p tarjima qilinishiga 1971-yili Italiyaning Rim shahrida bo‘lib o‘tgan jahon bolalar yozuvchilarining kengashida Janni Rodarining shu asar haqida aytgan iliq gaplari sabab bo‘lgan”.

muallif
noshir
iqtisodiy
shuhrat
nashriyot
o‘qimoq
mutolaa qilmoq



2. O‘ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	“Kichkina shahzoda” asarini kattalar ham sevib o‘qiysi.	
2	Joan Rouling qalamiga mansub “Harri Potter va hikmatlar toshi” asari Janni Rodarining e’tirofiga sazovor bo‘ldi.	
3	Jon Tolkinning “Uzuklar hukmdori” asari 140 mln nusxada chop qilingan.	
4	1971-yili Italiyaning Rim shahrida jahon bolalar yozuvchilarining kengashi bo‘lib o‘tgan.	

DIQQAT QILING

Kitoblar, badiiy asarlar nomi bosh harf bilan, qo‘shtirnoq (“”) ichida yoziladi.

3. O‘ylang va toping. Yozing.



1

2

3

4

Namuna:

Asl kasbi uchuvchi bo‘lgan yozuvchiga “Kichkina shahzoda” asari juda katta shuhrat keltirdi.

1. Asl kasbi uchuvchi bo‘lgan yozuvchiga ... asari juda katta shuhrat keltirdi.
2. Yozuvchining ... asarini ko‘plab nashriyotlar chop etishni istamagan.
3. O‘zbek bolalar adabiyotida ... asari eng ko‘p xorijiy tillarga tarjima qilingan.
4. Noshirlar talabiga ko‘ra, ... asari uchgaga bo‘linadi va trilogiya aylantiriladi.

4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. “Sariq devni minib” asari qayerlarda chop etilgan?
2. Kitob qancha nusxada bosilib chiqqan?
3. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarini rus tiliga kim tarjima qilgan?
4. “Sariq devni minib” asari necha kitobdan iborat?
5. Kitob qancha vaqtda yozilgan?
6. “Sariq devni minib” asarining ikkinchi kitobini yozishni kim maslahat bergen?

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

**S-strong**

(kuchli tomonlari)

**W-weakness**

(kuchsiz tomonlari)

**O-opportunity**

(imkoniyatlar)

**T-threat**

(to‘sishlar)

Hoshimjon
obrazi

Mustaqil ish

Maktabingiz kutubxonasi haqida videolavha tayyorlang.

ADABIY O'QISH

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo siyosiy xaritasida 200 dan ortiq mamlakat mavjud. Ular hududiy kattaligi, aholisi jihatidan ham xilma-xildir. Quyida aholisi eng ko'p davlatlar ro'y-xatini taqdim qilamiz.

Xitoy 1-o'rinda turadi. 1,4 mldr dan oshiq aholisi bo'lgan bu davlat ulkan mehnat resurslariga ega.

2-o'rinni Hindiston egallaydi. Uning aholisi 1 mldr dan oshiq va ular yildan yilga ko'paymoqda.

3-o'rinni esa AQSH egallab turibdi. Bilasizki, bu davlatda yashashni, u yerga borishni xohlovchilar juda ko'p. Shuning hisobiga aholisi ko'payib bormoqda.

Qolgan o'rirlarni Indoneziya, Braziliya, Pokiston, Nigeriya, Rossiya, Bangladesh va Yaponiya mamlakatlari egallaydi.

Bundan tashqari, kichik hudud va oz aholiga ega mikrodavlatlar ham bor.

Dunyodagi eng mitti davlat Vatikan bo'lib, aholisi 800 kishidan iborat.

Monako, Gibraltar, Tuvalu, San Marino ham mitti mamlakatlar safiga kiradi. Ularning aholisini bir necha ming kishi tashkil qiladi.

Savollar:

1. Bu davlatlar haqida oldin ham eshitganmisiz?
2. Shunga o'xshash yana qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilasiz?
3. Hududi jihatdan katta va kichik davlatlar haqida bilasizmi?



AJDODLARNING G'AROYIB IXTIROLARI

EVRIKA

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Arximed qonunini qanday tushundingiz?
2. Nima uchun nina suvda cho'kadi-yu, katta-katta kemalar suvda cho'kmaydi?
3. Suvosti kemalari qay tartibda ishlaydi?
4. Tortishish qonuniga qanday misollar keltira olasiz?

2. O'ylang va toping. Yozing.

DIQQAT QILING

... -sa + kerak.

A

B

D

E



1. ..., A stakandagi suv ko'proq...
2. B stakandagi suv ko'proq, ...
3. D stakandagi suv ko'proq ...
4. E stakandagi suv, ... ko'proq.

3. O'qing. O'ylang va toping. Yozing.

Qadimgi Yunonistonning Sirakuza **shahri/shaxri** hokimi Hiyeron eng mohir zargarlari-ga oltindan toj yasashni buyuribdi. Zargarlar **xokimdan/hokimdan** sof oltinni olib, tez orada kutilganidan ham a'llo qilib toj yasab berishibdi. Hiyeron judayam xursand bo'libdi. Ammo "Balki, zargarlar tojni sof oltindan yasamay, unga biror modda qo'shgan bo'lsa-chi?!"

degan shubhaga/shubxaga boribdi. Shu tariqa u ustalarning xalolligini/halolligini tek-shirib ko'rmoqchi bo'libdi.

O'sha davrda Yunonistonning eng mashhur olimi **Arximed/Arhimed** edi. Shu sababli ham hokim toj yasashda ishlatilgan oltinning sofligini aniqlashni unga topshiribdi.

Arximed yashagan davrda bunday muammolarning yechimini topish amrimahol edi. Bechora olim hokimning topshirig'ini bajarmasa, jazolanishini **xam/ham** bilardi. Shuning uchun u tun-u kun bu masala ustida bosh qotirar, lekin biror natija chiqarolmas edi. Shunday kunlarning birida u ichiga suv to'ldirilgan tog'oraga tushayotib o'z vaznining bir-dan yengillashgani va ortiqcha suvning tog'oradan toshib ketayotganini ko'radi-yu, hokim buyurgan vazifa yodiga tushadi. **Xursand/hursand** bo'lib ketgan Arximed "Evrika!" deya baqirgancha saroyga yo'l oladi.

Namuna:

- 1) *shahri*, 2).... , 3).... , 4).... , 5).... , 6).... , 7).... .

4. O'ylang va toping. Yozing.

1. U saroyga (yetib bormoq).
2. Hokim zargarlardan (shubhalanmoq).
3. Olim shohning topshirig'ini bajara olmasligidan (qo'rqmoq).
4. U hokim buyurgan vazifani bajara olganidan (xursand bo'lmoq).

- | |
|----------------------------|
| 1. U saroyga yetib borgan. |
| 2..... |
| 3..... |
| 4..... |

- | |
|-------------------------------|
| 1. U saroyga yetib borgandir. |
| 2..... |
| 3..... |
| 4..... |

Mustaqil ish

EVRIKA so'zidagi harflardan foydalanib ixtirolarga misol keltiring.

E – elektr, ...

V – ...

R – ...

I – ...

K – ...

A – ...

NILOMETR

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.



**nilometr
inshoot
quvur
qurilma
o'lchamoq
ixtiro qilmoq
dunyoga tanilmoq**

	Ma'lumotlar	Ha/yo'q
1	Al-Farg'oniy XI asrda Farg'onada tug'ilgan.	
2	U matematika, astronomiya, fizika kabi fanlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.	
3	Al-Farg'oniy chuqur ilmiy tadqiqotlar natijasida Yerning shar shaklida ekanini asoslagan.	
4	Nil daryosidagi suvning hajmi va tezligini o'lchaydigan inshoot – nilometrni yaratgan.	
5	Sharq mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan mashhur.	

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Ahmad Farg'oniy 861-yili Nil daryosi suvini o'lchashga yordam beradigan nilometrni ...

Foydalanish uchun so'zlar: soat, ixtiro qilmoq, uskuna, o'lchamoq, maslahatlar bermoq, o'lchov, saqlanib kelmoq.

1. Ahmad Farg'oniy 861-yili Nil daryosi suvini o'lchashga yordam beradigan nilometrni ...
2. Ushbu ... suv balandligini ko'rsatib turuvchi 16 chiziqli belgi bo'lgan.
3. Agar ... 12 dan past bo'lsa, o'sha yili hosil yaxshi bo'lмаган.
4. Al-Farg'oniy yil boshida daryo suvini o'lchab, dehqonlarga foydali...
5. "Miqyosun Nil" qurilmasi misrliklar tomonidan hamon ishchi holatda...

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Ahmad Farg‘oniy Misrda Nil daryosi _____ o‘lchash uchun qurgan “Miqyosun Nil” _____ hozirgacha saqlanib qolgan. Bu _____ hali ham dunyoning turli hududlaridan kelgan _____ hayratiga sabab bo‘lmoqda.

- 1. sathini/yuzasini
- 2. binosi/inshooti
- 3. kashfiyat/ixtiro
- 4. sayyoohlar/turistlar

4. O‘qing va savollarga javob bering.

Karlar uchun eshitish uskunasi

Ixtirochi Jona Kon 14 yoshida “Aniq tebranuvchi” uskunasini yaratib, ixtirosi yordamida qanchadan qancha qulog‘i og‘ir insonlarga eshitish imkoniyatini berdi. U 2012-yilda “Ilm-fan yarmarkasi” tanlovi g‘olibiga aylandi.

Qorda yuradigan mashina

Kanadalik ixtirochi Jozef-Arman Bombardye 15 yoshga to‘lganida otasi sovg‘a qilgan mashinani qismlarga ajratib, undan qorda yuradigan moslama modelini yasaydi. Yillar o‘tib ixtirochi qorda yuradigan mashinalar ishlab chiqaruvchi kompaniyaga asos soladi.

Yangicha akkumulyator

Ixtirochi Eysha Xare 18 yoshida qo‘l telefonlari uchun mo‘ljallangan yangi turdagи akkumulyator o‘ylab topdi. Uning yordamida qo‘l telefonlarini 20–30 soniyada qayta zaryadlash mumkin. Qiz ixtirosi uchun “Intel” kompaniyasining “Yosh olimlar uchun mukofot”ini qo‘lga kiritgan.

1. Yosh ixtirochilar qanday yangiliklarga qo‘l urgan?
2. Jona Konning ixtirosi jamiyatimiz uchun qanchalik muhim?
3. Mazkur matnlarni umumlashtirgan holda qanday sarlavha qo‘yish mumkin?

Mustaqil ish

Ixtirochi bo‘lganingizda nima yasashingiz mumkinligi haqida yozing.

ULUG'BEK RASADXONASI

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Mirzo Ulug'bek qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Uning bobosi kim?
3. Ulug'bek qaysi fanlar bilan shug'ullangan?
4. Mirzo Ulug'bek qanday jadval tuzgan?



2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Teleskop ixtiro qilingunga qadar astronomlar osmon jismlarini oddiy ko'z bilan kuzatishgan.



Foydalanish uchun so'zlar:
teleskop, kvadrant, asboblar,
yulduzlar

1. Astronomlar ... ixtiro qilingunga qadar osmon jismlarini oddiy ko'z bilan kuzatishgan.
2. Keyinchalik yulduzlarning joylashuvi va ular orasidagi masofani o'lchovchi maxsus ... yaratilgan.
3. Shunday asboblardan biri ... deb ataladi.
4. Kvadrant doiraning to'rtdan biriga teng bo'lib, undan ... orasidagi masofani o'lchashda foydalanilgan.

3. O'qing.

1417-yili Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek Samarqand shahri yaqinida yangi rasadxona qurishga farmon beradi. Hukmdor o'sha davrning mashhur olimlarini yig'ib majlis qiladi va qurilajak rasadxona dunyoda eng katta bo'lishi kerakligini uqtiradi. Shundan so'ng olimlar o'ylay-o'ylay ajoyib bir qarorga kelishadi. Ular yangi rasadxonani ulkan kvadrant shaklida qurishga kirishadi. Shu tariqa, balandligi 30 metr keladigan rasadxona qurib bitkazildi.

Mirzo Ulug'bek yulduzlar haqidagi "Ziji Ko'ragoniy" ("Ko'ragoniyning jadvali") asarini yangi rasadxonada yozadi.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Olimlar rasadxonani	katta va hashamatli bo‘lishini istadi.
2	“Ziji Ko‘ragoniy” asari	o‘ttiz metr balandlikda qurib bitkazildi.
3	Mirzo Ulug‘bek Samarqand shahri yaqinida	ulkhan kvadrant shaklida qurmoqchi bo‘lishdi.
4	Yangi rasadxona	yangi rasadxonada yozildi.
5	Ulug‘bek qurilajak rasadxonaning	rasadxona qurdirmoqchi bo‘ldi.

DIQQAT QILING

-dir, -tir



5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Mirzo Ulug‘bek rasadxona qurdirmoqchi bo‘libdi.

1. Mirzo Ulug‘bek rasadxona qur...moqchi bo‘libdi.
2. Qurilajak rasadxona dunyoda eng katta bo‘lishi kerakligini uq...ibdi.
3. Balki, unda yangi rasadxonada tadqiqotlar o‘tkazish orzusi bo‘lgan....
4. Osmon ilmini o‘rganish hukmdorning eng oliy istagi....

Mustaqil ish

Tungi osmonni diqqat bilan kuzating. Yulduz turkumlari haqida ma’lumot to‘plang.

AMERIKALIK IXTIROCHI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Tomasni kichkinaligida qanday chaqirishar edi?
2. U qanday kasallikka chalingan edi?
3. Uni ixtirochilikka kim undagan?
4. Tomas Edison qaysi sohaga ko‘proq qiziqqan?
5. U nega maktabni tashlagan?

kitob o‘qimoq
 laboratoriya
 tajriba
 kimyoviy modda
 uskuna

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Ikkitadan to‘rttagacha bo‘lgan xabarlarni uzata oladigan apparat/qurilma.	A	Lampa
2	Tovushni yozib oladigan va qayta eshittiradigan uskuna.	B	Telefon
3	Patronga biriktiriladigan metall qismini o‘yib, ichiga volframdan spiralsimon shakl yasab o‘rnatilgan.	D	Fonograf
4	Tomas Edison bu qurilma uchun “Hello!” so‘zini taklif qildi.	E	Kinetaskop
5	Bu moslama harakatdagi tasvirni tasmaga yozadi.	F	Telegraf

3. O‘ylang va toping. Yozing.



Namuna:

Elektr ixtiro qilinmasidan oldin insonlar olovdan issiqlik va yorug'lik manbai sifatida foydalanishgan.

1. Elektr ixtiro qilinmasidan oldin insonlar olovdan issiqlik va yorug'lik manbai sifatida (foydalanmoq).
2. Keyinchalik sham (ixtiro qilinmoq) va yoritish vositasi bo'lib xizmat qiladi.
3. Yonilg'ilar ixtiro qilingach, turli xil yorug'lik tarqatuvchi buyumlar (ishlab chiqarilmoq).
4. Tomas Alva Edison cho'g'lanma lampani kashf qilganidan beri butun dunyoda elektr lampalar uylarni, ko'chalarini, ta'bir joiz bo'lsa, hayotimizni (yoritib kelmoq).

4. O'qing.

Maktabdagagi o'qituvchisi Edisonning o'ta qoloq o'zlashtirishidan xunob bo'lib, ota-onasiga bu haqida maktub berib yuboradi. Tabiiyki, o'zi qoloq o'quvchi bo'lgan Edison unda nima yozilganini bilmaydi. U o'qituvchisining xatini oyisiga keltirib beradi. Onasi xatni o'qisa, unda "Bolangiz juda qoloq, u fanlarni o'zlashtira olmaydi, uni boshqa maktabga olib keting!" qabilidagi gaplar bo'ladi. Oyisi esa o'g'lining ko'ngli cho'kishini istamagan uchun unga xatni ovoz chiqarib, lekin mazmunini butunlay o'zgartirib o'qib beradi: "O'g'lingiz ajoyib bolakay, u sinfda eng a'luchi, hamma fanlarni yaxshi o'zlashtiradi. Sizga rahmat!".

Aslida, bu xatda butunlay boshqa narsa yozilganligini Edison oradan ancha yillar o'tib, allaqachon yirik ixtirochi va puldor tadbirkor sifatida nom qozongan paytlarda bilib qoladi.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

xat

tadbirkor

ixtirochi

puldor

qoloq

ona

Mustaqil ish

Kundalik hayotingizdagi beshta ixtironi muhimlik darajasi bo'yicha belgilang va izohlang.

VAQT QANDAY O'LCHANADI?

1. Tinglang. Savollarga javob bering.




1. Vaqt qanday o'lchanadi?
2. Dastlab qanday soatlar ixtiro qilingan?
3. Mexanik soatlar qanday ishlaydi?
4. Dastlabki mexanik soatlar haqida nima bilasiz?

 **Foydalanish uchun so'zlar:** soat, ixtiro qilmoq, qum, ko'rsata olmoq, aylantirmoq.

DIQQAT QILING

Eng mashhur soatli minoralardan biri Londondagi "Big Ben"dir. Dastlabki mexanik soatlar juda katta hajmda bo'lgan.

2. O'ylang va toping. Gapiring.



**vaqt
soat
quyosh soati
qumsoat
mexanik soat
uskuna
murvat**

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Soat ixtiro qilingunga qadar tabiatning o'zi odamlarga vaqtni bildirar edi.

1. _____ ixtiro qilingunga qadar tabiatning o'zi odamlarga vaqtni bildirar edi.
2. Bulutli kunlarda va tunda quyosh soati vaqtni _____.
3. Keyinchalik odamlar tunda ham ishlaydigan qumsoatlarni _____.
4. Bir kolbadan ikkinchisiga ingichka naycha orqali to'kiladigan _____ vaqtni belgilab turgan.
5. Bunday uskunani har soatda _____ kerak bo'lgan.

4. O'qing. Savollarga javob bering.

Soat vaqt o'lchash asbobidir. Elektron yoki mexanik soatlar elektr signallarni yuboruvchi va siferblatdagi millar harakatini boshqaruvchi maxsus moslamaga ega.

Soatlar turli-tuman ko'rinish va o'lchamlarda bo'ladi. Ularning aksari batareya quvvati bilan ishlaydi. Siferblatli soatlarda vaqtni millar ko'rsatadi.

Bugun hayotimizni soatlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Ular qo'limizda, telefonimizda, kompyuter hamda mashinada – umuman, hamma-hamma joyda mavjud.



1. Soatlarning qanday turlarini bilasiz?
2. Soat qanday ishlaydi?
3. Nima uchun soatlar, odatda, chap qo'lga taqiladi?
4. Soatlarning ko'rinishi 10:10 shaklida bo'lishining sababini bilasizmi?
5. Aqli soatlarning qanday vazifalari bor?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

15 ta kam yigirma / kechki sakkizga 15 minut bor / 15 minutdan so'ng kechki sakkiz bo'ladi / chorak kam yigirma

1. 15 ta kam yigirma
2. Ertalabki bir yarim
3. 16 dan 45 minut o'tdi
4. Chorakta kam 11



Mustaqil ish

Quyosh soati, qumsoat mexanizmlarini kuzating va uni o'zingiz yasab ko'ring.

ADABIY O'QISH

IXTIROCHILAR TANLOVI

Tanlov o'tkazilayotgan maktabga yetib kelishganida ishtirokchilarning deyarli hammasi yig'ilib bo'lgan edi. Ahmad ixtirochi bolalarni ko'rib, biroz xavotirga tusha boshladi. Chunki bolalar judayam g'aroyib va noyob qurilmalarni yasashgan ekan-da. Ana, biri o'zi yasagan robotni raqsga tushiryapti. Yana biri esa iflos suvni tozalab beradigan qurilma ixtiro qilib-di, qoyil-e! "Axir, mening ixtiroyim hali faqat chizmalardan iborat. Rosa kulgiga qoladigan bo'libman-da", deb o'yladi Ahmad.

Aslida, Ahmad dunyoga dong'i ketgan kuchli olimlarning hali hatto tushiga ham kirma-gan qurilmani ixtiro qilgan edi. Lekin u bunga boshqalarni ishontirish u yoqda tursin, hali o'zini ham to'la ishontira olmagandi. To'g'ri-da, hali bu chizmalarni biror kattaroq mutaxassis ko'rmagan. Faqat mактабдаги унга xayrixoh fizika o'qituvchisi chizmalarni ko'rib: "Ahmad, sen dahosan!" deganini aytmaganda, albatta. Ammo fizika o'qituvchisi hech nimani tushuna olmaganini Ahmad juda yaxshi bilardi. Lekin o'sha o'qituvchi Ahmadni "dahosan" deganida adashmagani rost. Chindan ham bu bolakay favqulodda kuchli zehn va idrok sohibi edi. Kichkina bo'lishiga qaramay, u fizika, matematika, kimyo va astronomiya fanlarini professorlar darajasida o'zlashtirgandi. Aytish mumkinki, bunday noyob bolalar faqat yuz, balki ming yilda bir marta dunyoga keladi. U har qanday eshitgan, ko'rgan narsasini xotirasi-ga xuddi videolavhaday muhrlab olar, kitob matnlarini so'zma-so'z emas, balki sahifaga bir qarashning o'zida o'qib olar edi. Agar bilsangiz, bunday odamlarni "fotografik xotira" sohibi deb ataydilar. Ammo Ahmadning bu iqtidoridan ko'pchilik bexabar edi. Mактабдаги аksar o'qituvchi va o'quvchilar esa uni xayolparast, mahmadona bola deb bilishardi.

– O'g'lim, sen albatta g'olib bo'lsan, men bunga ishonaman, – dedi o'g'lidi hayajonni sezgan ona. – Faqat hakamlarga o'z g'oyangni hayajonlanmay, dona-dona qilib tushuntir.

Sa'dulla Quronovning "Galaktikada bir kun" asaridan

Savollarga javob bering.

1. Ahmad qanday tanlovga qatnashmoqda?
2. Bolalar yasagan qurilmalarni sanab bering.
3. Ahmad qaysi fanlarni professorlar darajasida o'zlashtirgan edi?
4. "Fotografik xotira" deganda nimani tushunasiz?
5. Ahmadni g'olib bo'lishga ruhlantirgan kim?
6. Sizningcha, Ahmad nimani ixtiro qilgan bo'lishi mumkin?

LUG'AT

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
ajdod	предок	ancestor	әүлет	аҷдод, ниёғон	ata-baba/sy	ата-бабалар	ata-babalar
akustik hodisa	акустическое явление	acoustic event	акустикалық оқиға	ҳодисаси акустики	akustiki waka	акустикалық абал	akustikalıq hádiyse
amir	эмир	emir	әмір	амир	emir	эмир	ámır
antiqa	античность	unique	ғажап	антика	antiklik, enaýу	антикалық дүйнө	ózgeshe, basqasha
arqon	верёвка	rope	арқан	ресмон	ýüp, tanap	аркан	arqan
asoslab bermoq	оправдывать	to justify	негиздеу	асоснок карда додан	subut etmek, delilendirmek	далилдеп берүү	tiykarlap beriw
avaylamoq	оберегать, жалеть	to take care	абайлау	эхтиёт намудан	goranmak, seresap bolmak	аёо	abaylaw
barpo qilingan	построен	built	салынған	барпо шудааст	gurulan/ salnan	куруу	salınǵan
bashorat qilmoq	сделать прогноз	to predict	болжам жасау	башорат (пешгүй) кардан	çaklamak/ öňünden aytma	алдынтан айттуу	boljaw
bexosdan	случайно	accidentally, suddenly	кездейсоқ	тасодуфан	tötänleyín	кокустан	bilqastan
boshqaruv tizimi	система управления	management system	басқару жүйесі	системаи идоракунӣ	dolandırış ulgamy	башкаруу системасы	basqarıw sistemasi
bug' funksiyali	функция пара	steam function	бу функционалды	функцияи буг'	bug funksiyasy	пар функциясы	puw funkciyası
buramoq	крутить	to twist	бұрау	печонидан	buramak, öwrümek	буроо	buraw, tawlaw
butkul	всего	entirely	түбебейлі	батамом	bütünleý	бұтқұл	pútkilley
darg'azab	злой	angry	ашулы, қаһарлы	дарғазаб	gahat-gazp, ýigrenç	кыжыр кайноо	góazepli
do'l	град	hail	бұршақ	жола	doly	мөндүр, доол	burshaq
dolzarb	разгар, кульминация	actual, relevant	көкейкесті	мухим	házırkı, şu wagtkey	кызыу убак	áhmiyetli
doshqozon	желудок	cauldron	үлкен шоыйн қазан	деги калон	daşgazanaş	даш казан	úlken qazan
ekologik madaniyat	экологическая культура	environmental culture	экологиялық мәдениет	фарҳанги экологӣ	ekologiki medeniyyet	экологиялық маданият	ekologiyalıq mädeniyät
eski shahar	старый город	old town	е斯基 қала	шахри күхна	köne şäher	эски шаар	góne qala
estetik zavq	эстетическое удовольствие	aesthetic pleasure	эстетикалық ләззат	завқи эстетикӣ	estetiki lezzet	эстетикалық рахат	estetikalıq zawiq
favqulodda holat	чрезвычайная ситуация	emergency	төтенше жағдай	ҳолати фавқулодда	gyssagly hadysa	өзгөчө кырдаал	ayriqsha jaǵday
faxrlanmoq	быть гордым, гордиться	to be proud	мақтаниш	фаҳр кардан	buýsanmak, guwanmak	сыймыктануу	maqtanıw
foydalananmoq	использовать	to use	пайдалануу	истифода бурдан	ulanmak, peýdalanmak	пайдалануу	paydalaniw
futbol yulduzi	звезда футбола	football star	футбол жүлдүзы	ситораи футבול	futbol ýylidyzy	футбол жылдызы	futbol jıldızı
grim ustasi	гримёр	make-up artist	грим үстасы	устои грим	grim ussasy	гримёр, визажист	grim ustası
harakatchan	подвижный, энергичный	mobile	өрекетшіл	серхаракат	hereket etme	аракетчен	háreketsheń
hid taratmoq	запах	to smell	иіс таратуу	хушбүй	ys ýáýratmak, ys dargatmak	жыт таратуу	iyis tarqatiw

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
himoya	защита	protection	қорғай	муҳофизат, химоя	gorag, gorama	коргоо	qorǵaw
hudud	территория	territory	аймак	худуд	çäk	аймак	aymaq
ijobiy	положительный	positive	оң, ұнамды	мусбат	ońup	оң	jaqsı, unamlı
ijro	исполнение	execution	орындау	ичро	ýerine ýetirme, berjáy etme	аткаруу	atqarıw
ilmiy xulosa	научный вывод	scientific conclusion	ғылыми қорытынды	хуласаи илмӣ	yılmı netije	илимий корутунду	ilimiy sheshim
ipak	шёлк	silk	жібек	абрешим	ýúrek	жибек	jipek
iqlim o'zgarishlari	изменение климата	climate change	климаттық өзгерістер	тағиyréбии иқлим	howa çalşygy, howa úytgeýišleri	климаттын өзгөрүшү	klimat ózgerisleri
iste'mol qilmoq	потреблять	to consume	тұтыну	истеъмол кардан	iýimek	керектөө	qabilaw
ixtiro qilmoq	изобретать	to invent	ойлап табу	ихтироъ кардан	oýlap tapmak, oýlap tapyj	ойлоп табуу	oylap tabıw, jaratıw
ishtirok etmoq	участвовать	to participate	қатысу	иштирок кардан	gatnaşmak	катышуучу	qatnasıw
jamoat arbobi	общественный деятель	public figure	қоғам қайраткері	арбоби чамъиятӣ	jemgyýetçilik işgäri	коомдук ишмер	jámiyetlik ǵayratker
jimirlashib ketmoq	размытый	to get blurry	дірілдеу	ларzonдан	gamaşyk bulam-bujar bolup giden	размытый	jibirlap ketiw
jun	шерсть	wool	жұн	пашм	ýüň	жұн	jún
kasbiy salohiyat	профессиональный потенциал	professional skill	кәсіби әлеует	салоҳияти касбӣ	hünär potensialy/ mümkinçılığı	кесиптик потенциалдық	kásiplik sheberlik
kashf qilmoq	исследовать	to discover	жаңалық ашу	кашф кардан	döretmek/ gözleg geçirmek	изилдөө, ойлоп табуу	oylap tabıw
ketmon	кетмень	hoe	кетпен	каланд	kätmen	кетмень	keþpen
kuchli yorug'lik	яркий свет	strong light	кушті жарықтық	нури қавӣ	güýcli yışık	жаркыраган жарықтық	kúshli jaqtılıq
kuzatmoq	наблюдать	to observe	бақылау	мушохидा кардан	synlamak	байкоо, күзетүү	baqlaw
ko'rsatkich	индикатор	indicator	көрсөткіш	нишондиханда	görkeziji	көрсөткүч	kórsetkish
likopcha	тарелка	plate	тәрелке	табақ	tabak/ tarelka	тарелка	tarelka
logistika	логистика	logistics	логистика	логистика, мантиқӣ	logistika	логистика	logistika
loy	глина	mud	балшық	лой	palçyk	ылай	lay
loyqa	мутный	muddy, turbid	бұлшығыр	лойолуд	bulaşyk, bulanyk	булганган	layqa
ma'lumot	информация	information	ақпарат	маълумот	maglumat	маалымат	maǵlıwmat
madaniy meros	культурное наследие	cultural heritage	мәдени мұра	мероси фарҳангӣ	medeni miras	маданий мұрас	mádeniy miyras
majmua	комплекс	complex	кешен	мачмӯа	kompleks, zolag	комплекс	ortalıq, orın
maskan	место	place	орын	маскан	mesgen, ýer	жер	orın
mukammal mashqlar	идеальные упражнения	perfect exercises	кемелдік жаттығулар	машқои мұкаммал	ajaýyp maşklar	кемчиликсиз көнүгүү	jetik shınığıwlار
muloqot qilish	общаться	communication	карым-қатнас жасау	муошират кардан	aragatnaşyk etmek	баарлашуу	sóylesiw

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
muqobil	альтернатива	alternative	балама	алтернатив, муқобил	alternatiwa	альтернатив	alternativ
nafaqat	не только	not only	тек	нафақат	diňe däl	ал гана эмес	tek
nafas olmoq	дышать	to breathe	дем алу	нафас гирифтан	dem almak	дем алуу	dem aliw
namlik	влажность	humidity	ылғалдылық	намӣ	çyglylyk	нымдуулук	jıǵallıq
ne'mat	благословение	blessing	ризық	неъмат	bereket, hümmet	немат (тамак аш)	jemis
nishonlamoq	праздновать	to celebrate	тойлау	чашн гирифтан	baýram etmek	майрамдоо	belgilew, bayramlaw
noan'anaviy	нетрадиционный	non-traditional	ерекше	ғайриоддӣ	adaty däl	Салттуу эмес	dástúriy emes
noodatiy	необычный	unusual	әдәттен тыс	ғайриоддӣ	adaty däl	адаттан тыш	ádettegiden tis
notiq	оратор	orator	шешен	нотик, маърӯзачӣ	orator, dilewar	баяндамачы	sheshen
obod	благоустроенный	prosperous	абад, гулдену	обод	abadanlaşdyrylan, gurnalan	адеп	abat
olamshumul	всемирный, мировой	worldwide	ғаламдық маңызы бар	оламшумур, умумичаҳонӣ	dünýä, älem	дүйнө жүзү боюнча	jer jáhánge dawrıgi ketken
olimpiada ma'bndlari	олимпийские боги	olympic gods	олимпиада қудайлары	худоёни олимпӣ	olimpiýa taňrlary	олимпиада кудалары	olimpiada qudayları
ommaviy	массовый	public	кең ауқымды, бұқаралық	оммавӣ	körpülikleýin	массалык	g'alabalıq
orqa miya	позвоночник	spinal cord	омыртқа	сутунмۇхра	oñurga	арка мээ	arqa miy
osonlashtirmoq	упрощать	to simplify	женілдету	осон кардан	ýönekeýleşdirmek	жөнөкөйлөтүү	ańsatlastırıw
ovozli boshqarish	голосовое управление	voice control	дауыспен басқару	назорати овоз	sesli dolandyryş	үн башкаруу	dawisli basqarıw
ozuqa	питание	food	қорек	xўрокворӣ	iýmit, azyk	азыктар	azıq
parvarishlamoq	уход	to care	қамқорлық жасау	парвариш кардан	ideg	өстүрүү	ósiriw, tárbiyalaw
parvoz	полёт	flight	ұшу	парвоз	ucus, awiasiýa	учуу	párwaz
pat	пух, перо	feather	қауырсын	пар	ýelek	мамык	pár
palapon	птенец	fledgling	балапон	чүчаи парранда	jüýje/jik	балапан	palapan
ruxta	прочный, крепкий	thorough	мукият	пухта	berk, gaty	туруктуу	ruqta
qadriga yetmoq	ценить	to appreciate, to value	багалау	қадр кардан	gadyrlamak	кадрыга жетүү	qádirine jetiw
qahramon	герой	hero	батыр	қаҳрамон	gahryman	каарман, баатыр	qaharman
qalb	сердце	heart	көніл	дил, қалб	ýürek	көңүл	kewil
qat'iyatlı	решительный, категорический	persistent	жігерлі	қатый	güýcli, edermen	чечкиндүү	shıdamlı
qatnamoq	посещать	to attend	қатысу	иштирок кардан	gatnamak	каттоо	qatnaw
qishloq xo'jaligi	сельское хозяйство	agriculture	ауыл шаруашылығы	хочагии қишлоқ	oba hojalygy	айыл чарба	awıl xojalığı
qiyingchilik	трудность	hardship	қыындық	душворӣ	kynçylyk	кыйынчылык	qıyınhılıq

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
qizdirmoq	разогреть	to heat up	қыздыру	гарм кардан	gyzdyrmak	кызытуу	qızdırıw
qo'mita	комитет	committee	комитет	қумита	komitet	комитет	shólkem
qopqon	ловушка	trap	тұзак	дом	duzak	капкан	qaqpan
qutqaruv xizmati	спасательная служба	rescue service	құтқару қызметі	хадамоти начот	halas ediş gullugy	кутқаруу қызматы	qutqariw xizmeti
quvvat bag'ishlamoq	заряжать энергией	to energize	қуаттандыру	қувватбахшидан	güçlendirimek, kuwwat bermek	энергия менен толтуруу	quwat beriw
rag'batlantirmoq	поощрять	to encourage	ынталандыру	raigbatonidan	höweslendirmek	шыктандыруу	xoshametlew
raqib	соперник	rival, opponent	бәсекелес	рақиб	bäsdeş	атаандаш	qarsılas
rivojlanmoq	развиваться	to develop	дамыту	инкишофёбі	ösmek, kâmilleşmek	өңүктүрүү	rawajlanıw
ruhiy dalda	духовная поддержка	spiritual encouragement	рухани көмек	rûxbalandkuný	ruhy höweslendirmek	рухий колдоо	ruwhiy járdem
sahar	рассвет, заря	dawn	сәрі, таңертен	саҳар, субҳ	şäher	таң	azan, tan
sakramoq	прыгать	to jump	секіру	чахидан	bökme	секириүү	sákiriw
salmoqli	тяжёлый, массивный	massive, significant	салмақты	башумор	daýaw, gabaraly, iri	оор, массалык	salmaqlı
salohiyat	потенциал	skill, ability	әлеует	салохият	potensial, kuwwat	потенциалдуу	talant
sayt egasi	владелец сайта	site owner	сайт иесі	соҳиби сайт	sahyrapnyň/ saýt eýesi	сайт ээси	sayt iyesi
sersuv	водянистый	juicy	суы мол,	сероб	suwly	суулүү	suwli
sevinmoq	радоваться	to rejoice	көнілдену	шод шудан	şatlanmak	кубануу	súyiniw, quwanıw
sifat	качественный	quality	сапа	сифат	hil	сапаттык	sapa
sodir bo'lmoq	произойти	to happen	болу	содир шудан	bolmak, yüze çük mak	болот	júz beriw
so'lmoq	увядать	to wilt	солу	пажмурда шудан	solmak, sülleremek	солуу	soliw
tabobat	лечение	medicine	емшілік	табобат	bejeriş, bejerme	табабат	medicina
tadqiqotchilar	исследователи	researchers	зерттеушілер	тадқиқотчиён	gözlegçiler	изилдөөчү	izertlewshiler
takrorlanmas	не повторяется	unrepeatable	қайталанбайды	нотакрор	gaýtalanmaýan	кайталанғыс	tákirarlanbas
tamoyil	принцип	principle	қагидат	принсип, асос, шарт	prinsip, ýörelge	принцип	prinsip
tarixiy ashyo	исторические предметы	historical items	тарихи айғак	ашёхон таърихӣ	taryhy zatlar	тарыхый буйумдар	tariixiy buyım
tekis joy	ровное место	flat place	тегіс жер	чои ҳамвор	tekiz ýer	тегиз жер	tegis orin
tepalik	холм	hill	тәбе	теппагай	depelik, beýiklik	адыр, дәбә	tóbelik
tirbandlik	скопление	crowd	кеңтеліс	тирбандй	ýugnama, üşümre	үймөлөктөө	tıǵılıs
tomoshabin	зритель	spectator	көрермен	тамошобин	tomaşaçy	көрүүчү	tamashagóy
tovush tezligi	скорость звука	speed of sound	дыбыс жылдамдығы	суръати садо	ses tizligi	үндүн ылдамдығы	dawis tezligi

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
to'yib olmoq	наедаться, насыщаться	to be full	тойынды	қаноатманд шудан	iýip doýmak, doýmak	тойуу	toyip alıw
tumshuq	клюв	beak	тұмсық	нұл	çüňk	түмшук	tumsıq
uddaburon	способный	agile	ептірек, икемдірек	үхдабаро	edermen, gujurly	жәндемдүү	epshil
udum	традиция	ritual	рәсім	аңъана, расм, одат	däp-dessur	салт	dástür
umrboqiy	вечный	lifelong	өмір бойы	абадй, човидонй	baky, ömür boýu	түбөлүк	ómirlik
urf	обычай	custom, tradition	дәстүр	одат, урфу одат, расм, таомул	däp	салт	úrp-ádet
urush faxriyঠari	ветераны войны	war veterans	соғыс ардагерлері	ветеранхоң чанг	uruş weteranlary	согуш ветераны	uris nuranıyları
uzoq muddat	длительный срок	long term, long time	ұзақ мерзім	муддати тұлонй	uzak möhlet	узак мөөнөт	uzaq müddet
vaqtни taqsimlash	распределение времени	time allocation	уақытты бөлу	тақсимоти вақт	wagt bölünüşi	убакытты белгештүрүү	waqitti bólisiřiň
vaqtни tejamoq	экономить время	to save time	уақытты үнемдеу	сарфа карданни вақт	wagty tygşytlamak	убакытты үнөмдөө	waqitti tejew
vaziyat	ситуация	circumstances	жағдай	вазъият	ýagdaý	ситуация, жагдай	jaǵday
voyaga yetgan	взрослый	adult	ересек	ба воя расидан	ulalan/ ýetginjek	бойго жеткен	er jetken
xabar bermoqueq	сообщить	to report	хабарлау	хабар додан	hasabat bermek, habar bermek	кабар берүү	xabar beriň
xaridor	клиент	customer	клиент	муштарй, харидор	müşderi	клиент, кардар	qarıydar
xavf	опасность	danger	қауіп	хатар, хавф	howp	коркунуч	qáwip
xayriya hashari	благотворительность	charity work	қайырымдылық асары	ҳашари хайрия	haýyr-sahawat haşary	кайыр-садага ашары	qayırqomlıq şembilik
xizmat ko'rsatmoq	служить	to serve	қызмет көрсетүү	хизмат нишон додан	hyzmat etmek	кызмат кылуу	xızmet kórsetiň
xon	правитель, хан	khan	хан	хон	han	кан	xan
xursandchilik	радость	joy	қуаныш	шодмонй	şatlyk	кубаныч	quwanışlılıq
yakka kurash	одноборье	martial arts	жеке күрес	гүштини якка	ýeke söwes	жеке күрөш	jeke gúres
yashirmoq	прятать	to hide	жасыру	пинхон кардан	gizlemek	жашируу	jasiruv
yebto'umas	жадный	gourmand	қомағайлау, тойымсызыдау	сернашаванда	doýmaz, açgöz	тойбос, сугалак	jep toymas
yechim topmoq	найти решение	to find a solution	шешімін табу.	халли мүшкілтөрт ёфтап	çözgüt tapmak	чечимин табуу	sheshim tabıw
yengil	лёгкий	light	женіл	сабук	ýeñil	женіл	jeñil
yengmoq	преодолеть	to win	жену	мағлуб кардан	ýeñmek	женип чыгуу	jeñiw
yer chopmoq	копать землю	to plow the ground	жер шабу	замин рондан	ýer çapmak	жер чабуу	jer shabiw
yer qa'ri	центр земли, ядро земли	depth of the earth	жер қойнауы	қаъри замин	ýer ýadrosy	жер асты	jer astı
yiqitmoq	снести	to tear down	жығы	афтонидан	ýýkmak	жыгылуу	jiǵılıtiň
yo'lovchi	пассажир	passenger	жолаушы	мусофор	ýolagçy	пассажир	jolawshi

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
yo'nalish	направление	direction	багыт	самт	ugur	багыт	jónelis
yoqimli	приятный	pleasant	жагымды	хуш, форам, гуворо, диллисанд	ýakymly	жагымдуу	jaǵımlı
zabt etish	завоевание	conquest	жаулап алу	забт кардан	basyp almak	жөнеп алуу	iyelew
zambil	носилки	stretcher	зәмбіл	замбар	zambil	замбил	zámbér
zar ip	золотая нить	gold-thread	зер жіп	риштаи заррин	zer ýüp	зар жип	altin jip
zaxira	резерв	reserve	қор	захира	ätiýaçlyk	запас	rezerv
ziyofat	угощение, застолье	feast, banquet	зияпат, (банкет)	зиёфат	hödür etme, hödür-kерем	конок кылуу	ziyatap
ziyorat qilmoq	посетить	to pilgrimage	зиярат ету	зиёрат кадан	zyýarat etmek	зыйарат кылуу	ziyarat qılıw
o'rindiq	сиденье	seat	орындық	чойи нишастан	oturgyç	отургуч	orındıq
o'simlik shirasi	липкий	plant juice	өсімдік шырыны	шарбати сабзавот	önümlük şiresi	илээшмеме (өсүмдүк ширеси)	ósimlik shiresi
o'tin chormoq	рубить дрова	to chop firewood	отын кесү	хезум кафондан	odun çäpmak	отун кесүү	otin shabiw
o'ziga xoslik	的独特性	uniqueness	бірекейлік	ба худ хос	özboluşlılyk	的独特性	ózine tálilik, ózgeshe
o'lchamoq	измерять	to measure	өлшеу	чен кардан	ölçemek	өлчөө	ólshev
o'zgartirish	изменить	change	өзгерту	тағири додан	üýtgetmek	өзгөртүү	ózgertiw
g'ayrioddiy	необычный	strange	өзгеше	ғайриоддый	adaty däl	башкача	ǵayritábiyy
g'alati	странный	weird	біртүрлі	ачиб	geň	бир түрдүү	ájeptawir
g'ayrat	энергия	zealousness	қайрат	ғайрат	yħlas	кайрат	ǵayrat
g'oliblik shohsupasi	пьедестал	victory podium	женіс тұғыры	минбари ғолиб	ýeňiş münberi	пьедестал	jeńimpazlıq shını
sharshara	водопад	waterfall	сарқырама	шаршара	şaglawuk	шаркыратма	sháshme
shimoliy yarimshar	северное полушарие	northern hemisphere	солтүстік жарты шар	нимкураи шимолй	demirgazyk ýarym şary	тұндук жарым шар	batis yarımshar
shinam	уютный	cozy	шина	хушманзар, зебо	gelşikli, bezegli	жайлуу	kórkem
shug'ullanmoq	упражняться	to practice, to train	айналысу	машғул шудан	meşgullanmak	машигуу	shuǵillanıw
chakka	висок	cheek	чакка	чакка	çekge	чеке, чыкый	sheke
chavandoz	всадник	jockey	шабандоз	савора, бузкаш	çäpyksuwar	атчан	shabandoz
chidam	терпение	endurance	төзім	сабр, тобу тоқат, таҳаммул	çydam, sabr	чыдамкайлык	shidam
chidamli	устойчивый	resistant, enduring, tolerant	төзімді	устувор, пойдор, маҗкам	çydamly	чыдамкай	shidamli
chillak	палочка	chillak (game played with sticks)	чиллақ (оыйн)	бозин лелак	taýak, çör	чиллак (оюн)	shúllik
chuqur	глубокий	deep	терен	чукур	çuň	терен, чункур	shuqır

O‘quv nashri

O‘ZBEK TILI

Ta’lim rus, qoraqalpoq va qardosh tillarda olib
boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik

Rassom: Hasan Maqsudov

Muharrir: Xurshidbek Ibrohimov

Badiiy muharrir: Sarvar Farmonov

Texnik muharrir: Akmal Sulaymonov

Sahifalovchi va dizayner: Hasan Maqsudov

Musahhih: Orifjon Madvaliyev

Bosishga 06.07.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. CharterITC garniturasi. Kegli 12. Offset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 20,46. Nashriyot-hisob tabog‘i 00,00. Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ____.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.